

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

DJANPEISOVA G.E., DAVLATOVA R.H., HAYDAROVA SH.N.

BOLALARNING IJTIMOIIY MOSLASHUVI

DARSLIK

5111800-Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2023**

UO‘K: 373.2.015.3(075)

KBK: 74.102ya7

B 83

Bolalarning ijtimoiy moslashuvi [Matn] : darslik / G.E. Djanpeisova, R.H. Davlatova, Sh.N. Haydarova. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 206 b.

“Bolalarning ijtimoiy moslashuvi” darsligida bo‘lajak tarbiyachilarga ijtimoiy-pedagogika, uning obyekti, tadqiqot predmeti va asosiy kategoriyalari haqida nazariy bilimlarni berish, bolani ijtimoiylashtirishning asosiy omillari va qonuniyatlari haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirish, ijtimoiy-pedagogik faoliyatning o‘ziga xosliklari va uning gumanistik yo‘nalganligini yoritib berish, va turli toifadagi bolalar bilan ijtimoiy- pedagogik faoliyat olib borishning asosiy metod va shakllarini o‘rganishga doir ilmiy-nazariy ma‘lumotlar keltirilgan.

Darslik pedagogika oliy o‘quv yurtlari, pedagogika kollejlarning maktabgacha ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, o‘quvchilari hamda maktabgacha ta‘lim sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar va mutaxassislar, pedagoglar uchun mo‘ljallangan.

Mualliflar:

G.E.Djanpeisova – Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitet Filiali “Maktabgacha ta‘lim” kafedراسi mudiri, P.f.n., dotsent.

R.H.Davlatova – NavDPI. “Maktabgacha ta‘lim” kafedراسi dotsenti, DSc.

Sh.N.Haydarova – NavDPI. “Maktabgacha ta‘lim” kafedراسi katta o‘qituvchisi.

Mas‘ul muharrir:

R.H.Davlatova – NavDPI. “Maktabgacha ta‘lim” kafedراسi dotsenti

Taqrizchilar:

S.Y. Ashurova – pedagogika fanlari nomzodi, professor

S.B. Sanayeva – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

© Djanpeisova G.E., Davlatova R.H., Haydarova Sh.N.

ISBN 978-9943-9211-5-3

© “Bookmany print” nashriyoti, 2023.

KIRISH

O'sib kelayotgan avlodning tarbiyasi va ijtimoiy jarayonlarga moslashuvida bilim, unga munosabat masalasi doimiy muammo hisoblanadi. Bu muammo zamonaviy sharoitda yanada keskin ko'rinish kasb etmoqda.

So'nggi yillar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv hamda tarbiya tushunchalarining o'zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy rivojlanishi bolaning jamiyat qadriyatlari, urf-odatlarini va madaniyatini, shuningdek, jamiyatda qulay hayot kechirishiga yordam beradigan shaxsning ijtimoiy xususiyatlarini o'zlashtiradi. Ijtimoiy moslashuv jarayonida bolalar muayyan qoidalar asosida yashashni o'rganadilar va xatti-harakatlar normalarini hisobga olishadi. Aloqa jarayonida bola ijtimoiy muhitga ega bo'lib, uning yaqin atrofi: ota-onalar, tarbiyachi-pedagoglar va tengdoshlari tomonidan ta'minlanadi.

Ijtimoiy salohiyat bolaning faol ravishda muloqot qilishi va axborot almashinuvi tufayli amalga oshiriladi. Ijtimoiy mas'uliyatsiz bo'lgan bolalar ko'pincha boshqalarning tajribalarini rad etadi hamda kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilmaydi. Bu madaniy ko'nikmalarni egallamasligi va zarur ijtimoiy fazilatlarini yo'qotishi tufayli kelajakda antisional harakatlarga olib kelishi mumkin.

Bolaning ijtimoiylashuvi – juda uzoq va murakkab jarayon hisoblanadi. Har qanday jamiyat shunga intiladiki, har bir bola ma'lum ijtimoiy va ahloqiy qadriyatlar tizimiga, shu jamiyat meyor va qoidalariga ega bo'lishi, shu jamiyatda yashash uchun, teng huquqli a'zosi bo'lishga intiladi.

Ijtimoiylashuv bu har bir insonning hayotini to'la to'kis tashkil etishi uchun zaruriy ko'nikmalarga ega bo'lishidir. Insonni boshqa tirik jonzotlardan farqi u xulq-atvori va muloqotga kirishuvchanligi bilan farq qiladi.

Individni ijtimoiylashuvi avvalo oiladan boshlanadi. Ilk ijtimoiylashuv tug'ilgandan to yetuk shaxs bo'lgunicha davom etadi. Bola uchun ilk ijtimoiylashuv jarayoni muhim bo'lib, u keyingi davrda ijtimoiylashuv uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yunon faylasufi Platon o‘zining “Davlat” va “Qonunlar” deb atalgan dialoglarida: “shaxsning jamiyat bilan aloqalari masalasiga to‘xtalib, jamiyat individga nisbatan o‘zgarimas bir birlikki, uning taraqqiyoti jamiyat rivojlanishi qonunlariga bo‘ysunadi,” degan fikrni himoya qilgan. Unga qarama-qarshi fikrni Aristotel bayon etib, individni barcha ijtimoiy o‘zgarishlarning sababchisi, chunki unda bunga imkon beruvchi psixologik tizimlar bor, deb yozadi. Ya’ni, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabat masalasi Platonda jamiyat foydasiga hal bo‘lgan bo‘lsa, Aristotelda bu narsa shaxs foydasiga yechilgan. Ulardan keyingi-yangi davr faylasuflari-Gobbs, Gelvetsiy, Lokk, Russo, Gegel, Makiavelli, sharq faylasuflaridan Beruniy, Forobiylar ham barcha asarlarida shaxs va jamiyat qarama-qarshiliklarini ilmiy asosda sharhlashga urindilar, lekin hech qaysisi bu muammoni ijtimoiy psixologik muammo darajasiga ko‘tara olmadi.

Bolalarni ijtimoiylashuvi bo‘yicha xorij olimlari I.S.Kon, A.V.Mudrik, V.S. Muxina, A.V.Petrovskiy va boshqa olimlar tadqiqot olib borganlar. Bolalarning ijtimoiylashuvi avvalo yuqorida keltirganimizdek oiladan boshlanishini mazkur olimlar ham asoslaganlar. A.P.Ganicheva, O.L.Zvereva, S.V.Kupriyanovalar oilaviy tarbiya asosida bolalarning ijtimoiylashuvi ta‘minlanishini tasdiqlaydilar.

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning ijtimoiylashuvi pedagogik ta‘sir asosida amalga oshadi. Oila a‘zolari va tarbiyachilar bolaning o‘yin, mehnat, mustaqil faoliyat jarayonida aka, ukasi, opasi va tengdoshlari bilan muloqot qilishlarini tashkil qiladi. Bolalarni muloqot qilish ko‘nikmalari asta-sekinlik bilan shaxs sifatida shakllanishlariga zamin yaratadi.

“Bolalarning ijtimoiy moslashuvi” fani “Ijtimoiy pedagogika” fanining bir qismi bo‘lib, o‘zining nazariy, ilmiy va amaliy asoslariga ega. Ushbu fan ijtimoiy pedagogika fanining yuzaga kelishidagi madaniy-tarixiy an‘analari, uning kategoriya va tamoyillari, ijtimoiy – pedagogik tadqiqot metodlari va ijtimoiy pedagogning turli toifa bolalari bilan ishining o‘ziga xosliklarini o‘rganishga yo‘naltirilgan.

Darslikda fanning asosiy tushunchalari talabalarning mustaqil tayyorlanishlari uchun mavzu yuzasidan nazorat savollari, test topshiriqlari, glossariy va adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

Darslik pedagogika oliy o‘quv yurtlari, pedagogika kollejarining maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar va maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan rahbar va mutaxassislar hamda pedagoglar uchun mo‘ljallangan.

TARBIYA-IJTIMOIIY HODISA

TARBIYA-IJTIMOIIYLASHTIRISH OMILI.

IJTIMOIIYLASHTIRISH-TARBIYANING BOSH MAQSADI

Tayanch iboralar: *tarbiya, ijtimoiylashuv, diskret (uzlukli), o‘z-o‘zini tarbiyalash, sub‘ektiv-ob‘ektiv, rehabilitatsiya, individuallashuv, ijtimoiy moslashuv.*

Tarbiya – ijtimoiy institut.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy institutlarning bir butun tizimi mavjud. Ijtimoiy institut jamiyat a‘zolarining ijtimoiy resurslardan foydalanish jarayonida vujudga kelgan u yoki bu ehtiyojlarini (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy va boshqa) qondirish uchun birgalikdagi faoliyatlarining tarixan shakllangan shaklidir. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida jamiyat a‘zolarining ijtimoiylashuvini amalga oshirish, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini targ‘ib etish, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sharoit yaratish umuman olganda jamiyatning faol a‘zolari yetishtirish uchun paydo bo‘lgan. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida muayyan jamiyatning muayyan rivojlanish bosqichida paydo bo‘ladigan fenomen hisoblanadi.

Har bir jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayonida muayyan bosqichlarda quyidagilarni sodir bo‘lishi kuzatiladi:

➤ Tarbiya oilaviy, diniy, ijtimoiy turlarga ajraladi, ularning o‘rni, ahamiyati va o‘zaro munosabati o‘zgarmay qoladi.

➤ Tarbiya jamiyatdagi katta avloddan yosh avlodga qarab yo‘naladi va borgan sari ko‘proq yosh guruhlarini qamrab oladi.

➤ Ijtimoiy tarbiya jarayonida uning tarkibiy qismlari sifatida ta‘lim olishni, keyinchalik ma‘lumotli bo‘lishni ajratsak bo‘ladi.

➤ Korreksion tarbiya paydo bo‘ladi.

➤ Totalitar, siyosiy va jinoyatga moyil jamiyatlarda g‘ayri-ijtimoiy tarbiya amalga oshiriladi.

➤ Tarbiyaning vazifa, shakl, usul va vositalari o‘zgaradi.

➤ Tarbiyaning ahamiyati ortadi. U jamiyat va davlatning alohida funktsiyasi bo‘lib qoladi va ijtimoiy institutga aylanadi.

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida o‘z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

oilaviy, diniy, ijtimoiy, korreksion tarbiyalar majmuasi;

ijtimoiy rollar yig'indisi; tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar, oila a'zolari, din arboblari, mintaqaviy, xududiy tarbiya tashkilotlari rahbarlari, jinoiy va totalitar guruhlar yetakchilari;

turli xildagi tarbiya muassasalari;

ijobiy va salbiy sanksiyalar yig'indisi;

tarbiyachilarning ta'lim va professional tayyorgarligi darajasi.

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy hayotda muayyan vazifalarga ega:

➤ Jamiyat a'zolarida bir maqsad sari qaratilgan dunyoqarashni shakllantirish va ular tomonidan tarbiya jarayonida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bir qator ehtiyojlarning qondirilishi uchun sharoitlar yaratish.

➤ Jamiyatda faoliyat yuritish va uni rivojlantirishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash.

➤ Ijtimoiy hayot barqarorligi madaniyatini avlodlarga meros qoldirish orqali ta'minlash.

➤ O'zgaruvchan ijtimoiy holatlarga jamiyat a'zolarini moslashishini ta'minlash.

➤ Jamiyat a'zolarining intilishlari, maqsadlarining birlashishini va ijtimoiy, kasbiy, etnokonfessial guruhlar manfaatlarining uyg'unlashuvini ta'minlash.

Ijtimoiy pedagogning bu yo'nalishlarga bog'liq asosiy faoliyati zamonaviy tarbiya tamoyillari asosida quriladi.

Tarbiya ijtimoiylashuv sifatida.

O'sib kelayotgan avlodning tarbiyasi va ijtimoiy jarayonlarga moslashuvida bilim, unga munosabat masalasi doimiy muammo hisoblanadi. Bu muammo zamonaviy sharoitda yanada keskin ko'rinish kasb etmoqda. So'nggi yillar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o'zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Davlat mafkurasining o'zgarishi sababli bu muammoga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga birinchi guruh olimlari tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Ikkinchi guruh olimlari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o'rganishadi. Uchinchi guruh olimlari esa ijtimoiylashuv deganda, fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. To'rtinchi guruh olimlari shaxs ijtimoiylashuvi tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. Biroq

tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligini hamma tan oladi. Tarbiyaning asosida ijtimoiy harakat bo'lishi, uni ijtimoiylashuvdan farqlaydi.

Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritgan Maks Veberg uning muammolarini yechishga qaratilgan harakat, inson xulq-atvorining taxminiy variantlarini sub'ektiv anglash sifatida ta'riflagan.

Umuman olganda, ijtimoiylashuv uzluksiz jarayondir, ya'ni inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo'ladi. Tarbiya esa diskret (uzlukli) jarayondir. Chunki u muayyan tashkilotlarda amalga oshirilib, zamon va makonda cheklangan bo'ladi. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biridir. Shunga qaramay, tarbiyaning umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Bunga uning ko'p ma'noliligini sabab qilib ko'rsatsak bo'ladi. Tarbiyani ijtimoiy hodisa, faoliyat, jarayon, qadriyat, tizim, ta'sir, o'zaro munosabat sifatida ko'rib chiqsak bo'ladi. Bu tushunchalarning hech qaysisi tarbiya mazmunini alohida olgan holatda to'liq ochib bera olmaydi.

Ijtimoiylashuvning nisbatan ijtimoiy nazorat qilinuvchi jarayonga xos bo'lgan umumiylikini aks etishga harakat qilingan tarbiyaning ta'rifi keltirilgan. Biroq unda oilaviy, diniy, ijtimoiy tarbiyaning xususiyatlari inobatga olinmagan. A.V.Mudrik quyidagi ta'rifni ilgari suradi:

Tarbiya – insonning jamiyatga ko'nikishiga ko'maklashuvchi va bu ko'nikish sodir etiladigan guruh va tashkilotlarning xususiyatlariga mos keluvchi sharoitlar yaratuvchi insonning ongli rivojlanishi. Bu ta'rifni ham to'liq va butunlay to'g'ri deb bo'lmaydi. Unda muallifning nuqtai nazari o'z aksini topgan.

Ijtimoiy omillarning insonga ta'sir ko'rsatishining tarkibiy qismi bo'lgan tarbiya o'z xususiyatlariga ega. Bu jarayon boshqalaridan farqli ravishda doimo bir maqsad sari yo'naltirilgan va bu faoliyat maxsus tayyorlangan odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya jarayonida bola ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi boshqa omillar- ijtimoiy muhit, OAV, madaniyatlar inobatga olinadi. Biroq shuni esda tutish lozimki, tarbiya boshqa ijtimoiy omillar ichida o'z o'rniga ega bo'lib boshqa omillarning o'rnini to'liq to'ldira olmaydi ham, bekor qila olmaydi ham.

Tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri vaqt o'tgan sari o'zgaradi. Bola qanchalik kichik bo'lsin, tarbiya uning shakllanishiga shuncha

ko'p ta'sir ko'rsatadi. Bu vaqtda bolaning u yoki bu ijtimoiy qadriyatni tanlashdagi mustaqilligi ortadi. Borgan sari tashqi tarbiyaviy omillarning ta'siri kamayadi. Biroq boshqa bir jarayon – o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni rivojlana boshlaydi. Bolaning o'z shaxsini mukammallashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma'lumki, o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi. Bizning modelga binoan insonning o'z-o'zini tarbiyalashi ehrom bunyod etish bilan barobardir. Shuning uchun o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni bir umrga cho'ziladi. Tarbiya o'z-o'zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy an'analar, OAV, maktab jamoasi, do'stlar, bolalar bog'chasi va boshqalar) ijobiy ta'siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayonini sodir etadi. Ijtimoiy muhitning ta'siri qanchalik turli bo'lsa, bola undan shuncha erkin va mustaqil bo'ladi.

Bola ijtimoiylashuvi uning jismoniy va ruhiy rivojlanishining salbiy xususiyatlari bilan qiyinlashtirilishi, bolaning ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishi muhitning salbiy ta'siri oqibatida noto'g'ri yo'nalishda ketib qolishi mumkin. Buning natijasida bola me'yoriy ijtimoiy munosabatlardan chetda qolib, maxsus yordamga muhtoj bo'lib qoladi. Bunday bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni, avvalo, tarbiya orqali amalga oshiriladi. Biroq buning uchun har bir toifa bolalarning ijobiy jihatlari faollashtiruvchi tarbiya metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqish lozim.

Umuman olganda, tarbiyachi va mutaxassislarning vazifasi qiyin vaziyatlarda turgan bolaning ijtimoiy moslashuviga qaratilgan, ya'ni jamiyatda qabul qilingan qonun va me'yorlarga faol ko'nikishi yoki salbiy omillarning oqibatlarini yengishdir. Agar shaxsda ijtimoiy muhit salbiy sifatlarining shakllanmagan darajasi bolaga ijtimoiy muhitga ko'nikishga xalaqit beradigan holat bo'lsa, bolaning ijtimoiy moslasha olmasligi sodir bo'ladi. Bu holatda bola tomonidan yo'qotilgan ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni tiklashga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni qo'llash tavsiya etiladi.

Shunday qilib, bolaning jamiyatda o'sishi, rivojlanish jarayonida uning ijtimoiylashuvi sodir bo'ladi. Agar bu jarayon sodir bo'lmasa, uning aksi-dezadaptatsiya kuzatiladi. Bunday holatda bolaning ijtimoiy rehabilitatsiyasiga ehtiyoj tug'iladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida qanday maqsadda paydo bo‘lgan?
2. Har bir jamiyatning tarixiy rivojlanishi qanday bosqichlarda sodir bo‘lishi kuzatiladi?
3. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy hayotda qanday vazifalarga ega?
4. Qaysi olim ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritib, muammolarni yechishga qaratilgan harakat, inson xulq-atvorining taxminiy variantlarini sub’ektiv anglash sifatida ta’riflagan.
5. Bolaning jamiyatda o‘sishi, rivojlanishi jarayonida uning ijtimoiylashuvi qanday sodir bo‘ladi?

Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol metod:




“Nima uchun”?

“Nima uchun” sxemasi - muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri bo‘lib, o‘quvchilarning tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashini rivojlantiradi va faollashtiradi.

Buning uchun o‘quvchilar avvalo – Nima uchun? sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. Nima uchun? so‘rog‘ini beradilar va chizadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom etadi. Kichik guruhlariga birlashadilar, taqqoslaydilar, o‘zlarining chizmalarini to‘ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar. Ish natijalarini taqdimot qiladilar.

Nima uchun? chizmasini quyidagicha chizish mumkin:



Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Sharq allomalarining tarbiyaga oid fikrlari mavzusida esse yozing!

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1. O'рта maktabgacha yosh davri necha yoshlarni o'z ichiga oladi?

- a) 4-5 yosh
- b) 2-3 yosh
- c) 3-6 yosh
- d) 4-7 yosh

2. Ijimoiy pedagogikaning faoliyati qaysi bosqichlardan iborat?

- a) Tashxis, tayyorlov, amaliyot
- b) Hudud vaqt muomalalar
- c) Amaliyot vaqt hudud
- d) Tayyorlov amaliyot

3. Tamoil so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- a) Tamoyil — “Prinsip” so'zi (lot. Prinsipiumdan) berilgan hodisani belgilaydigan boshlanish, asos degan ma'noni anglatadi.
- b) “Tushuncha” degan ma'noni anglatadi

- c) “Asos” degan ma’noni ahglatadi
- d) “Qoida” degan ma’noni ahglatadi

4. “Notiqning tarbiyasi haqida” deb nomlangan ilk pedagogik asarni kim yozgan?

- a) Mark Fabiy Kvintilian
- b) Farobiy
- c) Yan Amos Kamenskiy
- d) Demokrit

5. “Ijtimoiy pedagogika” atamasi qaysi olim tomonidan fanga kiritilgan?

- a) Fridrix Disterseg
- b) Gebert Spenser
- c) Robert Ouen
- d) Adriana Gel’vetsiy

6. Qaysi olim savol-javob metodi orqali bilimlar qo‘lga kiritilishini, bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kirishishini va jamiyatning faol a’zosiga aylanishini ta’kidlagan.

- a) A. Al-Xorazmiy
- b) Al-Farobiy
- c) Yan Amos Kamenskiy
- d) Fridrix Disterseg

7. Tarbiyaga ehg kuchli ta’sirqiluvchi omillarga muhit va oilani kiritgan olim kim?

- a) X.X.Niyoziy
- b) A.Navoiy
- c) A.Avloniy
- d) Al-Farg‘oniy

8. Ijtimoiy pedagog oila bilan ish yuritishda qanday asosiy rolni bajaradi?

- a) Maslahatchi, himoyachi, metodist
- b) Metodist, himoyachi
- c) Maslahatchi, himoyachi
- d) Maslahatchi, metodist

9. Ijtimoiyashuv deb nimaga aytiladi?

a) Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy subyektga aylanishi

- b) Bolaning rivojlanishi
- c) Tashqi muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishi
- d) To'g'ri javob yo'q

10. Adaptatsiya nima?

a) Organizimning tashqi muhit bilan adekvat aloqalarning shakllanishi xususiyati

b) Insonni o'rab turgan va uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan sharoitlar

c) Bolaning individual rivojlanishi

d) Bolalarning shaxsiy rivojlanishi

IJTIMOIYLASHTIRISH JARAYONI VA TARBIYALANUVCHI TOMONIDAN JAMIYATDA MAVJUD BO‘LGAN ME‘YORLAR, QADRIYATLAR, XULQ-ATVOR SHAKLLARINING O‘ZLASHTIRILISHI

Tayanch iboralar: *ijtimoiylashtirish, individ, individuallashtirish, stereotip, yo‘naltirilgan ta‘lim, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy muhit.*

Ijtimoiylashuv tushunchasi.

“Ijtimoiylashuv” so‘zi dastlab siyosiy iqtisodiyotdan kelib chiqqan. U siyosiy iqtisodiyotda yer, ishlab chiqarish vositalarining umumlashuvi ma‘nosini anglatgan. “Ijtimoiylashuv” atamasini birinchi bo‘lib insonlarga nisbatan qo‘llagan amerikalik sotsiolog F.G.Keddings hisoblanadi. U “Ijtimoiylashuv nazariyasi” (1987) kitobida hozirgiga yaqin ma‘noda “ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir” degan fikrni bildiradi.

XX asr o‘rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini butun umri mobaynida o‘rganuvchi fanlararo bog‘lanuvchi mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli konsepsiyalarining tahlili uni shartli ravishda ikki asosiy yondoshuvga ajratish imkonini beradi:

➤ sub‘ektiv-ob‘ektiv. Unda insonga jamiyat ta‘sirining passiv iste‘molchisi sifatida qaraladi (E.Dyurkgeym, T.Parsons)

➤ sub‘ektiv-sub‘ektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o‘rni, uning hayotiy holatlarga ta‘sir etish qobiliyati nazarda tutiladi.

Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning hozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko‘proq mos keladi, Chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o‘zlashtirish jarayonidagi rivojlanish va o‘zgarishi bilan aniqlanadi.

Ijtimoiylashtirish jarayoni va tarbiyalanuvchi tomonidan jamiyatda mavjud bo‘lgan me‘yorlar, qadriyatlar, xulq-atvor shakllarining o‘zlashtirilishi

Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo‘lgan ob‘ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo‘ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir

ob'ektiv ehtiyoj -o'ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi roy beradi. Shaxsning faqat o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi. Shunday qilib, bolaning ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bog'liq ikki yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish).

Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv va individuallashuv jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiylashuv jarayonining mazmunini tashkil etadi. Inson(bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi sub'ekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. (J.Pia Je, R.Mertoj).

Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir.

Individuallashuv insonning hali yoshligidayoq paydo bo'ladigan ob'ektiv ehtiyojlari bilan bog'liq jamiyatdagi o'z-o'zini egallashidir. Bu ehtiyoj:

- o'z qarashlariga ega bo'lish;
- o'ziga xosliklariga ega bo'lish;
- unga tegishli bo'lgan masalalarni hal qilish, uning o'z darajasini aniqlab olishiga xalaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish xohishi sifatida namoyon bo'ladi.

Agar shaxsning jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individuallashuv jarayonlari o'rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi roy beradi. Shu bilan birga bu yerda shaxs va muhitning o'zaro ta'sir etishi ham sodir bo'ladi. Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv, moslashuv va individuallashuv o'rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon uch asosiy sohada amalga oshadi:

- Faoliyat turlarning kengayishi, uning shakl va vositalarini qo'lga kiritish, erkin mo'ljal olish.

- Muloqot doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish.

➤ Shaxsiy “Men” obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o‘z ijtimoiy mansubligi va o‘rni anglash, o‘z-o‘ziga baho berishni shakllantirish.

Ijtimoiylashtirish - shaxsning ijtimoiy munosabatlarga qo‘shilishi jarayoni va natijasi. Bu ijtimoiy tajribani shaxs tomonidan o‘zlashtirilishi va uning faoliyatida takrorlanishi bilan amalga oshiriladi. Ijtimoiylashtirish jarayonida shaxs shaxsga aylanadi va odamlar hayoti, qobiliyatlari uchun zarur bilimlarni oladi, ya’ni, boshqa odamlar bilan muloqot qilish va o‘zaro aloqa qilish qobiliyati.

Ijtimoiylashtirish omillari: yo‘naltirilgan ta’lim, mashg‘ulotlar, faoliyat va muloqotdagi tasodifiy ijtimoiy ta’sirlar.

Ta’lim va tarbiya - bu shaxsning ijtimoiy tajribasini yetkazish va insonning xatti-harakati, fazilatlari va xususiyatlarining ma’lum, ijtimoiy jihatdan ma’qul bo‘lgan stereotiplarini shakllantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan faoliyat.

Ijtimoiy muhit bolaga ta’sir qiladi, turli xil ta’sirlarni passiv ravishda qabul qilmaydi, lekin asta-sekin ijtimoiy ta’sir ob’ekti pozitsiyasidan faol sub’ekt pozitsiyasiga o‘tadi. Bola faoldir, chunki uning ehtiyojlari bor va agar ta’lim ushbu ehtiyojlarni hisobga olsa, bu bola faoliyatining rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ijtimoiylashtirish jarayonida shaxs o‘zining ijtimoiy muhitidagi ijtimoiy munosabatlarga kiradi va shu tufayli uning ruhiyati o‘zgarishi mumkin. Ma’lumki, odamning hayvonlardan farq qiladigan jihati insonda ong, aqliy jarayonlarning mavjudligi. Psixikaning rivojlanishi kamolotga bog‘liq ijtimoiy jarayonning o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishini o‘z ichiga oladi. Biroq, shaxsning mavjudligi jarayonida uning regulyatorlari bir-biriga zid kelishi mumkin bo‘lgan turli xil ijtimoiy munosabatlar tarkibiga kiritilishi mumkin. Masalan, maktabda bolaga “o‘rgatilgan” qadriyatlar uning oilasida qabul qilinganidan ancha farq qilishi mumkin va hokazo. Odamda bir nechta ma’lumot guruhlari bo‘lishi mumkin va agar ushbu guruhlarda qabul qilingan qadriyatlar juda boshqacha bo‘lsa, bu ichki nizolarga olib keladi. Agar murojaat etuvchi guruhlar tizimida bo‘lsa, ya’ni, inson hayoti maydonida chuqur va jiddiy qarama-qarshiliklar mavjud emas, ammo shunga qaramay, alohida, ziddiyatli qoidalar yoki har qanday vaziyatli qoidalar bo‘lishi mumkin. Bu ziddiyatlararo ziddiyatlarga olib kelmaydi, lekin bu odamni

qandaydir shaxsiy muammosi haqida o‘ylashga, “tashvishga solishga” olib keladi. Bunday tajriba shaxsiyatning rivojlanishiga ham olib kelishi mumkin, Chunki u insonning butun hayotini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin, ammo bu endi sotsializatsiya deb nomlanmaydi.

Ijtimoiylashtirish juda murakkab jarayon, u har qanday davr yoki yosh bilan chegaralanmaydi. Bu jarayon inson hayoti davomida doimiy ravishda sodir bo‘ladi va u ishtirok etgan barcha tomonlarga ta‘sir qiladi. Albatta, har bir jamiyat va jamiyatning har bir madaniyati o‘ziga xos xususiyatlarni boshqalardan ustun qo‘yadi hamda bolalar bu fazilatlarni sotsializatsiya jarayonida rivojlantiradilar. Ushbu madaniy qadriyatlar ijtimoiy normalarga asoslanadi.

Ijtimoiylashtirishning yetakchi hodisalariga xatti-harakatlarning stereotiplarini assimilyatsiya qilish, mavjud ijtimoiy normalar, urf-odatlar, manfaatlar, qiymat yo‘nalishlari va boshqalar kiradi. Xulq-atvorning stereotiplari signal irsiyati natijasida shakllanadi, ya‘ni, erta bolalikdan kattalarga taqlid qilish orqali. Ular juda barqaror va aqliy mos kelmaslikning asosi bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiylashtirish jarayonida insonlar o‘zini qanday tutishni, turli xil vaziyatlarga hissiy munosabatda bo‘lishni, turli xil his-tuyg‘ularni boshdan kechirishni, namoyon bo‘lishini, tabiiy va ijtimoiy dunyo haqida qanday bilib olishni, hayotini qanday tashkil qilishni, qanday axloqiy normalarga rioya qilishni, shaxslararo muloqotda qanday qilib samarali ishtirok etishni va ijtimoiy hayotda faol yashashni o‘rganadilar.

Ijtimoiylashtirish jarayonida ma‘naviy-axloqiy va ijtimoiy madaniy qadriyatlarni bolaning yosh imkoniyatlariga xos ravishda shakllantirib; hatti-harakatlari o‘zlashtirib, bolada shaxsiy sifatlar muloqatchanlik, ochiqlik va bag‘rikenglik ijtimoiylashuv mexanizmi hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. “Ijtimoiylashuv” so‘zi dastlab qaysi sohadan kelib chiqqan?
2. “Ijtimoiylashuv” atamasini birinchi bo‘lib qo‘llagan olim kim hisoblanadi?

3. “Ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir” degan fikrni bildirgan olim kim?

4. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi necha yo‘nalishda olib boriladi?

5. Ijtimoiylashtirish jarayonida insonlar yashashni qanday o‘rganadilar?

Mavzu yuzasidan interfaol metod:

Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol metod: “Aqliy hujum” metodi



Ushbu metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod bo‘lib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, hamda o‘z tasavvurlari va g‘oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma‘lum ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi hamda original yechimlarni topish imkoniyati tug‘iladi.

“Aqliy hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma‘lum qadriyatlarni aniqlab, ayni vaqtda ularga muqobil bo‘lgan g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Dars jarayonida “Aqliy hujum”dan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi.

Shunday qilib, “Aqliy hujum” qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg‘a surilgan g‘oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;

- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi;

- istalgan g‘oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;

- muammo yechimidan uzoq g‘oyalar ham qo‘llab-quvvatlanadi;

- barcha g‘oyalar yoki ularning asosiy mag‘zi (farazlari) qayd etish yo‘li bilan yozib olinadi;

- “hujum”ni o‘tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;

- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko‘zda tutilishi kerak.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriq:

“Ijtimoiylashtirish jarayoni va tarbiyalanuvchi tomonidan jamiyatda mavjud bo‘lgan me’yorlar, qadriyatlar, xulq-atvor shakllarining o‘zlashtirilishi” mavzusida taqdimot yarating!

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1. O‘rta maktabgacha yosh davri necha yoshlarni o‘z ichiga oladi?

- a) 4-5 yosh
- b) 2-3 yosh
- c) 3-6 yosh
- d) 4-7 yosh

2. Ijimoiy pedagogikaning faoliyati qaysi bosqichlardan iborat?

- a) Tashxis, tayyorlov, amaliyot
- b) Hudud, vaqt, muomalalar
- c) Amaliyot, vaqt hudud
- d) Tayyorlov, amaliyot

3. Tamoil so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

a) Tamoyil — "Prinsip" so‘zi (lot. Prinsipiumdan) berilgan hodisani belgilaydigan boshlanish, asos degan ma’noni anglatadi.

- b) “Tushuncha” degan ma’noni anglatadi
- c) “Asos” degan ma’noni anglatadi
- d) “Qoida” degan ma’noni anglatadi

4. “Notiqning tarbiyasi haqida” deb nomlangan ilk pedagogik asarni kim yozgan?

- a) Mark Fabiy Kvintilian
- b) Farobiy
- c) Yan Amos Kamenskiy
- d) Demokrit

5. “Ijtimoiy pedagogika” atamasi qaysi olim tomonidan fanga kiritilgan?

- a) Fridrix Disterseg
- b) Gebert Spenser
- c) Robert Ouen
- d) Adriana Gel’vetsiy

6. Qaysi olim savol-javob metodi orqali bilimlar qo‘lga kiritilishini, bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kirishishini va jamiyatning faol a’zosiga aylanishini ta’kidlagan.

- a) Al-Xorazmiy
- b) Al-Farobiy
- c) Yan Amos Kamenskiy
- d) Fridrix Disterseg

7. Tarbiyaga eng kuchli ta’sir qiluvchi omillardan muhit va oilani kiritgan olim kim?

- a) X.X.Niyoziy
- b) A.Navoiy
- c) A.Avloniy
- d) Al-Farg‘oniy

8. Ijtimoiy pedagog oila bilan ish yuritishda qanday asosiy rol ni bajaradi?

- a) Maslahatchi, himoyachi, metodist
- b) Metodist, himoyachi
- c) Maslahatchi, himoyachi
- d) Maslahatchi, metodist

9. Ijtimoiylashuv deb nimaga aytiladi?

- a) Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy subyektga aylanishi
- b) Bolaning rivojlanishi
- c) Tashqi muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi
- d) To‘g‘ri javob yo‘q

10. Adaptatsiya nima?

a) Organizimning tashqi muhit bilan adekvat aloqalarning shakllanishi xususiyati

b) Insonni o'rab turgan va uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan sharoitlar

c) Bolaning individual rivojlanishi

d) Bolaning shaxsiy rivojlanishi

BOLALIK-INSONNING IJTIMOIIY HAYOT ME'YORLARINI EGALLAY BOSHLASH DAVRI

Tayanch iboralar: jamiyatning yetuk a'zosi, qobiliyat kurtaklari, ijtimoiy omillar, biologik omillar, fe'l-atvor, qobiliyat, aqliy rivojlanish darajasi, insonparvarlik g'oyalari.

Bolani shaxs bo'lib shakllanishida omillarning ta'siri

Insoniyat vujudga kelibdiki, u avlodining davomchisi, qolaversa davlat poydevori bo'lgan bolani asrab-avaylash, uni voyaga yetkazib, jamiyatning yetuk a'zosi sifatida tarbiyalashga harakat qilib kelgan.

Bolalar haqida o'ylaganda, ko'cha-ko'yda ularga ko'zi tushganda odamning yuzida birdan tabassum paydo bo'ladi. Qaysidir qilig'i bilan, xatti-harakati yoki aytgan gapi bilan har qanday jiddiy odamni ham kuldira oladida bu mittivoylar. Ularning harakatlari tabiiy, o'ylanmagan, rejalashtirilmagan, har qanday maqsadu manfaatlardan holi va toza. Shuning uchun ham bolalarni soflik, tozalik, beg'uborlik ramzi sifatida qabul qilamiz. Bolalar qanchalik beg'ubor bo'lganliklari kabi shunchalik himoyasiz hamdir. Rasmiy manbalarda ham aholining mazkur qatlami eng himoyasiz hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida aholining 40 %ini 18 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etadi, 64 %ini esa - 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar. Shu sababli, inson huquqlari va erkinliklari sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bolalar va yoshlarning jismoniy, intellektual va ma'naviy rivojlanishi uchun qulay va eng yaxshi sharoitlarni yaratish, shuningdek ko'p bolali oilalarni, yetim bolalarni va oila muhitidan mahrum bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Odam bolasining rivojlanishi – bu muhim jarayon hisoblanadi. Shaxsning kamol topishida va uning xulqiga ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha bir xil bo'lavermaydi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri aniqlash va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasida, turli vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim.

Pedagogikada “shaxs” tushunchasi “inson” tushunchasidan farqli o'laroq, u insonning ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi. Yangi

jamiyat boshqa odamlar bilan muomalada bo'lishi, munosabat o'rnatish natijasida shakllanib boradigan sifatlarni bildiradi. Inson ruhiy xususiyatlarini rivojlanishi (aql, iroda, diqqat, harakat va hokazo) hayotda o'z o'rnini topa olishi, uning Vatan, xalqning ravnaqi yo'lida og'ishmay, e'tiqod bilan xizmat qilish, iymonli bo'lishi, insonni shaxs darajasiga ko'taradi. Bunday sifatlarning ro'yobga chiqishi tarbiyaga bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki inson butun umri mobaynida o'zgarib, rivojlanib boradi. Lekin bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davridagi o'sish nihoyatda kuchli kechadi. Bola mana shu yillar mobaynida ham jismoniy ham ruhiy jihatdan o'sishi va o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda ular karakteriga singdirilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib murakkab ijtimoiy munosabatlar jarayonida jamiyatda o'ziga munosib o'rin egallaydi. Shuning uchun ham L. I. Bojovich odam shaxs bo'lishi uchun u psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini bir butun inson deb his qilmog'i o'z xususiyat va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak degan edi.

Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. Bir odam boshqasidan o'zining mijozi fe'l-atvori, qobiliyati, aqliy rivojlanishga darajasi, ehtiyoj va ko'rsatishlari bilan farq qiladi. Bular odamning shaxsiy, ruhiy xususiyatlari bo'lib, ana shu xususiyatlarining rivojlanishi ta'lim-tarbiya cho'qqisiga erishgandan so'ng, inson shaxs sifatida o'zini namoyon qila olishi mumkin. Ayni vaqtda odam atrof muhitda ro'y berayotgan voqea va hodisalarga nisbatan o'z nuqtai nazarga ham ega bo'lmog'i kerak. Bu ham shaxsni birini ikkinchisidan farqlantiradigan belgilardir.

Bolalarga shaxsiy farqni ularning ruhiy holatining turlicha namoyon bo'lishini, xulqi va qarashlaridagi farqni qaysi omil belgilaydi degan tabiiy savol tug'iladi. Demak, inson rivojlanishda biologik omilmi, ijtimoiy omilmi yoki tarbiya omilimi qaysi, biri yetakchi rol o'ynaydi degan savolga javob berish lozimday ko'rinadi. Bu savolga turli tarixiy davrlarda turlicha yondoshib, javoblar berilgan. Hozirgi kunda ham bu masalaga turli nuqtai nazarlar bildirilmoqda.

Ochiqrog'i, fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va sotsial omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni

belgilash borasiga munozara ko'p asrlardan beri davom etib kelmoqda. Ko'p asrlik mazkur munozara zamirida ikki bir-biriga qarama-qarshi nuqtai nazar vujudga kelgan. Ulardan biri odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishida tabiiy-biologik omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi desa, ikkinchi toifa olimlar esa ijtimoiy voqealar tarbiyaning muhim omil ekanligini ta'kidlaylilar. Birinchi guruh olimlarining fikricha odam bolasining rivojlanishi tug'ma imkoniyatlarga bog'liq bo'lib, rivojlanish esa o'sish va tabiiy tug'ma xususiyatlarning miqdoriy o'zgarishlaridan iborat ekan. Demak, bolaga ona ajdodi avlod-ajdodlaridan tug'ma o'tgan xususiyatlarga rivojlanadi, degan tushuncha kelib chiqadi. Bu nuqtai nazar namoyondalari tarbiyaning rolini cheklab rivojlanishning inkor etadilar. Bunday ilmiy faraz fanda biologik yo'nalish deb ataladi. Bu yo'nalishning dastlabki namoyondalari qadimgi Yunon olim va faylasuflari Aristotel, Platon, Suqrot va Demokratlarning pedagogik qarashlarida o'z aksini topib, ular odamlar azaldan biri ikkinchisi ustidan hukmron bo'lishga, biri kambag'al, biri boy bo'lib yashashga va bunda itoat etib, bu ollohning irodasi deb sabr-toqat qilishga da'vat etilgan. Taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan. Rizq-ro'zini, umrini o'lchab bergan. Shu jumladan insonning kelajakda qanday inson bo'lishi ham ularning nasliy sifatlariga ko'p jihatdan bog'liq deb ko'rsatganlar. Aytish joizki, xuddi shunga yaqin nuqtai-nazarni XVII asr falsafasida vujudga kelgan «perrorizm» oqimi namoyondalarining fikrlarida ham uchratish mumkin. Ular odam bolasiga ona pushtidan qanday sifatlar o'tgan bo'lsa, faqat shu sifatlariga shakllanadi deb ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini chegaralab qo'yishadi.

Inson shaxsi va uning xulq-atvorning rivojlanishiga naslning rolini yuksak baholagan yana bir oqim «bixeviorizm» bo'lib, u XX asrning boshlarida keng tarqaldi.

Bu oqimning ko'zga ko'ringan yirik namoyondalari Eduard Trondayk bixeviorizm ta'limotiga asoslanib, odamning xulq-atvori mexanik stimullari organizmda bevosita tug'diradiga ko'plab qilinadigan mexanik mashqlar bilan mustahkamlanadigan sof tashqi reaksiyalardan iboratdir, deydi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, shu jumladan ong va aqliy qobiliyat ham nasldan

naslga o'tadi, go'yo odamning «ko'zi, tishlari va barmoqlari kabi aqliy qobiliyati tabiatan berilgandir. Inson «genlar batareyasi» bo'lib, ular nasldan-naslga tug'ma o'tib boradi va shaxsning rivojlanishini ham, uning kelajagini ham shular belgilaydi, deydi.

Amerikaning «prognatik» pedagogikasining atoqli vakili D.Dyui va uning nazariyasining davomchisi A.Kombslar ham shaxs rivojlanishini biologik omil deb izohlaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat deb ko'rsatadilar. Bola qanday xususiyatlar bilan tug'ilgan bo'lsa, tarbiya jarayonida bu sifatlar va xususiyatlar o'sib boradi. Tarbiya tashqaridan kiritilgan narsa emas, bola bilan dunyoga kelgan xususiyat va qobiliyatni o'zgartiradi» - deydi D.Dyui.

Darhaqiqat, pedagogika fani odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib. taraqqiy etib borishini o'ta murakkab va qarama-qarshi jarayon deb biladi. Uning shaxs sifatida shakllanishida nasl ham (biologik omil), ijtimoiy muhit ham (bola yashaydigan sharoit), tarbiya ham o'z holi va o'z o'rnini bilan muhim rol o'ynaydi. Bu har uchala omilning qaysi biri yetakchi ekanligini pedagogika fani asrlar mobaynida avlod-ajdodlarimiz to'plagan tajribalarga suyangan holda ilmiy nuqtai nazardan isbotlab berishga harakat qiladi.

Shaxs ma'lum ijimoiy tuzilgan mahsul. Uning mohiyatini ijimoiy munosabatlarning tashkil etadi. U yashayotgan jamiyatdagi konkret tarixiy sharoit belgilaydi. Shaxsning hayotiy faoliyatida sodir bo'ladigan ijtimoiy muhit unga ham ijobiy ham salbiy ko'rsatishi mumkin. Zero, odam ota-bobolar tajribasini o'rganadi, shaxs sifatida rivojlanib boradi, o'rgangan tajribalarni takomillashtiradi. Natijada ularni o'z faoliyatida qo'llaydilar. Ana shu yashayotgan sharoit va mehnat qilayotgan sharoit unga bo'layotgan tarbiyaviy ta'sir va faoliyat jarayonidagi aktivlik tufayli shaxsiy xususiyatlar vujudga keladi. Demak, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit va insoning o'zi o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga aktiv ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayotini o'z tabiatini o'zgartiradi.

Pedagogik va psixologik oqimlar shaxsning rivojlanishida irsiyatning rolga katta ahamiyat berish bilan birga muhit va tarbiyaning rolga ham yuksak baho berishadi.

Zotan shaxsning kamolga yetishida irsiyat va biologik omillarning rolini inkor etish aslo mumkin emas, lekin bolalarga o'zgarimas xususiyatlargina o'tadi deb tushunmaslik o'zgaruvchan xususiyatlar ham unutmazlik kerak. Tarixiy taraqqiyot jarayonida odamning anatomik belgilari, o'zgarishlari avloddan-avlodga mustahkamlanib borishi nasldan-naslga o'tishi mumkin.

Ayni vaqtda, odam bolasiga xos xususiyatlar ham irsiyat yo'li bilan o'tadi, ammo bu xususiyatlarning rivojlanishi uchun ular insonlar orasida yashashi, aloqa qilishi muhim rol o'ynashini unutmazlik lozim.

Agar bolada tug'ma layoqatlar bo'lsayu, lekin, uni o'stirishga yordam beradigan ijtimoiy, oilaviy va tarbiya muhiti bo'lmas ekan inson bo'lib tug'ilishning hojati ham yo'qdir.

Madomiki shunday ekan, demak, bola o'z layoqatiga mos sharoitlarda o'sib zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat yerga ko'rinib, rivojlanishi, aksincha, zarur sharoit bo'lmasa bor qobiliyat ham yo'q bo'lib ketishi mumkin. Mana shunday nuqtai nazar inson layoqatining namoyon bo'lishi va qobiliyat sifatida rivojlanishi to'la-to'kis hayot sharoitiga bog'liq. ekanligini ko'rsatadi.

Odam bolasidagi qobiliyat kurtaklarining rivojlanishi, avvalo ijtimoiy muhitga bog'liq ekan. Yana shu narsani ham aytib o'tish kerakki, sharoit qulay va noqulay bo'lishi ham mumkin.

Bolalikda egallangan ijtimoiy hayot me'yorlari

Butun jahonga ma'lum va mashxur O'rta Osiyoning buyuk allomalari onalaridan biri tabib, biri shoir, biri xandasa. biri muxandis, biri faylasuf bo'lib tug'ilmagan, balki ularning yashab turgan davri, ijtimoiy muhiti, qolaversa oila muhiti ularning mana shunday insonlar bo'lib yetishishlarida asosiy turtki bo'lgan, ular yashab turgan hayotning ma'nosi, ideal va voqelik, axloqiy xaqiqat burch va borliq, axloqiy hayotda obyektivlik va subyektivlikning o'zaro munosabati, bilish va qadr-qimmat singari axloqiy sifatning o'ta shakllanganligi ham bu kabi insonlarni yetishib chiqishida asosiy turtki bo'ladi. O'sha davrda insonparvarlik g'oyalari qadr-qimmat, insoniylik yangi va yuksak bosqichga ko'tarilgan edi. Shuning uchun ham Mirzo Bedil haqli ravishda tarbiyada inson qadr-qimmatining buyukligi haqida gapirib shunday

deydi; - «Xazrati insonning hurmat-ehtiroimga sazovor ekanligini tan olmagan har kim mal'undir».

Darhaqiqat bunday insonlar qadriyatlarimiz dahlsiz bo'lishi imom Buxoriy, Farobiy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, So'fi Olloyor, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Umar Xayyom, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bedil, Ahmad Donish va boshqa ko'pgina mutafakkirlarning ta'lim-tarbiya va ma'rifat haqidagi g'oyalaridan keng foydalanish va ularning didaktik qarashlarini pedagogika fanining rivolanishida metodik asos qilib olish bugungi kun talabidagi yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lib hisoblanadi

Individning sotsiumga kirishi murakkab jarayon hisoblanadi. Bir tomondan, individga hamjamiyatlar a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatish imkonini beradigan muayyan qadriyatlar tizimini (normalar, namunalar, bilimlar, tasavvurlarni) o'zlashtirib olishni o'z ichiga oladi. Ikkinchi tomondan, - shaxsning o'z ijtimoiy tajribasini orttirishi va o'zini faol qaror toptirishini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiylashuvining samaradorligini (odamning ijtimoiy jarayonlarga to'la-to'kis qo'shilganligini) bildiruvchi eng muhim ko'rsatkichlar ijtimoiy faollik va harakatchanlikdir.

Ijtimoiy faollik – shaxsning ijtimoiy jarayonlarda ongli ravishda qatnashishi, ularga ta'sir ko'rsatish imkoniyatining muvjudligidir. Totalitar tizim sharoitida ijtimoiy tizimning har qanday joyida odam ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsata olmas, ularni o'zgartirish yo'lida ijtimoiy faollik ko'rsata olmas edi. Bu hol odamning jamiyatdagi o'z o'rnini belgilab olishi jarayoni ko'pincha uning real istaklari va intellektual qobiliyatlariga bog'liq bo'lmasligiga olib borar edi. Binobarin, shaxsning sotsial roli uning ijtimoiy jarayonlar hamda ularni o'zgartirish imkoniyatlari haqidagi tasavvurlariga adekvat emas edi.

Jamiyat hayoti markazlashtirilgan bir sharoitda shaxsning ijtimoiy harakatchanligi ham, ya'ni jamiyatdagi o'z mavqeini istaklari va qobiliyatlariga muvofiq o'zgartirish imkoniyati juda kam edi. Odamning hayotdagi o'z o'rnini haqidagi tasavvuri bilan real mavqei o'rtasida farq bo'lgan bir sharoitda ijtimoiy maqomni

shaxsiy talablar, qobiliyatlar va qadriyat yoʻnalishlariga muvofiq oʻzgartirish mumkin emas edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Oʻzbekiston Respublikasida aholining necha % ini 18 yoshgacha boʻlgan bolalar tashkil etadi?
2. Yetim va oila muhitidan mahrum boʻlgan olalar davlatimiz tomonidan qanday qoʻllab-quvvatlanmoqda?
3. Qaysi davrlarda oʻsish nihoyatda kuchli kechadi?
4. Ushbu fikr kimga tegishli? «Xazrati insonning hurmat-ehтиromga sazovor ekanligini tan olmagan har kim malʼundir».
5. Har odam boshqa kishidan nimasi bilan farq qiladi?



Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol metod: “Insert” jadvalini toʻldiring

“Bolaning shaxs boʻlib shakllanishidagi omillarning taʼsiri” mavzusini tahlil qilish hamda “V”, “-”, “+”, “?” belgilarini qoʻyish lozim.

| «V» | « - » | « + » | « ? » |
|---|--|---|--|
| «ha» - oʻqiganlaringiz dan aniq bilgan yoki bilaman deb oʻylagan maʼlumot | «manfiy» - oʻqiganlaring iz, bilganlaringiz ga qarama-qarashi maʼlumot | «musbat» - oʻqiganlaringiz orasida siz uchun yangi boʻlgan maʼlumot | «savol» - oʻqiganlaringizda n siz uchun tushunarli boʻlmagan yoki shu haqida koʻproq narsa bilishni istagan maʼlumot |

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:
“Bolani shaxs bo‘lib shakllanishida omillarning ta’siri”
mavzusida videolavha tayyorlash

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1. Bolalar psixologiyasining asosiy metodlari qaysilar?

- a) Kuzatish, eksperimental, test, anketa
- b) Kuzatish, eksperimental
- c) Test anket, faoliyat
- d) Genetik metod, donalash metodi

2. Shaxsiy rivojlanishga ta’sir etadigan omillar qaysilar?

- a) Irsiyat va Muhit
- b) Ta’lim va tarbiya
- c) Atrof -muhit
- d) Faoliyat

3. MTTda ijtimoiy pedagogik faoliyati qanday bosqichlardn iborat?

- a) Tashxis, amaliyot, tayyorlov
- b) Amaliyot, faoliyat, ta’lim
- c) Amaliyot, mashqlar
- d) Metodlar, tamiyillar

4. Shaxs rivojlanishining asosiy omillari qaysilar?

- a) Biologik va ijtimoiy omillar
- b) Irsiyat va tashqi muhit
- c) Biologik va tashqi muhit
- d) Irsiyat va ijtimoiy omillar

5. Tarbiya qanday turlarga bo‘linadi?

- a) Oilaviy, diniy, itimoiy
- b) Ijtimoiy ,diniy
- c) Oilaviy, diniy, tarbiyaviy
- d) Ta’limiy, tarbiyaviy

6. Kimning asarida tarbiyani insonparvarlashtirish zarurati haqidagi g'oyalar bor?

- a) Yan Amos Komenskiy.
- b) Jan Jak Russo.
- c) Adriana Gel'vetsiy
- d) Robert Ouen

7. Faoliyat nazariyasining asoschisi kim?

- a) A.N. Leontyev.
- b) F. Obuxova
- c) L.S. Vigotskiy.
- d) D.B. Elkonin

8. Bolalar bog'chasi xozirda MTT birinchi marta qayerda va kim tomonidan tashkil etilgan?

- a) 1837 yili nemis pedagogi F. Fryobel tomonidan tashkil etilgan
- b) 1857 yili russ pedagogi Y.A. Komenskiy tomonidan tashkil etilgan
- c) 1837 yili nemis pedagogi Disterveg tomonidan tashkil etilgan
- d) 1867 yili russ pedagogi Lev Tolstoy tomonidan tashkil etilgan

9. "O'z o'zingni angla" degan shiorni ilgari surgan va shu bilan ong insonda barcha yovuzlikni yo'qotishi mumkinligini qaysi olim ta'kidlagan?

- a) Suqrot
- b) Demokrit
- c) Arastu
- d) Aflotun

10. Bolalar jamoasi deganda nimani tushunasiz?

- a) Muayyan umumiy maqsadi va faoliyati turiga ko'ra birlashgan bolalar guruhi
- b) Ta'lim va tarbiyaning muayyan maqsadi
- c) Faoliyat jarayonida bolalarning ishtiroki
- d) Xalq ta'limi tizimining dastlabki bo'g'ini

IJTIMOIYLASHTIRISHNING OMILLARI (MAKRO, MEZO VA MIKRO OMILLAR) VA MEXANIZMLARI

Tayanch iboralar: *ijtimoiylashuv, megaomil, makroomil, mezoomil, mikroomil, biologik omil, ijtimoiy omil.*

Ijtimoiylashuv omillari (makro, mezo va mikro omillar).

Ijtimoiylashuv bolalar, o'smirlar, yoshlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'p sonli shart-sharoitlar bilan o'zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta'sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. Aslida ularning hammasi ham aniqlanmagan. O'rganilgan omillar haqida bilimlar yetarli emas.

Ijtimoiylashuv omillari ikki guruhga bo'linadi: tashqi va ichki.

Tashqi omillarga quyidagilar kiradi.

1. Megaomillar (mega-eng katta)-kosmos, yer shari, planetar jarayonlarni kiritisa bo'ladi.

2. Makroomillar (makro-katta)-davlat, xalq, jamiyat, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ya'ni yerning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadigan omillarni kiritiladi.

3. Mezoomillar (mezo-o'rta)-hudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko'ra ajratilgan guruhlarining ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari. Mezoomillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, shu hududning OAVlariga ta'sir qiladi.

4. Mikroomillar, ya'ni muayyan shaxslarga ta'sir qiluvchi omillarga -oila, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.

Shaxs tug'ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit **sotsium** yoki **mikrosotsium** deyiladi.

Tashqi ijtimoiy omillardan tashqari ichki biologik omillar ham mavjud. Ularni bir-biridan mustaqil o'rganishning iloji yo'q. Zamonaviy ilmiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida biologik va ijtimoiy omillar ajratib ko'rsatiladi.

Biologik omillar. Bola shaxsining rivojlanishiga nasl-irsiyatning ta'siri deganda ota-ona, avlod-ajdodlarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarni takrorlanishini tushunmoq kerak. Har

bir bola ota-onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tananing tuzilishi, sochining, ko'zining, terisining rangi, bo'yi basti va boshqalar) ega bo'lgan holda dunyoga keladi. Bular jismoniy xususiyatlardir. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari ham tug'ma o'tadi. Bu fiziologik xususiyatlar hisoblanadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror-bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo'lishi uning hayot, ta'lim-tarbiya jarayonlariga bog'liq.

Ota-onadan bolaga o'tuvchi bir qator kasalliklar mavjud. Masalan: qon kasalliklari, shizofreniya, epilepsiya, daun kasalligi va boshqalar. Bu kasalliklarni ginetika fani o'rganadi.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo'lib tug'ilayotgan bolalar soni ko'paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og'ir kechadi. Shuning uchun ularga o'qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishning erishishlariga yordam beradi. Jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan maxsus pedagogika shug'ullanadi. Bu bolalar o'z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. Shuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir.

Ijtimoiy omillar. Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy sub'ektga aylanishi uning ijtimoiylashuvi, jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir bo'ladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadigan qadriyat, ijtimoiy norma, xulq-atvor namunasi orqali amalga oshadi.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi turli muhitlar - maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Yosh o'sib borgan sari ijtimoiy muhit "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan, uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolaning shakllanishida, uning ijtimoiy tajriba to'plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.

Muhit tushunchasi turli fan vakillari-sotsiologlar, psixologlar, pedagoglarning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Ular muhitning bola shakllanishi, rivojlanishiga ta'sirini o'rganadilar.

Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o'rni.

Ijtimoiy pedagogikada jamiyat, ijtimoiy muhit avvalambor bolaning yangi muhitlarga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Shu nuqtai nazardan inson va unga ta'sir qiluvchi tashqi omillarning jamiyatdagi o'zaro munosabati hamkorlik xarakteriga ega ekanligi muhimdir. Muhit-inson kirishishi, o'zini qulay sezishi uchun joylashuvinigina yetarli bilishi lozim bo'lgan ko'cha, uy va boshqa narsalar emas. Balki, muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan xarakterlanadigan inson jamoalari hamdir. Shuning uchun inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir qiladi hamda o'zgartiradi va o'z o'rnida muhit ham inson oldiga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning xatti-harakatlarini qabul qilishi ham, inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ladi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Inson jamiyatda bir vaqtning o'zida bir qancha mavqelarni egallashi mumkin. Masalan, ayol ham rafiqqa, ham ona, ham ustoz mavqelarini egallashi mumkin. Har bir mavqe insonga muayyan talablarni qo'yadi va shu bilan birga unga bir qancha huquqlarni

beradi. Insonning jamiyatdagi muayyan huquq va majburiyatlar bilan xarakterlanadigan mavqei ijtimoiy maqom deyiladi. Insonda tugʻma maqomlar boʻlishi mumkin. Insonning ijtimoiy maqomiga millati, tugʻilgan joyi, familiyasi va boshqa omillar taʼsir koʻrsatishi mumkin. Bunday maqomlarga odatda tugʻma maqom deyiladi. Boshqalari esa inson jamiyatda nimalarga mustaqil erishganligiga qarab belgilanadi. Masalan, ijtimoiy pedagog maqomiga shu sohadagi kasb tayyorlovchi oʻquv muassasasida taʼlim olgan va bu soha boʻyicha diplomga ega boʻlgan shaxs erishishi mumkin. Yuqoridagi maqomni qoʻlga kiritilgan maqom desak adashmagan boʻlamiz.

Maqom insonning jamiyatdagi xulq-atvorini muayyan vaziyatlarda oʻzini shu maqomdagilar holatiga koʻra belgilaydi. Atrofdagilar u shaxsdan nima kutishlari ham muhimdir. Shuning uchun inson maqomi bilan belgilanadigan xulq-atvor ijtimoiy rol deyiladi. Turli ijtimoiy rollarni oʻzlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning murakkablik jihati shundaki, jamiyatda faqat jamiyat tomonidan maʼqullanadigan maqomlar boʻlmasdan ijtimoiy norma va qadriyatlarga mos kelmaydigan maqomlar ham mavjud. Shuning uchun bola shakllanish va rivojlanish jarayonida ham ijobiy, ham salbiy rollarni oʻzlashtirishi mumkin.

Pozitiv rollarga avvalo oila aʼzosining rolini kiritsak boʻladi. Oilada bola bunday rollarning bir nechtasini oʻzlashtiradi: oʻgʻil yoki qiz, aka yoki opa, jiyan, nabira, shuningdek, bobokalonlari bilan ham tanishishi mumkin.

Bola oʻz rivojlanishi davomida oʻzlashtiradigan yana bir muhim roli bu jamoa aʼzosi rolidir. Bolalar bogʻchasi va maktabda, sport toʻgaragida tengqurlari bilan muomala qilganda, bola jamoa aʼzosi, oʻrtoq, doʻst, oʻquvchi, yetakchi kabi rollarni oʻzlashtiradi. Har bir inson isteʼmolchi rolini bajaradi. Chunki u hayoti mobaynida zarur boʻlgan narsalarga doim ehtiyoj sezadi. Bular: ovqat, kiyim-kechak, kitob va boshqalar. Jamiyat insonga taqdim etgan xizmatlardan oqilona foydalana olishni bola yoshligidayoq oʻzlashtirishi lozim.

Yana bir muhim ijtimoiy rol-oʻz vatani fuqarosi boʻlish, uni sevish, u bilan faxrlanish, vatanparvar boʻlish bilan bogʻliqdir. Shu bilan birga bola oʻzlashtirishi mumkin boʻlgan boshqa rollar ham

bor. Masalan, mutaxassis roli. Uni bola maktab, litsey yoki boshlang'ich kasbiy bilim yurtlarida o'zlashtiradi. Salbiy rollarga daydi, tilanchi rollarini misol qilsak bo'ladi. Katta shahar ko'chalarida, magazin, bozor, jamoa transportlarida tilanchi bolalarni ham uchratishimiz mumkin. Ular bu rollarga ko'nikishgan. O'tgan-qaytganlardan mohirlik bilan pul undirib olishadi. Ular orasida o'g'irlik bilan shug'ullanadiganlari ham uchraydi. Ba'zi hollarda bo'lsa, ularni bu ishga kattalar undashadi.

Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o'zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko'nikishi tushuniladi.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muloqot va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo'lga kiritishi, muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishi sodir bo'ladi. Anglash sohasida o'z "Men"i obrazini shakllantirish, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rnini anglash ro'y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ijtimoiylashuv omillari necha guruhga bo'linadi?
2. Shaxs tug'ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit nima deyiladi?
3. Ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning qanday sharoitlariga ko'nikishi tushuniladi?
4. Megaomil, makroomil, mezoomil, mikroomillar haqida tushuncha bering
5. Ijtimoiy maqom deganda nima tushunasiz?

**Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol metod:
“KWHL”-texnologiyasi**

| Know- nimalarni bilaman? | Want- nimalarni bilishni xoxlayman? | How- qanday qilib bilib olaman? | Learn- nimalarni o‘rganib oldim? |
|---------------------------------------|--|--|---|
| | | | |

Mustaqil ta’lim uchun topshiriq:
Mavzuga oid glossariy tuzish.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1.Bilish deganda nimani tushunasiz?

a) Ta’lim jarayonida bolalarga taqdim etilgan o‘quv materialining o‘zlashtirilganlik darajasi.

b) Borliq va uning ob’ektiv qonuniyatlarini o‘rganish, o‘zlashtirish, egallash.

c) Ta’lim jarayonida tarbiyachi tomonidan olib boriladigan faoliyat

d) Ta’lim oluvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarning shartli ifodalanishi

2.MTTda ijtimoiy faoliyat necha bosqichda olib boriladi?

a) 3 ta

b) 4 ta

c) 2 ta

d) 5 ta

3.O‘zbekistonda ommaviy maktabgacha tarbiyaning yuzaga kelishi o‘tgan asrning nechanchi yillariga to‘g‘ri keladi.

- a) 1910-1920 yillar
- b) 1917-1920 yillar
- c) 1917- 1990 yillar
- d) 1917-1990 yillar

4.Kompetentsiya bu ...

a) Bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma’lum sohada muvafaqiyatli faoliyat uchun qo‘llay olish;

b) Shaxsning muayyan ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha olgan bilim, malaka va ko‘nikmalari;

c) Muayyan ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan fanlar yo‘nalishi;

d) O‘zlashtirilgan bilim, malaka, ko‘nikmalar hamda o‘zlashtirilgan kopetentsiyalar;

5.Maktabgacha yosh davri necha yoshlarni o‘z ichiga oladi?

- a) 3-7 yosh
- b) 2-3 yosh
- c) 4-6 yosh
- d) 3-6 yosh

6.Necha yoshli bolalarda shartli reflekslar hosil bo‘la boshlaydi?

- a) 3 oylik
- b) 4 oylik
- c) 2 oylik
- d) Tu‘g‘ilgandan boshlab

7.L.S.Vigotiskiy fikricha psixik taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bu...

- a) Ta’lim
- b) Tarbiya
- c) O‘yin
- d) Mehnat

8.Shaxs tu‘g‘ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit nima deyiladi?

- a) Sotsium
- b) Mikrosotsium
- c) Individ
- d) Oila

9.A.N Leontyev fikricha shaxs necha marta tugiladi?

- a) 2
- b) 1
- c) Albatta bir marta
- d) To'g'ri javob yo'q

10.Ilk bolalik davrida bolalarning yetakchi faoliyati bu.....

- a) Predmetni o'rganish
- b) Mehnat
- c) O'yin
- d) Mashq

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA. IJTIMOIIY PEDAGOGIKA TA'RIFI, TUZILISHI VA VAZIFALARI

Tayanch iboralar: *ijtimoiy tarbiya menejmenti va iqtisodiyoti, ijtimoiy tarbiya metodikasi, ijtimoiy tarbiya psixologiyasi, ijtimoiy tarbiya nazariyasi, ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy falsafa.*

Ijtimoiy pedagogika tushunchasining mohiyati.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi ta'rifi bir qator baxs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Yaxshi ma'lumki, har qanday fan bilim sohasi sifatida nazariya va amaliyotning birligi sifatida faoliyat yuritadi. Bu ikki soha doimo bir-birini to'ldirib keladi va voqelikning mukammallashuviga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Demak, biz ijtimoiy pedagogikani ham fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida o'rganishimiz lozim. Bundan tashqari ijtimoiy pedagogika ko'pgina boshqa fanlar (falsafa, matematika, biologiya) kabi o'quv fani bo'lib ham xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston tarixiy pedagogik an'analarga ega davlatdir. Sharq mutafakkirlari va diniy arboblarning asarlarida ijtimoiy pedagogika fanining rivojlanishiga asos bo'ladigan g'oyalar mavjuddir. XIX asrda o'zbek ma'rifatparvarlari, XX asrdagi novator pedagoglarning ijtimoiy tarbiya sohasidagi faoliyati ijtimoiy pedagogika uchun boy materiallar manbai hisodlanadi.

Biroq ma'lum bir davrda ijtimoiy pedagogikaning MDH hududidagi tadrijiy rivojlanishi to'xtatib qo'yildi. Ijtimoiy pedagogikaning tiklanishi faqatgina XX asrning 90-yillarida ro'y bera boshladi. Uning qayta "tug'ilishi" ijtimoiy pedagoglarni hozirgi sharoitdagi amaliy faoliyatlarida ijtimoiy pedagogika fanining yutuqlaridan foydalanish zaruriyati tug'ilgani bilan izohlanadi. Bu yerda davlat va jamiyatning faoliyat yuritishining yangi tamoyillari-bozor iqtisodiyoti, raqobat, byudjetdan pul ajratishni ko'paytirish yoki kamaytirish, dunyo hamjamiyatiga kirish, iqtisodiy holatning barqarorligi nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga ijtimoiy hayotni demokratiyalashtirish, jahon hamjamiyatiga kirish aholining kam ta'minlangan qatlamlariga e'tiborni yanada kuchaytirishni talab qiladi. Biroq ijtimoiy pedagogika sohasidagi mavjud nazariya va

amaliyotning tizimlashtirilmagani bu ikki soha bir-biridan alohida ravishda rivojlanishiga sabab bo'ldi va ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida shakllanishiga ta'sirini ko'rsatdi. Natijada bugunda ilmning bu sohasini to'liq qamrab oluvchi ta'rifni berish ancha murakkab hisoblanadi.

Rossiyalik qator olimlar ijtimoiy pedagogikaga ta'rif berishga harakat qiladilar.

Masalan, Yu.V.Vasilkova bu fanni "alohida shaxs yoki guruhni tarbiyalash, o'qitish nazariyasi va amaliyotidir" deb ta'kidlaydi.

A.V.Mudrikning fikricha, "Ijtimoiy pedagogika - barcha yosh va ijtimoiy guruhlar ijtimoiy tarbiyasini o'rganuvchi pedagogika"dir.

V.D.Semenov "Ijtimoiy pedagogika yoki muhit pedagogikasi"ni ma'lum yutuqlarni birlashtiruvchi va ularni ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiradigan fan, deb hisoblaydi.

I.P.Podlasiyning "Pedagogika" darsligida quyidagicha ta'rif mavjud:

"Ijtimoiy pedagogika - ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishga va ijtimoiy tarbiya muammolariga ta'siri qonuniyatlarini o'rganuvchi fanidir".

M.A.Galaguzova ijtimoiy pedagogikaga uning ob'ekti va predmetini aniqlash orqali ta'rif bermocchi bo'lgan.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi mohiyatini aniqlash uchun "fan" tushunchasining o'zi ob'ektiv bilimlarini tizimlashtirish va ishlab chiqishga qaratilgan faoliyat ekanligini ta'kidlash lozim. Tushunchaning ilmiy mazmuniy jihatini o'rganish "ijtimoiy pedagogika" atamasiga e'tibor qaratishni talab qiladi. U ikki sohadan iborat bo'lib, ya'ni "Pedagogika" va "Sotsiologiya"ning birlashuvidan vujudga kelgan. Bu birlashuv tasodifiy emas. U fanda tabaqalashuv va ixtisoslashuvning zamonaviy jarayonlariga bog'liq. Pedagogika fanida tabaqalashuv va ixtisoslashuv jarayoni keyingi yillarda ancha kuchaydi. Ba'zi bir ixtisoslashtirilgan sohalar - maktabgacha pedagogika, umumiy pedagogika, maxsus pedagogika, kasb-hunar pedagogikasi, pedagogika tarixi va boshqa bir qancha fanlar mustaqil ilmiy sohalarga aylanib bo'ldi. Ularning qatoriga ijtimoiy pedagogikani ham kiritsak bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogika, pedagogika singari ta'lim-tarbiya jarayoni va hodisalarini o'rganadi. Biroq ular o'ziga xos yo'nalishlarni va

xususiyatlarni tadqiq etadi. Bu fanning o'ziga xos xususiyati "ijtimoiy" so'zida mujassamlashtirilgan.

"Ijtimoiy" (lotinchada socialis-umumiy, ijtimoiy) tushunchasi ostida insonlar orasidagi o'zaro munosabatlarning turli shakllari bilan bog'liq barcha jarayonlar tushuniladi. Bu degani, agar pedagogika o'sib kelayotgan avlodlarning ta'lim tarbiyasi haqidagi fan bo'lsa, ijtimoiy pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonlarida bolaning jamiyatga qo'shilishi(integratsiya) bilan bog'liq xodisalarni alohida ajratadi. Bolaning jamiyatga "kirish" jarayoni, uning muayyan ijtimoiy tajribani qo'lga kiritishi (bilim, qadriyat, yurish-turish qoidalari va boshqalar) ijtimoiylashuv deyiladi.

Shunday qilib, agar biz ijtimoiy pedagogika mohiyatini bu fanning ob'ekt va predmetini qiyoslash orqali aniqlamoqchi bo'lsak quyidagi holat kelib chiqadi. Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham ob'ekti- bu bola, biroq o'rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o'rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblanadi, ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlari hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bu ikki fanning uzoq tarixiy aloqasiga qaramay ularning o'ziga xos vazifalari tufayli uzoqlashish ro'y berdi. Umumiy pedagogikaning o'ziga xos vazifasi ta'lim-tarbiyadir. Bola va bolalikni himoya qilish ijtimoiy pedagogikaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Ijtimoiy pedagogika jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi, insonlar bir-birlari bilan qanday muomalaga kirishishlarini, guruhlariga birlashish sabablarini va jamiyatning boshqa ijtimoiy masalalarini aniqlashga harakat qiladi. Ijtimoiy pedagogika bu muammolarni biroz boshqacha tarzda, uning ilmiy vazifalariga mos ravishda o'rganadi. Shu bilan birga o'z rivojlanishida umumiy pedagogikadan ajralib chiqib, u kompleks xarakterga ega bo'ldi. "Mehribonlik uylari", qariyalar uylarida yashovchilarga g'amxo'rlik, huquqbuzarlar bilan ishlash va boshqalar kiradi. Ijtimoiy pedagogikaning kompleks xakteri uning boshqa fanlar bilan munosabatida namoyon bo'ladi.

Falsafa va ijtimoiy pedagogika. Falsafa inson borlig'i haqidagi masalalarini o'rta qo'yadi va ularga javob topishga harakat qilib,

dunyoqarashning umumlashgan tizimini ishlab chiqadi. Ijtimoiy pedagogikaning “ijtimoiy tarbiya falsafasi” bo‘limi inson va uning tarbiyasiga muayyan qarashlardan kelib chiqadi. Bu qarashlarda har doim u yoki bu falsafiy asoslarni uchratsak bo‘ladi.

Etika va ijtimoiy pedagogika. Etika axloqiy tasavvur va qarashlar rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, shuningdek, u tartibga solayotgan axloqiy ong shakllarini va ularning axloqiy faoliyatini tahlil etadi. Ijtimoiy pedagogika etika shakllantirgan tamoyillardan foydalanadi, tarbiya usullari va maqsadlarini ishlab chiqadi.

Sotsiologiya va ijtimoiy pedagogika.

Sotsiologiya – jamiyat va ijtimoiy munosabatlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, faoliyat yuritishi, shakllanishi qonuniyatlari haqidagi fandır. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiylashuv muammolarini o‘rgana turib, sotsiologik ma’lumotlarga murojaat etadi va ulardan o‘z o‘rnida foydalanadi. (yosh, shahar va qishloq, dam olish, ommaviy aloqalar, yoshlar, axloq, ta’lim, jinoyatchilik, din, oila sotsiologiyasi).

Etnografiya, etnopsixologiya va ijtimoiy pedagogika.

Etnografiya xalqlarning maishiy va madaniy xususiyatlarini o‘rganadi. Etnopsixologiya insonlar ruhiyatining etnik xususiyatlari, milliy xarakteri, milliy o‘z-o‘zini anglashning shakllanish qonuniyatlari, etnik stereotiplarni o‘rganuvchi bilim sohasidir. Ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya inson hayotining yosh davrlarga bo‘linishi, etnik xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar, etnosda ma’lum yoshdagi yoki jinsdagi insonlarning tutgan o‘rnini belgilovchi omillar, ijtimoiylashuvda tarbiyaning etnik xususiyatlari va qonuniyatlarini o‘rganadi.

Ijtimoiy tarbiya nazariyasini ishlab chiqishda etnografiya va etnopsixologiya ma’lumotlari ham inobatga olinadi. Etnik xususiyatlarni tarbiyaning aniq vazifa va mazmunini belgilashda, tarbiya tizimini tashkil etishda inobatga olish lozim. Shu bilan birga umuminsoniy tarbiya tamoyillariga mos keladigan, etnosda shakllangan tarbiya usullaridan shu xalq doirasining ijtimoiy tarbiya tizimida foylanish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari ijtimoiylashuv va tarbiyaning ba’zi bir etnik xususiyatlarini muayyan doirada jadallashtirish va o‘rnini to‘ldirish ham lozimdir.

Ijtimoiy va yosh psixologiyasi hamda ijtimoiy pedagogika. Ijtimoiy psixologiya inson va guruhlar faoliyatiga psixologik tasnif berish bilan birga insonlarni ijtimoiy guruhlariga qo‘shilishlari faktini keltirib chiquvchi inson faoliyati va yurish-turish qonuniyatlarini ham ham o‘rganadi. Yosh psixologiyasi inson ruhiyati dinamikasi va yosh xususiyatlarini, shuningdek shaxs rivojlanishining yoshga bog‘liq omillarini ham o‘rganadi. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiylashuv va viktimologiya (jinoyatshunoslik) muammolarini o‘rganishda ijtimoiy tarbiya metodikasi va texnologiyasini ishlab chiqishda ijtimoiy va yosh psixologiyasi ma‘lumotlaridan foydalanadi.

Shunday qilib, ijtimoiy pedagogika ilmiy tadqiqotlarning fanlararo bog‘langan sohasi hisoblanadi. Uning asosini pedagogika, pedagogika tarixi, pedagogik usullar va vositalar tashkil etadi. Shu bilan birga ijtimoiylashuv muammolari sotsiologiya fani tomonidan ham o‘rganilganligi sababli ijtimoiy pedagogika ba‘zi sotsiologik nazariya, usul va vositalardan ham foydalanadi. Shu o‘rinda shuni ta‘kidlash joizki, ijtimoiy pedagogika o‘zining nazariya, uslub, vosita va texnologiyalarini ham ishlab chiqmoqda.

Yuqorida bayon etilgan ma‘lumotlar asosida Yu.N.Galaguzovanning ta‘rifiga juda yaqin turuvchi ijtimoiy pedagogikaning eng aniq ta‘rifi quyidagicha:

Ijtimoiy pedagogika - shaxsning ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o‘rganish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik faoliyatning samarali usullari, texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo‘llashga qaratilgan pedagogika sohasi.

Shuningdek, ijtimoiy pedagogikaga bola ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o‘rganadigan, mutaxassislarni ijtimoiy tarbiya va ta‘lim usullari hamda texnologiyalar bilan ta‘minlaydigan fan sifatida ta‘rif bersak ham bo‘ladi.

Ijtimoiy pedagogikaning sohalari va vazifalari.

Ijtimoiy pedagogika bilim sohasi sifatida bir nechta bo‘limlardan iborat. Bu bo‘limlarda olingan bilimlar ijtimoiy tarbiyani ijtimoiy faoliyat turlaridan biri sifatida xarakterlashga va uni mukammallashtirish bo‘yicha muayyan tavsiyalarni berish imkonini yaratadi.

Ijtimoiy falsafa falsafa, etika, sotsiologiya va pedagogika fanlarining to‘qnashuvidan kelib chiqadi. Unda amaliy, uslubiy va dunyoqarashga oid masalalar o‘rganiladi. Xususan, ijtimoiy tarbiya va uning vazifalariga ta’rif beriladi: inson obrazini muayyan tushunish asosida rivojlanish, ijtimoiylashuv va tarbiyaga nisbatan umumiy yondashuvlar ishlab chiqiladi; ijtimoiy tarbiyaning qadriyat sifatida tamoyillari ishlab chiqiladi va boshqalar.

Ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi ijtimoiylashuvni ijtimoiy tarbiya konteksti va ijtimoiy tarbiyani ijtimoiylashuv tarkibi sifatida o‘rganadi. Olingan bilimlar ularning tarbiya salohiyatlaridan foydalanish, ijtimoiylashuv jarayonida inson rivojiga ta’sir etish mumkin bo‘lgan ijobiy ta’sirlarni kuchaytirish, salbiy ta’sirni kamaytirishning usullari va yo‘llarini izlab topish imkonini beradi. Umuman olganda, ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar jamiyatdagi tarbiyaviy kuchlarni birlashtirish yo‘llarini qidirishga asos bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy tarbiya nazariyasi ijtimoiy tarbiyaning faoliyat yuritishini tavsiflaydi, tushuntiradi va bashorat qiladi. Ijtimoiy tarbiya nazariyasi ijtimoiy tarbiya filosofiyasidan kelib chiqib, ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi hamda viktimiologiya ma’lumotlarini inobatga olib individual, guruhli, ijtimoiy sub’ektlar nima ekanligini va ular o‘zaro qanday munosabatda bo‘lishlarini o‘rganadi.

Ijtimoiy tarbiya psixologiyasi guruh va insonlarning ijtimoiy psixologik tavsiflari, ularning turli yoshlardagi xususiyatlari asosida ijtimoiy tarbiya sub’ektlarining o‘zaro munosabati samaradorligining psixologik sharoitlarini aniqlaydi.

Ijtimoiy tarbiya metodikasi ijtimoiy tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil qilishning yangi usullari va metodlarini ishlab chiqadi.

Ijtimoiy tarbiya menejmenti va iqtisodiyoti bir tomondan jamiyatning “inson kapitali”ga bo‘lgan ehtiyojini, boshqa tomondan ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda foydalanishi mumkin bo‘lgan jamiyatning iqtisodiy resurslarini tadqiq etadi. Bundan tashqari bu bo‘limda ijtimoiy tarbiya boshqaruvi ham ko‘rib chiqiladi.

Ijtimoiy pedagogika fan sohasi sifatida bir qator vazifalarga ega. A.V.Mudrik bu vazifalarni uch guruhga ajratib ko‘rsatadi: nazariy, amaliy va insonparvarlikka oid.

Nazariy vazifa ijtimoiy pedagogika oid bilimlarni to'plab zamonaviy jamiyatda o'rganayotgan jarayon va hodisalarining to'liq tasvirini nazariy jihatdan yoritib berishda namoyon bo'ladi.

Amaliy vazifalarga ijtimoiy pedagogikaning ijtimoiylashuviga tashkiliy-pedagogik va psixologik yo'nalishlardagi ta'sirini samarali takomillashtirish ishlarini aniqlash bilan bog'liq. Amaliy vazifalarga quyidagilar kiradi:

1) bola (o'smir) ongida yaxshilik, adolat, yaqinlariga, ijodga, o'zaro tushunishga muhabbatni tarbiyalash;

2) inqirozli holatlardan mustaqil chiqib ketish maqsadini qo'yish, chiqish yo'llarini aniqlash, atrofdagilar bilan muloqot qilishni o'rganish, hayot mazmuni va maqsadini aniqlash;

3) atrof-muhit, inson, uning jismoniy va ma'naviy xususiyatlari, jamiyatdagi huquq va majburiyatlarini bilishga intilishni rivojlantirish;

4) g'urur, mustaqillik, o'ziga ishonch hissini rivojlantirish;

5) bola (o'smir)da oila, maktab, tengdoshlari davrasida, ishda muomala madaniyatini oshirish. Bunda ijtimoiy pedagog o'z tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini bilishi zarur. Shuningdek, u bolaga ijtimoiy munosabatlarning axloq va huquq normalariga suyangan holda insonlar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi nizolarni yechishga o'rgatishi kerak. Bu vazifalar yaxshilik qilish, o'z hayotini tashkil etishga o'rgatish, o'ziga xoslik va iqtidorni tashkil qilishga rivojlantirishda o'z aksini topadi.

Insonparvarlik vazifasi shaxsning rivojlanishida o'z-o'zini takomillashtirish uchun sharoitlar yaratib beruvchi, ijtimoiy pedagogik jarayonlarni mukammallashtiruvchi, qo'yilgan maqsad va vazifalarni ishlab chiqishda insoniylikka asoslanishda o'z ifodasini topadi. Zamonaviy ijtimoiy pedagogikaning insonparvarligi bola va pedagog o'rtasidagi munosabatlarni qattiqqo'llik emas, o'zaro tushunishga asoslanishida ko'rinadi. Ijtimoiy pedagogning vazifasi bolaning jismoniy, axloqiy va ma'naviy kuchlarini shakllantirishida, unda jamiyat qabul qilgan xislatlarni tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Yu.V.Vasilkova ijtimoiy pedagogikaning asosiy tarbiyaviy, ijtimoiy-huquqiy va ijtimoiy rehabilitatsion vazifalarini ajratadi.

Tarbiyaviy vazifa bolaning jamiyatga qo‘shilishi yoki uning ijtimoiylashuv jarayoni, o‘quv va tarbiya jarayoniga ko‘nikishida ekanligini ko‘zda tutadi.

Ijtimoiy - huquqiy vazifaning asosini davlatning bolalarga g‘amxo‘rligi, ularning huquqiy himoyasini tashkillashtirish, muammolarini hal qilishda maslahatlar beruvchi tashkilotlar ishini takomillashtirish tashkil etadi.

Ijtimoiy rehabilitatsion vazifa – nogiron, jismoniy va ruhiy nuqsonlarga ega bolalar bilan tarbiyaviy va o‘quv ishlarini olib borishdir. Bunda asosiy vazifalarni ijtimoiy pedagog bajaradi.

Shu bilan birga Yu.V.Vasilkova vazifalarning yanada kengroq tavsiflarini ham beradi:

- ✓ falokatga uchragan bola(o‘smir)larga yordam ko‘rsatish, inqirozdan chiqish yo‘llarini topish, qiyin vaqtda qo‘llab-quvvatlashi;

- ✓ bola(o‘smir)ni, uning holatini, oila va maktabdagi munosabatlarini o‘rganishi;

- ✓ bolani o‘rab turgan va unga ta’sir qiluvchi turli ijtimoiy sohalardagi ijtimoiy tarbiya holatining tahlili;

- ✓ ijtimoiy pedagogikaning ijobiy tajribalarini tahlil qilishi, tarqatishi, targ‘ib qilishga qaratishi;

- ✓ u bola(o‘smir) faoliyatini o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini o‘qitish va o‘z hayotini mustaqil tashkil qilishni bilishga qaratishi;

- ✓ ijtimoiy pedagog bola (o‘smir) muammolarini hal qiluvchi, uning muammolari, huquqlariga aloqador tashkilot va mutaxassislarni birlashtirish bilan ham shug‘ullanishi;

- ✓ ijtimoiy tarbiyaning turli muammolarini o‘rganishni tashkil qilishi, ijtimoiy pedagoglar faoliyatini tahlil qilishi lozim.

Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari.

Har bir fanni shu fanning o‘rganish predmetiga asoslangan bilimlar tizimi ajratib turadi. Fanning bilimlar tizimi uning tushuncha va kategoriyalarida aks etadi. Tushuncha - real olamni bilish jarayonida aks etish shakllaridan biri. Reallikning o‘zgaruvchanligi va ko‘p qirraliligi tufayli tushunchalar dinamik, rivojlanadigan xarakterga ega. Ular tarixiy holat va hayot sharoitlariga bog‘liq ravishda o‘zgaradi.

Har qanday fan rivojlanishi jarayonida tushunchalar fan kategoriyalariga birlashadi. Fan kategoriyalari shu fanda

qo'llaniladigan yanada kattaroq, amaliy tushunchalardir. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalariga olimlar "ijtimoiy pedagogik faoliyat", "ijtimoiy ta'lim" va "ijtimoiy tarbiya"ni kiritishadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat va ijtimoiy ta'lim. Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom va rol, ijtimoiy xulq-atvorning me'yor va qoidalari haqida ko'p bilimlarni o'zlashtiradi. U shuningdek, uning jamiyatga ko'nikishiga yordam beruvchi turli ko'nikma va malakalarni ham o'zlashtiradi. Bu jarayon ayniqsa bolalikda juda jadal amalga oshadi. Ma'lumki, bola besh yoshgacha uning keyingi hayotida o'z aksini topuvchi nihoyatda ko'p bilimlarni oladi. Bola bularni faqat o'zlashtirib boradi. Shuning uchun bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ishlayotgan mutaxassislarining (psixolog, shifokor, pedagoglar, "agent"lar) ta'siri katta bo'lib, bolalarni hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o'zlashtirishlari, ularni hayotda qo'llashga intilishlari aynan ularga bog'liqdir. Buning ijtimoiy pedagogika bilan bog'liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta'lim muassasida ta'lim olish jarayonida ma'lumki bola avvalo akademik bilimlarni o'zlashtiradi. Biroq shu bilan bir paytda u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko'nikma va malakalarni qo'lga kiritadi. Bu bilim, ko'nikma va malakalar ijtimoiylashuv jarayonida bolaga maxsus yordam kerak bo'lganda juda zarur bo'ladi.

Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga yetkazish, unda ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni ijtimoiy ta'lim deyiladi.

Tarbiya va ijtimoiy tarbiya. Tarbiya pedagogikaning asosiy ob'ekti sifatida pedagogikaning rivojlanish tarixi mobaynida olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu bilan birga "tarbiya" tushunchasining mazmuni amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni belgilaydi.

Boshqa tomondan tarbiya ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug'aviy ma'nosidan ancha kengdir.

Ijtimoiy tarbiyani insonning qobiliyati, bilimi, yurish-turish namunasi, qadriyatlar u yashayotgan jamiyatga munosabatidan

iborat imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi, maxsus tarbiya tashkilotlarida amalga oshiriladigan jarayon sifatida ko'rib chiqish lozim.

Boshqacha aytganda, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo'naltirishdir. Bu sharoitlar individual va guruhiiy sub'ektlarning uchta o'zaro bog'liq va shu paytning o'zida mazmuni, shakli, usuli jihatidan nisbatan mustaqil bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi: bolalar, o'smirlar, o'spirinlar ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularning ta'lim olishlarini ta'minlash, ularga individual yordam ko'rsatish.

Ijtimoiy tajribani tashkil qilish guruh (jamoal)larning maishiy va hayotiy faoliyatini tashkil qilish, guruhdagi o'z-o'zini boshqarish faoliyatini rag'batlantirish va norasmiy mikroguruhlariga ta'sir etish orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tajriba keng ma'noda turli ko'nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me'yor va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, moslashish tajribasi, shuningdek o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini belgilash yig'indisidir.

Ta'lim o'z ichiga quyidagilarni oladi: uzluksiz tizimli ta'lim (rasmiy ta'lim), madaniyatni targ'ib qilish va tarqatish, o'z-o'zini shakllantirishga va mustaqil ta'lim olishga yo'naltirish.

Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda, o'z-o'zini rivojlantirishda, jamiyatdagi mavqei, o'rnini yuksaltirishda yordam berishda namoyon bo'ladi. Individual yordam boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirishga zarur bo'lgan bilim, malakalarni o'zlashtirishga insonga ongli yordam berish, insonning o'z qadrini bilishi, o'z-o'zini anglash, oila, guruh, jamiyatga mansubligi hissini rivojlantirishdir.

Tabiiyki, ijtimoiy tajriba ta'lim va individual yordamning usul, shakl, mazmuni, xarakter, jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi ularning va ijtimoiy-madaniy mansubligiga bog'liq. Bu jihatlar turli ta'lim muassasalari va tashkilotlari farqlanadi. Farqlar ham tashkilot turiga, ham unda faoliyat yuritadigan pedagoglarning o'z faoliyatlarida amalga oshirayotgan ishlariga bog'liq.

Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o‘zaro munosabat uning sub’ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, qadriyatlar almashuvidir. Bunaqa munosabat ijtimoiy jihatdan tabaqqalashgan, alohida ko‘rinishga ega. Chunki o‘zaro munosabatning aniq ishtirokchilari muayyan etnik, ijtimoiy va ijtimoiy psixologik guruhlar vakili bo‘la turib, o‘z munosabatlarida u yoki bu darajada ular mansub guruhlariga tegishli ijtimoiy yurish-turishni amalga oshirishadi.

Umuman olganda, o‘zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning, birgalikdagi faoliyati, uning mazmuni, xarakteri, tarbiyaviy samaradorligi, unda kimlar ishtirok etishi va ular o‘zlarini qay darajada shaxs deb hisoblashiga bog‘liq.

O‘zaro munosabat jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiya insonning ijobiy ijtimoiy, ma’naviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda qulay sharoitlar yaratadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1.“Ijtimoiy pedagogika - barcha yosh va ijtimoiy guruhlar ijtimoiy tarbiyasini o‘rganuvchi pedagogika”dir degan fikr kim tomonidan aytilgan?

2.Ijtimoiy pedagogika fani qanday fanlar bilan aloqadorlikda olib boriladi?

3.Ijtimoiy pedagogikaning sohalari va vazifalari haqida ma’lumot bering.

4.Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?

5.Ijtimoiy tajribani tashkil qilish qanday amalga oshiriladi?

Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol metod:

“Qarorlar shajarasi” metodi



“Qarorlar shajarasi” metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirib, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosaga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga

yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Guruh yoki sinf o‘quvchilari ishtirokida qo‘llaniladigan “Qarorlar shajarasi” bir necha o‘n nafar o‘quvchilarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta’lim jarayonida mazkur metodning qo‘llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriq:
Mavzuni tahlil qiling va konspektlashtiring!

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1.Nechchi oylik bolalarda emotsional munosabat shakillanadi?

- a) 3 oylik
- b) 2 oylik
- c) 1 oylik
- d) Tu‘g‘ilgandan boshlanadi

2. Faoliyat nazariyasining asoschisi kim?

- e) Leontov
- f) D.B.Elkonin
- g) F.Obuxova
- h) L.S.Vigotskiy

3.Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari nimalardan iborat?

- a) “Ijtimoiy pedagogik faoliyat”, “Ijtimoiy ta’lim”, “Ijtimoiy tarbiya”

- b) “Ijtimoiy ta’lim” va “Ijtimoiy tarbiya”
- c) “Ijtimoiy pedagogik faoliyat” va “Ijtimoiy ta’lim”
- d) “Ijtimoiy pedagogik faoliyat” va “Ijtimoiy tarbiya”

4.Shartli reflekslar fondini boyitish, xarakterni rivojlantirish, xotira, fikrlash, hissiy-irodaviy sohani rivojlanishning qaysi turiga misol bo‘ladi?

- a) Aqliy rivojlanish
- b) Fizik rivojlanish
- c) Fiziologik rivojlanish
- d) Ijtimoiy rivojlanish

5.Ijtimoiy maktabgacha ta’lim bu –

- a) Davlat tomonidan tashkil etiladigan tashkilot
- b) Xususiy tashkil etilgan tashkilot
- c) Nodavlat talimga qarashli tashkilot
- d) Tarbiya maskani

6.«Bolalarning ijtimoiy moslashuvi» fanini o‘qitishning maqsadi nimadan iborat?

a) Bo‘lajak tarbiyachilarni mustaqil davlat O‘zbekiston Respublikasining yangi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy husisiyatlarini hisobga olgan holda kichik maktab yoshidagi bolalarni muvofaqiyatli tarbiyalashga tayyorlash

- b) Tarbiyalash metodlarini o‘rganish
- c) Tarbiyaviy ishlarning shakllarini to‘g‘ri tashkil etish
- d) Tarbiya qonuniyatlari bilan tarbiya shakllarini bilish.

7.«Bolalarning ijtimoiy moslashuvi» faninining asosiy maqsadi qaysi qatorda tug‘ri ko‘rsatilgan?

a) Ma’naviyat, ma’rifat, odob, axloq va boshqa da tarbiya metodikasining dolzarb muammolarni ko‘rib chiqish, maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayonida qo‘llaniladigan metod, vosita, shakl va bolalar uyushmalari haqida tushunchalar berish;

- b) Fanni rivojlantirish
- c) Yosh avlodni rivojlantirish
- d) Tarbiya jarayonini optimallashtirish

8.Bu tarixiy va ijtimoiy voqelik bo‘lib, insonlarning hayotda egallagan boy tajribalarini kelajak avlodga yetkazishga qaratilgan murakkab, ziddiyatli, uzoq muddat davom etadigan

jarayoni bo‘lib, u insonlarning tafakkurini yuksaltirishga qaratilgandir?

- a) Tarbiya
- b) Ta’lim
- c) O‘qitish
- d) O‘rgatish

9. Birinchi ota-onalar yig‘ilishlarini o‘tkazishga tayyorgarlik qanday shakllarda bo‘ladi?

- a) Ko‘riladigan masalar yuzasidan bir oy oldin tarbiyachining shaxsiy tayyorgarligi
- b) Tarbiyachining umumiy tayyorgarligi
- c) Birinchi ota-onalar majlisini o‘tkazishda ota-onalarning tayyorgarligi
- d) Majlisni o‘tkazishga doir maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorgarligi.

10. Jamoa deganimiz nima?

- a) Yagona maqsad atrofida birlashgan guruh
- b) Yangi fikrlarga ega bo‘lgan guruh
- c) 4-5 kishidan iborat bo‘lgan guruh
- d) Yangi bilimga ega bo‘lgan guruh

IJTIMOIIY TARBIYA (KENG VA TOR MA'NODA) TUSHUNCHASI

Tayanch iboralar: *tarbiya, ijtimoiy tarbiya, ahloqiy xislatlar, ijtimoiy ta'lim, fuqaroviy tarbiya, axloqiy tarbiya, ijtimoiylashuv, ijtimoiy qadriyat, o'z-o'zini tarbiyalash.*

Tarbiya va ijtimoiy tarbiya.

Tarbiya pedagogikaning asosiy ob'ekti sifatida pedagogikaning rivojlanish tarixi mobaynida olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu bilan birga "tarbiya" tushunchasining mazmuni amaliy ahamiyatga ega. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy mezoni – tarbiya. Tarbiya – ijtimoiy hayotning abadiy umumiy mezoni. Pedagogika bolalar tarbiyasini shaxs axloqiy xislatlarini shakllantirishning maqsadga qaratilgan jarayoni sifatida ko'rib chiqadi. Biroq bu tarbiya jarayoni har doim ham yetarli darajada samarali bo'lmaydi. Yuqorida ijtimoiy ta'lim vazifasini ko'rib chiqib ko'rsatdiki, bolada muayyan bir ijtimoiy bilim, malaka va ko'nikmalar shakllanishi kerak. Ularning shakllanishi jarayoni, masalan, otaga, onaga g'amxo'r, e'tiborli, mehribon, rahmdil munosabatlarning shakllanishi bilan bog'liq. Agar qandaydir sababga ko'ra bolada ijtimoiy bilimlar shakllanmagan bo'lsa, demak, unda munosabatlar shakllanmagan, ya'ni bolada zarur bo'lgan ijtimoiylashuvning qandaydir shaxs xislatlari ham shakllanmagan. Shuning uchun ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayonida boladagi shunday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xislatlar shakllangan bo'lishi kerak – shuni o'zi ijtimoiy tarbiyaning vazifasidir. Ya'ni, ijtimoiy tarbiya deganda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ahamiyatli bola shaxsi xislatlarining shakllanishi maqsadga qaratilgan jarayoni tushuniladi. Chunki bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni belgilaydi. Boshqa tomondan tarbiya-ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug'aviy ma'nosidan ancha kengdir.

Ijtimoiy tarbiyani insonning qobiliyat, bilim, yurish-turish namunasi, qadriyatlar u yashayotgan jamiyatga munosabatidan iborat imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi, maxsus

tarbiya tashkilotlarida amalga oshiriladigan jarayon sifatida ko‘rib chiqish lozim. Boshqacha aytganda, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo‘naltirishdir.

Ijtimoiy tarbiyani insonning qobiliyati, bilimi, yurish-turish namunasi, qadriyatlar u yashayotgan jamiyatga munosabatidan iborat imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi, maxsus tarbiya tashkilotlarida amalga oshiriladigan jarayon sifatida ko‘rib chiqish lozim.

Boshqacha aytganda, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo‘naltirishdir. Bu sharoitlar individual va guruhiiy sub’ektlarning uchta o‘zaro bog‘liq va shu paytning o‘zida mazmuni, shakli, usuli jihatidan nisbatan mustaqil bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi: bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularning ta‘lim olishlarini ta‘minlash, ularga individual yordam ko‘rsatish.

Ijtimoiy tajribani tashkil qilish guruh (jamoal)larning maishiy va hayotiy faoliyatini tashkil qilish, guruhdagi o‘z-o‘zini boshqarish faoliyatini rag‘batlantirish va norasmiy mikroguruhlariga ta‘sir etish orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tajriba keng ma‘noda turli ko‘nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me‘yor va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, moslashish tajribasi, shuningdek o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini belgilash yig‘indisidir.

Ta‘lim o‘z ichiga quyidagilarni oladi: uzluksiz tizimli ta‘lim (rasmiy ta‘lim), madaniyatni targ‘ib qilish va tarqatish, o‘z-o‘zini shakllantirishga va mustaqil ta‘lim olishga yo‘naltirish.

Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda, o‘z-o‘zini rivojlantirishda, jamiyatdagi mavqei, o‘rnini yuksaltirishda yordam berishda namoyon bo‘ladi. Individual yordam boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirishga zarur bo‘lgan bilim, malakalarni o‘zlashtirishga insonga ongli yordam berish, insonning o‘z qadrini bilishi, o‘z-o‘zini anglash, oila, guruh, jamiyatga mansubligi hissini rivojlantirishdir.

Tabiiyki, ijtimoiy tajriba ta'lim va individual yordamning usul, shakl, mazmuni, xarakter, jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi ularning va ijtimoiy-madaniy mansubligiga bog'liq. Bu jihatlari turli ta'lim muassasalari va tashkilotlari farqlanadi. Farqlar ham tashkilot turiga, ham unda faoliyat yuritadigan pedagoglarning o'z faoliyatlarida amalga oshirayotgan ishlariga bog'liq.

Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabat uning sub'ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, qadriyatlar almashuvidir. Bunaqa munosabat ijtimoiy jihatdan tabaqalashgan, alohida ko'rinishga ega. Chunki o'zaro munosabatning aniq ishtirokchilari muayyan etnik, ijtimoiy va ijtimoiy psixologik guruhlar vakili bo'la turib, o'z munosabatlarida u yoki bu darajada ular mansub guruhlarga tegishli ijtimoiy yurish-turishni amalga oshirishadi.

Umuman olganda, o'zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning, birgalikdagi faoliyati, uning mazmuni, xarakteri, tarbiyaviy samaradorligi, unda kimlar ishtirok etishi va ular o'zlarini qay darajada shaxs deb hisoblashiga bog'liq.

O'zaro munosabat jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiya insonning ijobiy ijtimoiy, ma'naviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda qulay sharoitlar yaratadi.

Tarbiya ijtimoiylashuv sifatida.

So'nggi o'n yilliklar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o'zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Davlat mafkurasining o'zgarishi sababli bu muammoga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga ba'zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Boshqalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o'rganishadi. Ba'zi olimlar esa ijtimoiylashuv deganda, fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. To'rtinchi guruh olimlari shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. Biroq tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligini hamma tan oladi. Tarbiyaning asosida ijtimoiy harakat bo'lishi, uni ijtimoiylashuvdan farqlaydi. Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritgan **Maks Veberg** uni

muammolarni yechishga qaratilgan harakat, inson xulq-atvorining taxminiy variantlarini sub'ektiv anglash sifatida ta'riflagan.

Umuman olganda, ijtimoiylashuv uzluksiz jarayondir, ya'ni inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo'ladi. Tarbiya esa diskret (uzlukli) jarayondir. Chunki u muayyan tashkilotlarda amalga oshirilib, zamon va makonda cheklangan bo'ladi. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biridir.

Tarbiya – kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida shakllanib, rivojlanib, o'sib, avloddan-avlodga vorislik vazifasini bajarib kelgan bo'lsa-da, ammo har bir jamiyatda tarbiyaning mazmuni, maqsadi, vazifalari, o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur hodisa bo'lib, yosh avlodga ilmiy bilimlar tizimini, malaka va ko'nikmalarini maxsus metod va vositalar orqali rejali ravishda singdirib berish hamda yosh avlodni har tomonlama shakllangan yetuk inson qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi. Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash muammolari dastlab xalq og'zaki ijodida, yozma yodgorliklarda, pandnomalarda mutafakkir hamda ma'rifatparvar kishilar asarlarining bosh mavzusini tashkil etgan. Abdulla Avloniy tarbiya haqida gapirar ekan, haqli ravishda shunday degan edi:

“Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot-yo halokat, yo sadoqat - yo falokat masalasidir”. Demak, tarbiya va odob Vatanga cheksiz muhabbat, imon-e'tiqod, mehr-muruvvat, rostgo'ylik, adolatgo'ylik, samimiylik, mehnatsevarlik va bilimdonlik kabi g'oyalar vositasida shakllanib boradi.

Quyida ijtimoiylashuvning nisbatan ijtimoiy nazorat qilinuvchi jarayonga xos bo'lgan umumiylikni aks etishga harakat qilingan tarbiyaning ta'rifi keltirilgan. Biroq unda oilaviy, diniy, ijtimoiy tarbiyaning xususiyatlari inobatga olinmagan. A.V.Mudrik quyidagi ta'rifni ilgari suradi:

Tarbiya – insonning jamiyatga ko'nikishiga ko'maklashuvchi va bu ko'nikish sodir etiladigan guruh va tashkilotlarning xususiyatlariga mos keluvchi sharoitlar yaratuvchi insonning ongli rivojlanishi. Bu ta'rifni ham to'liq va butunlay to'g'ri, deb bo'lmaydi. Unda muallifning nuqtai nazari o'z aksini topgan.

Ijtimoiy omillarning insonga ta'sir ko'rsatishining tarkibiy qismi bo'lgan tarbiya o'z xususiyatlariga ega. Bu jarayon

boshqalaridan farqli ravishda doimo bir maqsad sari yo'naltirilgan va bu faoliyat maxsus tayyorlangan odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya jarayonida bola ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi boshqa omillar- muhit, OAV, madaniyatlar inobatga olinadi. Biroq shuni esda tutish lozimki, tarbiya boshqa ijtimoiy omillar ichida o'z o'rniga ega bo'lib boshqa omillarning o'rnini to'liq to'ldira olmaydi ham, bekor qila olmaydi ham.

Tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri vaqt o'tgan sari o'zgaradi. Bola qanchalik kichik bo'lsin, tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko'p ta'sir ko'rsatadi. Vaqt o'tgani sayin tarbiyaning hissasi kamayib boradi. Bu vaqtda bolaning u yoki bu ijtimoiy qadriyatni tanlashdagi mustaqilligi ortadi.

Borgan sari tashqi tarbiyaviy omillarning ta'siri kamayadi. Biroq boshqa bir jarayon – **o'z-o'zini tarbiyalash** jarayoni rivojlana boshlaydi. Bolaning o'z shaxsini mukammallashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma'lumki, o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi. Bizning modelga binoan insonning o'z-o'zini tarbiyalashi ehrom bunyod etish bilan barobardir. Shuning uchun o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni bir umrga cho'ziladi.

Tarbiya o'z-o'zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy an'analar, OAV, maktab jamoasi, do'stlar, bolalar bog'chasi va boshqalar) ijobiy ta'siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayonini sodir etadi. Ijtimoiy muhitning ta'siri qanchalik turli bo'lsa, bola undan shuncha erkin va mustaqil bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ijtimoiy tarbiya keng va tor ma'nodagi tushunchalariga izoh bering
2. Ijtimoiy tarbiyaning vazifasi nimalardan iborat?
3. A.V. Mudrik tarbiya tushunchasiga qanday ta'rif bergan?
4. Bolada o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni qanday sodir bo'ladi?
5. Tarbiya jarayonida bola ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi omillar?

**Mavzuni mustahkamlash
uchun interfaol metod:
“Yalpi fikriy hujum”
metodi**



Metod o‘quvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar o‘quvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a‘zolaridan biri axdorot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruh a‘zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e‘lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruhlar a‘zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

| 1-guruh | 2-guruh | 3-guruh |
|------------------|-----------------|----------------|
| Ijtimoiy tarbiya | Axloqiy tarbiya | Aqliy tarbiya |
| | | |

**Mustaqil ta‘lim uchun topshiriq:
Fotolavhalar asosida mavzuni yoritish
Mavzu yuzasidan test topshiriqlari.**



1. Jamoa orasida shakllantiriladigan an‘analarni nechta va qanday ko‘rinishlarda bo‘ladi?

- a) 2ta. Kundalik turmush an‘analari, bayram an‘analari
- b) 1 ta. An‘anaviy

- c) 3ta. Bayram an'analari, kechalar, tadbirlar
- d) 4ta. Bayram an'analari, kontsertlar, to'garaklar, faoliyatlar

2.Ijtimoiy so'zining ma'nosi...

a) (lotinchada socialis-umumiy) tushunchasi ostida insonlar orasidagi o'zaro munosabatlarning turli shakllari bilan bog'liq barcha jarayonlar tushuniladi bevosita insonlararo munosabatlar jarayonidagi tarbiyaviy ta'sir, shuningdek ijtimoiy institutlar faoliyatining tarbiyaviy ta'sirini o'rganishdan iboratdir.

b) Bunday holda, ular mutaxassisning amaliy faoliyatini belgilaydigan normalar, qoidalar shaklida harakat qilishadi.

c) Fan kategoriyalari shu fanda qo'llaniladigan yanada kattaroq, amaliy tushunchalardir.

3.Ijtimoiy pedagogika fanining asosiy vazifasi nima?

- a) Ijtimoiy tarbiya muammolarini o'rganishdan iborat.
- b) O'zaro munosabatlarida ro'y beradigan faoliyat
- c) Bevosita insonlararo munosabatlar jarayonidagi tarbiyaviy ta'sir.
- d) Tarbiyaning eng umumiy vazifalarini belgilashdan iborat.

4.Shartli refleklar fondini boyitish, xarakterni rivojlantirish, xotira, fikrlash, hissiy-irodaviy sohani rivojlanishning qaysi turiga misol bo'ladi?

- a) Aqliy rivojlanish
- b) Fizik rivojlanish
- c) Fiziologik rivojlanish
- d) Ijtimoiy rivojlanish

5.Bolaga talab qo'yish bu...

- a) Tarbiya jarayonida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usuli
- b) Tarbiya jarayonida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish omili
- c) Tarbiya jarayonida o'zaro muloqot
- d) Tarbiya jarayonida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositasi

6.Bolalar bilan hamkorlikda ishlash bu....

- a) Tarbiyachining pedagogik mahorati
- b) Tarbiyachiga qo'yiladigan talab
- c) Tarbiyalanuvchiga qo'yiladigan pedagogik talab
- d) Tarbiyachi amal qiladigan tamoyil

7. Bolalar haqida demografik ma'lumot yig'ish metodi o'quvchilarni pedagogik o'rganishning qaysi yo'nalishiga tegishli?

- a) Bolani umumiy o'rganish
- b) Bolaning sog'ligini o'rganish
- c) Bolaning shaxsini o'rganish
- d) Shaxsning jamoadagi o'rnini o'rganish

8. Jamoa deganimiz nima?

- a) Yagona maqsad atrofida birlashgan gurux
- b) Yangi fikrlarga ega bo'lgan gurux
- c) 4-5 kishidan iborat bo'lgan gurux
- d) Yangi bilimga ega bo'lgan gurux

9. Jamoa orasida shakllantiriladigan an'analar nechta va qanday ko'rinishlarda bo'ladi?

- a) 2ta. Kundalik turmush an'analari, bayram an'analari
- b) 1 ta. An'anaviy
- c) 3ta. Bayram an'analari, kechalar, tadbirlar
- d) 4ta. Bayram an'analari, kontsertlar, to'garaklar, faoliyatlar

10. Noosfera so'zi qanday ma'noni ahglatadi?

a) Rivojlanishning shunday bosqichini aks etadigan tushunchaki, u bosqichda insonning ongli faoliyati global muammolarning paydo bo'lishi va hal etilishiga ta'sir qiladi.

b) O'zaro munosabatlarida ro'y beradigan faoliyat

c) Bevosita insonlararo munosabatlar jarayonidagi tarbiyaviy ta'sir.

d) Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidir.

IJTIMOIIY TARBIYADA MAHALLANING O'RNI

Tayanch iboralar: *etnografiya, milliy mentalitet, kommunikativ, intellektual, motivatsion, emotsional-irodaviy, integratsiya, etnomadaniy sharoit, etnos.*

Oilaning mahallada tutgan o'rni

Oila ko'z ochib ko'rgan dargoh bolsa, mahalla vatan ichidagi Vatandir. Mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag'rida kamol topganlari kabi oila ham mahalla ichida ravnaq topadi, nurli kelajak sari intiladi. Mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisi, tog'day tayanchidir. Mahalla shunday bir dargohki, unda insonlar bir biri bilan juda ahil bo'lib xuddi opa-singil, aka-uka, quda-anda, do'st- birodar bo'lib yashashadi.

Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish sharoitida inson omilini vujudga keltirish davr talabiga aylandi. Barkamol inson haqida, uning mehnati va turmushi, ma'naviy taraqqiyoti haqida g'amxo'rlik jumhuriyatimizning asosiy maqsadidir. Kishi xislatlari uning mehnatga, ma'naviy, g'oyaviy va madaniy boyliklarga munosabatining asoslari oilada shakllanadi.

Jamiyat mustahkam, ma'naviy va axloqiy jihatdan sog'lom oila bo'lishidan manfaatdordir. Shu sababli jumhuriyatimiz oilani mustahkamlashni, bolalar tarbiyasi, shuningdek, ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashda yordam berishni davlat ahamiyatiga molik ish deb bo'ladi.

Keyingi yillarda Respublikamiz tomonidan qabul qilingan bir qator qaror va yo'l-yo'riqlarda xalqimizning ijtimoiy-madaniy yuksalishini ta'minlovchi fikrlar, tavsiyalar berildiki, bular respublikamizning asosi - oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamolotida muhim rol o'ynamoqda. Chunki, oilalarning har tomonlama yuksalishi, tabir joiz bo'lsa, jamiyatning yuksalishi demakdir. Xuddi shu ma'noda kelajagimiz bo'lmish yosh avlod tarbiyasi va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masala hamdir. Ikkinchi tomondan, jamiyatning oila va oilaviy tarbiyaga bo'lgan talabi ham kun sayin ortib bormoqda. Ota-onalarning bolalar tarbiyasi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish, tarbiyalashga

oid layoqatini oshirish, oilaviy va ijtimoiy tarbiya birligini ta'minlash hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Oila o'zining tarixiy taraqqiyoti davrida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Bu yo'lning o'ziga xos xususiyatlaridan biri jamiyatning o'zaro aloqalari va ijtimoiy vazifalarining tubdan o'zgarganligidir.

Jamiyatning moddiy texnika va ma'naviy yonalishidagi o'zgarishlari oila faoliyatining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Bunday o'zgarishlar oila qurish, mehr-muhabbat, o'zaro do'stlik va farzand ko'rishni rejalashtirishda o'z ifodasini topmoqda. Oilada bolalarni tarbiyalash o'zining bir qancha milliy xususiyatlariga ega. Ular xalqning shakllangan oilaviy an'analari, urf-odatlarini, xalqning ruhiyati, hayoti va turmush tarzidir.

Respublikamiz bolalariga ko'rsatadigan amaliy ta'sirini oila orqali amalga oshiradi. Oilaning bolalariga ko'rsatadigan ta'sir doirasi shunchalik kattaki, u jamiyat ta'siri bilan uyg'unlashib ketadi. Shu bilan birga, biz uning o'ziga xos imkoniyatlari mavjudligini inkor eta olmaymiz.

Barkamol inson tarbiyasida oila jamiyat bilan yaxlit bir birlikni tashkil etadi, bu esa hozirgi kunimiz uchun xos xususiyatlardan biridir. Ayniqsa, ota-onalar va jamiyat a'zolarining mehnat faoliyatlari harakteri, er va ayolning teng huquqligi, o'zaro hurmat, farzandlarni e'zo'zlash, hurmatlash, ijtimoiy va fuqarolik e'tiqodi, oilaviy madaniy hayotning mavjudligi va o'sayotganligi oilalarga xos fazilat sifatida qadrlanmoqda.

Bolalar tarbiyasiga birinchi navbatda ota va onaning o'zaro munosabatlari katta ta'sir ko'rsatadi. Bizning jamiyatimizda er va ayollarning teng huquqligi ta'minlangan bo'lsa-da, lekin biologik tenglik yo'qligini inkor eta olmaymiz. Shu sababli onalar bolalari tarbiyasi uchun ko'proq mehnat qilishlarini taqozo etadi. Bundan tashhari, ayollar oilada erkaklarga nisbatan ko'proq vaqtini uy ishlariga sarflaydi. Sotsiologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, hatto dam olish kunlari ham ayollar uy ishlari uchun toqqiz soatdan o'n bir soatgacha vaqt ajratishadi. Ishlovchi ayol bolalar tarbiyasi uchun juda oz vaqt ajratishga majbur bo'ladi. Ertalab, ishga jo'nashdan oldin bolalarini ovqatlantiradi, kiyintiradi, yasli yoki bog'chaga olib boradi, maktabga jo'natadi. Katta yoshdagi bolalar o'zlarini

eplaydilar. Kunning ikkinchi yarmida ishdan qaytgach, ayolning ikkinchi ish faoliyati boshlanadi, ya'ni bolalarining uy vazifalarini bajarishlarini nazorat qilish, kechki ovqat tayyorlash va hokazo.

Milliy mentalitet va uning ijtimoiylashuvda tutgan o'рни.

Ijtimoiy pedagogikaning amaliyoti va nazariyasi xalqning etnografik, tarixiy, madaniy an'analari va xususiyatlariga bog'liq va inson, insoniy qadriyatlar haqidagi diniy va axloqiy qarashlarga suyanadi. Inson sivilizatsiyasi davomida har qanday jamiyat o'zi mustaqil mavjud bo'lishini ta'minlay olmaydigan a'zolari: bolalar, qariyalar, kasallarga munosabat mavzusi bilan bir necha bor duch kelgan. Bunday odamlarga munosabat jamiyatning g'oyaviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy va milliy xususiyatlariga bog'liq ravishda rivojlangan va ularning jismoniy yo'q qilinishidan tortib, jamiyatda to'liq integratsiyalashuvlarigacha bo'lgan ko'rinishlarda ifodalangan.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, davlat va jamiyat rivojining o'ziga xos yo'lini tanlashi, milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarni tiklash, saqlab qolish imkonini berdi va hayotning barcha jabhalarida milliy xususiyatlarni inobatga olish vazifasini qo'ydi.

Bugun shaxs shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi omillarni alohida inobatga olish kerak. Bunday omillarga nafaqat moddiy, g'oyaviy va psixologik sharoitlar, balki shaxsning shakllanishi ro'y bergan muhit ham mansubdir. Bu jarayonga mustaqil davlatlarda olib beriladigan millatlararo munosabatlar milliy siyosat ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu ayniqsa shaxsiy xislatlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday xislatlarga milliy o'z-o'zini anglash, g'urur, iftixor kabi tushunchalar kirishini e'tiborga olsak, shaxsning axloqiy shakllanishi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga chambarchas bog'liq holda kechadi, deb xulosa qilish mumkin.

O'zbek xalqi o'ziga xos etnik muhitiga egadir. Bunday muhitda bolalar yoshligidan o'z ona (milliy) tillarining va unda aksini topgan ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, maqollar, ashulalarning ta'sirida bo'ladilar. Bolalar asta-sekin milliy an'analar, urf-odatlarning aniq me'yorlariga ko'nikishadi. O'quvchilarda milliy tarixni, adabiyotni o'rganishi va ona tillarida turli ma'lumotlarni olishi orqali o'smirlik

yoshida o‘z mansubligini va etnik umummilliylikni anglashi ro‘y beradi.

Etnomadaniy sharoitlarning ijtimoiylashuviga ta’lim mentaliteti (bu tushuncha XX asr boshida fransuz olimi L.Levi Bryul tomonidan fanga kiritilgan) darajasida namoyon bo‘ladi. Mentalitetning tarqalishi xalq tushunchasidan holi bo‘lmaydi.

Etnos – bu tarixan bir hududda shakllangan, til, madaniyat, ruhiyatning umumiy, nisbatan barqaror xususiyatlariga ega, shuningdek boshqa shunday tuzilmalardan o‘z-o‘zini anglashi bilan ajralib turuvchi insonlar majmuasidir

Etnos (xalq)ga mansublik tug‘ilishdanoq bo‘lmay, ijtimoiylashuv, shaxsning muayyan madaniy sohadagi shakllanishi, bolaning axloqiy stereotiplarni o‘zlashtirishi davomida paydo bo‘ladi. Etnosning muhim hususiyatlaridan biri etnik o‘z-o‘zini anglashning mavjudligidir. Etnosni boshqa etnoslardan ajratib turuvchi xususiyatlarga (til, qadriyat, me’yor, din, ilmiy xarakter, san’at) asosan shu etnosning a’zosi deb hisoblanadigan kishilarning mavjudligi bo‘yicha aniqlasa bo‘ladi. Etnos insonlarning ijtimoiy-pedagogik birligi sifatida har bir inson uchun muhim vazifalarni bajarishi mumkin. Inson etnik maqomga ega va uni etnosdan ajratib bo‘lmaydi. Shu xususiyatlar uchun etnos inson uchun qo‘llab-quvvatlash guruhi hisoblanadi.

Etnosning shaxsiy, ijtimoiy, faoliyat darajalaridagi xususiyatlari etnopsixologiya orqali ifodalanadi. Etnopsixologiya o‘z ichiga milliy hissiyot va kayfiyat, milliy madaniyat va mo‘ljal, milliy an’analarni oladi. So‘nggi paytlarda etnopsixologiyada “milliy xarakter” tushunchasi kam ishlatilmoqda. Etnik guruhlarining psixologik xususiyatlarini ifodalash uchun esa mentallik va mentalitet tushunchalari qo‘llanilmoqda.

Mentallik insonning olam, o‘zining bu olamda tutgan o‘rni haqidagi tasavvurlari asosida yetgan obrazlar tizimidir, ya’ni mentallik etnik guruhga u yoki bu davrga xos bo‘lgan o‘ziga yarasha dunyoqarashdir.

“Mentalitet” kategoriyasi gumanitar fanlarda an’analar va madaniyat orqali aniqlab beriluvchi ommaviy dunyoqarashning

tarkiblarini ifodalash uchun ishlatilmoqda. Mentalitetning turli ta'riflari mavjud. Mentalitet bu anglanmagan darajadagi jamoa tasavvurlari majmuasi bo'lib, muayyan tabiiy-iqlimiy va tarixiy-madaniy sharoitlarda shakllangandir. (A.V. Mudrik)

Mentalitet – bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning dunyoni muayyan obrazda qabul qilish, his qilish va unda tafakkur yuritishini ichiga oluvchi individual va jamoa ongining darajasidir. Mentalitet shu xalqning uzoq tarixiy rivojlanishi natijasida shakllanadi va milliy xarakter, iqtisodiy va ijtimoiy xulq atvorning milliy modelini belgilab beradi.

Mentalitet hatto bir mafkura boshqasiga o'zgarganda ham o'zining asosiy parametrlarini saqlab qolish mumkin. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda mentalitet madaniyatga tegishli odamlarda umumiy aqliy qurilmalarining mavjudligi bilan aniqlanadi. Turli xalqlarning mentalitlari farqi ular quyidagi ijtimoiy hodisalar: ijtimoiy tuzilmaga baho berish, huquq va odat haqidagi qarashlari, ozodlikka munosabati, ozodlikni tushunishlari, mehnat, mulkchilik, boylikka munosabatlari, zamon va makonni tushunishlarini qanday qabul qilishlarida namoyon bo'ladi.

Mentalitet – bu xalq madaniyatining keng maydondagi kvint-esseksiyasidir. “Mentalitet” kategoriyasi, odatda ijtimoiy psixologik kategoriya sifatida tushuniladi. Mentalitet tushunchasining tarkibini psixologik tahlili mentalitet tushunchasini muayyan madaniyatda yashovchi odamlarning integral tasviri sifatida tushunish imkonini beradi. Bu tahlil I.G.Dubrov, V.I.Kukushkin, A.S.Pamarin, V.S.Barulinlar tomonidan o'tkazilgan. Boshqacha aytganda mentalitet jamiyatning ma'naviy-ruhiy qiyofasi, jamiyat dunyoqarashining asosiy o'lchovi sifatida tushuniladi.

Mentalitet ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki u ijtimoiy axborot tashuvchisi hisoblanadi. Ijtimoiy axborot bu holatda 3 asosiy guruhda bo'ladi:

- ✓ ishlab chiqarish qurollari va mehnatning jamoaviy natijalari;
- ✓ ob'ektiv ijtimoiy munosabatlar;
- ✓ til va muloqot.

Mentalitet ijtimoiy axborotning o'ziga xos qismi sifatida o'zining uzatish kanallariga ega. Ular orasida eng asosiylari tabiiy muhit, mumtoz va boshqa keng tarqalgan matnlar, til strukturalari, kundalik yumushlar hisoblanadi. Hozirgi kunda hali fanda mentalitet tushunchasi tor va keng ma'noda tushuniladi.

Keng ma'noda mentalitet jamiyat, jamiyat ongini qabul qilish o'ziga xosligi sifatida o'zining tabiat va ijtimoiylashtirishni qabul qilishga o'zicha dunyoga munosabatda bo'lish imkonini beradi.


Tarbiyalanuvchilarning milliy psixologik xususiyatlarini ijtimoiy pedagog inobatga olishi kerak. Milliy psixologiyani bila turib, u tarbiya ishining sifatini oshirishda kerakli qoidalarni topa olish mumkin. Etnopsixologiya pedagogika faniga muayyan milliy guruhlar vakillari tomonidan tarbiyaviy ta'sir choralari qabul qilishning o'ziga xoslik, turli xalqlarning tarixiy tajribasini inobatga olib, tarbiya tadbirlarining mazmunini, u yoki bu millat vakillarining tarbiya choralari ko'nikishlari xususiyatlarini, aniq etnik guruh vakillarida milliy psixologiyaning ifodalanishini, turli xalqlarda tarbiyaviy ta'sir paytida nizoviy munosabatlarning ifodalanishi xususiyatlarini, milliy mintaqalarda odamlarga nisbatan qo'llanilayotgan psixologik ta'sirga bog'liq ravishda tarbiya ishining mahsuldorligi, turli millat vakillarining muomalasi jarayonida shaxslararo munosabatlarning shakllanishini o'rganishga yordam beradi.

Insonlarning milliy psixologik xususiyatlari ularning faoliyatiga quyidagi shakllarda ta'sir ko'rsatadi:

- faoliyatning milliy o'ziga xosligi;
- inson xislatlarining milliy xususiyati;
- axloqiy holatning milliy o'ziga xosligi.

Milliy psixologik xususiyatlar nafaqat inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi, balki bu jarayonga muayyan tuzilish va mazmun beradi.

Milliy psixologiyada ijtimoiy ong hodisasi sifatida to'rtta sohani ajratsa bo'ladi:



Motivatsion fan sohasi milliy umumiylikning sabablari va g'oyalarning o'ziga xosligini xarakterlaydi.

Intellektual soha esa milliy psixika tashuvchilari tafakkurining o'ziga xosligini xarakterlaydi. Bu jihat ularda aqliy hislatlar mavjudligida ifodalanadi.

Kommunikativ soha esa har bir xalqning o'rnatilib bo'lingan o'zaro munosabatlar me'yorlari, o'z axloq stereotiplari, o'z rahbarlik shakllari mavjudligidan dalolat beradi.

Shunday xalq gipotezasi mavjudki, har bir xalq nerv tizimi va aqlining tug'ma xususiyatlarining faoliyat yuritishida o'z xususiyatlariga ega. Bu esa milliy xarakterning **emotsional-irodaviy** sohalarining o'ziga xosligini keltirib chiqaradi.

Milliy psixologik xususiyatlar ko'nikma va stereotiplar mexanizmlari orqali namoyon bo'ladi. Qurilmalar insonning muayyan shaklda u yoki bu hodisani qabul qilishidir, ya'ni qurilma muayyan faoliyat yuritishga tayyorlik, biror bir milliy jamoa vakili o'z etnik sharoitlaridan kelib chiqib milliy mentaliteti shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida milliy axloqiy me'yorlari va qadriyatlar, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlarini mustahkamlash, atrof-muhitdagi odamlarga baho berish, o'z millati nuqtai nazariga mos kelmaydigan g'oyalarni qoralash vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy va pedagogik amaliyot, bir qator tadqiqotlar insonning milliy majburiyatini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institutlar sifatida oilani e'tirof etadi. Oila:

- ❖ milliy axloqiy normalarni o'zlashtirish, milliy madaniy muhitga va uning qadriyatlariga ko'nikishning eng bevosita va abadiy manbasi hisoblanadi.

- ❖ millat psixologiyasi jihatlarining taqlid yo'li orqali alohida shaxslar ongi va ruhiy olamiga kirishini ta'kidlaydi.

- ❖ milliy qadriyatlarga amal qiladi, ularni saqlaydi.

❖ o‘zining milliy tarbiyaviy ahamiyati inson hayoti davomida saqlab qoladi.

❖ milliy odatlar, urf va an‘analarning asosiy tashuvchisi hisoblanadi.

Oilaning barcha sanab o‘tilgan xususiyatlari o‘zbek oilasida o‘zining yorqin ifodasini topadi.

O‘zbek xalqi shaxsiy xislatlarida ifodalangan milliy xususiyatlari oilada milliy va diniy qadriyatlar asosida shakllangan va avloddan-avlodga o‘tib ta‘lim-tarbiya, odat, marosimlar, qoidalar shaklida mustahkamlangan. Bunday qadriyatlarga avvalo o‘z yurtining o‘tmishiga hurmat, milliy an‘analarga sodiqlik va ularni hayotga tadbiiq etish kiradi. Milliy xususiyatlarning shakllanishiga mehnat faoliyatining xarakteri va yo‘naltirilganligi, ijtimoiy jarayonlarda qatnashish darajasi, madaniy ta‘lim darajasi ta‘sir qiladi.

Milliy xislatlar shakllanishining asosi milliy, tarixiy, madaniy, diniy, axloqiy qadriyatlar hisoblanadi. Ularning shakllanishi, saqlanishi va boshqa avlodlarga uzatilishi vositasi- milliy odat va an‘analar hisoblanadi.

Axloqiy qadriyatlar asosida o‘zbek oilasida rostgo‘ylik, vazminlik kabi xislatlar shakllanadi. O‘zbek oilasining pedagogik va psixologik xususiyatlari alohida e‘tiborga loyiq. Chunki ular hayot tarzi, ma‘naviy axloqiy muhit, tarbiyaviy tamoyillarni belgilab beradi. Bularga milliy qadriyatlarga sodiqlik, diniy amallarga hurmat, bolalarni yaxshi, xayrli ishlarni qilishga undash, o‘z so‘zida turish, kattalarning yoshlarga namuna bo‘lishi, sabr-toqatli bo‘lish, yosh xususiyatlarining inobatga olinishi, munosabatlarning hamkorligi, o‘zaro hurmat tamoyillari asosida qurilishi kiradi.

Bir qator tadqiqotlar va shaxsiy kuzatuvlar asosida biz shunday xulosaga keldikki, tarbiyaviy ta‘sirlarning natijalari o‘zbek millatining o‘ziga xos xususiyatlariga ta‘sir ko‘rsatadi. Ularni esa shartli ravishda ikkiga bo‘lsak bo‘ladi:

➤ xarakterli-ishonuvchanlik, hissiyotlik, sodiqlik, sabrlilik, bolalarni sevish;

➤ axloqiy-tarbiyalanganlik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, mehribonlik, insoniylik, insoflilik, g‘amxo‘rlik, saxiylik, vatanparvarlik.

An'analar iqtisodiy va ma'naviy borliqning tarkibiy unsuri sifatida qaysidir ma'noda bizning hayotimizni kelajak bilan bog'laydi. Har bir rivojlanish bosqichida an'analarning mazmuni va ahamiyati aniq ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va vazifalar bilan belgilanadi.

Ijtimoiy hayotning barcha jabhalari-maishiy, ijtimoiy, san'at sohasining zaruriy tarkibiy qismi bo'lish bilan birga, an'ana va odatlar odamlarning har bir davrdagi ko'p asrli qarashlarini mujassamlashtiradilar. Aksariyat hollarda an'analarning kelib chiqishi muhim tarixiy hodisalarga borib taqaladi.

Xalqda faqatgina insonlarni tashqi va ichki holatda birlashtiruvchi shu qadriyatlar qadrlanadi. An'analar qanchalik qadimiylikga ega bo'lsa, shuncha ishonch bilan ularning ahamiyati va uning jamiyat institutlari tomonidan qabul qilinishiga e'tibor qaratsa bo'ladi.

An'analar o'z ifodalarini topish bo'yicha nihoyatda milliylik xususiyatiga egadirlar, biroq tarixiy rivojlanish mobaynida ular boshqa xalqlari tomonidan ham boyitiladi va shu paytning o'zidayoq umumxalq, xalqaro qiyofaga ega bo'lishadi. An'ana va odatlarga ikki o'zaro bog'liq ijtimoiy vazifa xosdir:

a) shu jamiyatda o'rnatilgan munosabatlarni barqarorlashtirish vositalari,

b) bu munosabatlarni yangi avlod hayotida amalga oshirish. Bu vazifalar turli yo'llar bilan amalga oshiriladi: agar an'analar bu hayotda qanday harakat qilish lozimligini aniq belgilab qo'ygan bo'lsa, unda an'analar, yurish-turishning umumiy me'yorlari yoki tamoyillarini ilgari surishadi.

Hozirgi kunda o'zbek xalqining mentaliteti milliy istiqlol g'oyasiga asoslanadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning fikricha quyidagilar milliy mentalitetning asosiy tushunchalari hisoblanadi:

- ✓ Vatanga muhabbat:
- ✓ ona tiliga muhabbat:
- ✓ milliy axloqiy, madaniy, ma'naviy qadriyatlar:
- ✓ oila:
- ✓ mahalla:
- ✓ islom dini:
- ✓ ta'lim va ma'rifatning o'rni:

✓ umuminsoniy qadriyatlarga tayanish.

Mahalla ijtimoiylashuvning an'anaviy omili sifatida.

O'zbek mentalitetining muhim xususiyatlaridan biri maxsus ijtimoiy tuzilma mahallaning mavjudligidir.

Toshkent shahrida XIX asrdan boshlab mahalla mavjud. Ularning tashkil topishi va faoliyat yuritishi bir tomondan milliy-psixologik xususiyatlari, boshqa tomondan esa aholiga yoshligidanoq ijtimoiy munosabatlarga g'arq bo'lishlariga imkon yaratish bilan bog'liqdir. Boshqacha aytganda, mahalla mikrotsizm bo'lib, unda axloqiy tamoyil va qoidalarga amal qilish, marosim va jamoat faoliyatining boshqa turlarida ishtirok etish orqali shaxsning yanada kattaroq hamjamiyatda ijtimoiylashuvi usullari shakllanadi. Mahallaning demokratiyalashuv, ijtimoiylashuv, insoniylashuv va mukammallashuv jarayonlariga faol ta'sir qila olishini Birinchi Prezident I.A.Karimov quyidagicha ta'kidlab o'tgan: "Mahalla-bizning jamiyat hayotida insoniy tarbiya va kelishuvning o'zgarmas manbasi. Tarixning guvohlik berishicha, bizning davlat daryolar bo'yida paydo bo'lgan. Tabiat kataklizmalari, tashqi hayvonlarni birgalikda yengish, qiyin kunlarda qo'llab-quvvatlash bizning ajdodlarimizni jamoa bo'lib yashashga o'rgatgan.

Mehribonlik, rahmdillik kabi insoniy hislatlar aynan mahallada shakllanadi. Bu ma'noda mahallani o'z-o'zini boshqarish maktabi, kerak bo'lsa, demokratiya maktabi desa bo'ladi".

Ijtimoiylashuv nafaqat shaxsning jamiyatda qulayliklarga ega bo'lishini ko'zda tutadi, balki shaxsning muayyan axloqiy va etnik qoidalarni egallashini ham ko'zda tutadi. Shu borada mahalla ijtimoiylashuvining unikal mexanizmi hisoblanadi. Chunki unda:

– har bir inson amal qilishi kerak bo'lgan muayyan axloqiy qonunlar ishlab turadi;

– muomala bir qator axloqiy tamoyillarga asoslanadi;

– hokimiyatga ishonch va xizmat, shaxsiy namuna kuchi kattalarga hurmat, bolalar haqida g'amxo'rlik;

– axloq va jamoatchilikning tarbiyasi amaliy faoliyatga kiritish orqali amalga oshiriladi;

– ommaviy ong qadriyatlari mahalladan oila va shaxsga uzaytiriladi;

– alohida shaxs hayotining asosiy bosqichlari jamoaning barcha a'zolari tomonidan kuzatuvda bo'ladi.

Alohida tarixiy davrlarda an'anaviy hayotiy muammolarning buzilishiga urinishlar amalga oshirilishiga qaramay, mahalla bunga qarshilik ko'rsatdi va an'ana, odatlarning saqlanib qolishiga yordam beradi.

Mahallaning ijtimoiy o'rni shunda namoyon bo'ladiki, u doimo jiddiy ijtimoiy o'zgarishlarga o'z munosabatini bildirgan va oliy insoniy hamda axloqiy tamoyillarga tayanadi. Masalan, XX asrning 20-30 yillarida mahallada ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga qo'shilishi, savodsizlikni bartaraf etish, aholining madaniy dunyoqarashini kengaytirish qo'llab-quvvatlangan

Hammaga mahalla aholisining Rossiya, Ukraina, Belorusiyadan evakuatsiya qilinganlarni qabul qilganliklari ma'lum. Mahalliy aholi vakillari ko'chib kelganlarga o'z uylarining bir qismini berishgan, moddiy yordam ko'rsatishgan. Mahalla jamoalari nihoyatda yuqori axloqiy va ijtimoiy salohiyatga ega, ular odamlarda yaxshi niyatlilik, o'zaro hurmat, o'zaro tushunish kabi hislatlarni tarbiyalashadi.

Mahalla an'analarni saqlab qolish va ularni yoshlarga yetkazish, jamiyatni demokratiyalashning ilk davrlarida milliy qadriyatlarining tiklanishiga katta yordam bergan. Yangi sharoitlarda mahalla o'z-o'zini boshqarish organi sifatida yangi mazmun va ahamiyatga ega bo'ldi. Bunga O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ham ta'kidlangan.

Mahalla insonlarning axloqiy birlashuvi markazi hisoblanadi/. Bu avvalambor, mahalla qo'mitalari faoliyatlarining asosiy yo'nalishlaridan biri ijtimoiy mehnatlarni, shu jumladan obodonlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilishda namoyon bo'ladi. Bunaqa ishlarning asosiy turlari-ariqlarni tozalash, daraxtlarni kesish, axlatni chiqarish kabi hasharlardir. Bunday tadbirlar asosan Navro'z, Ramazon, Qurbon hayitlari, Mustaqillik kunlari oldidan o'tkaziladi. Hashar yo'li bilan uylar, klublar, oshxona, masjidlar bunyod etilmoqda.

Eng muhim an'analardan biri mehr-muruvvat ko'rsatish bo'lib, u quyidagi qiyofalarda namoyon bo'ladi:

✓ jamoaning g'amxo'rliqi, qo'shnilarning kasal, keksa va kam ta'minlanganlariga yordam ko'rsatishadi;

✓ o‘ziga to‘q kishilarning kam ta‘minlangan qarindoshlariga va qo‘shnilariga moddiy yordam berishlari;

✓ oqsoqol va mahalla qo‘mitasi tomonidan boquvchisini yo‘qotgan va qariyalarga yordam ko‘rsatishi va boshqalar.

Bularga misol qilib, 50-yillarda “Yangiobod” mahallasida aholining yordami bilan klub bunyod etilib, unda ma‘ruza, konsert, kechalar o‘tkazilgan. Bu ishlarda o‘qituvchilar, san‘atkorlar faol ishtirok etishgan.

Jamoada yordam ko‘rsatish an‘anasi hozir yangi shakllarga ega bo‘lib, hokimiyatlar, mahalla qo‘mitalarning asosiy vazifasiga aylandi. Respublika Prezidentining (1994 yil 23 avgust) “Aholining kam ta‘minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyasini kuchaytirish chora-tadbirlari” haqidagi farmoni bilan aholini ijtimoiy himoya qilishning yangi turi joriy qilindi: kam ta‘minlangan oilalarga har oy ko‘rsatiladigan yordam hisoblanadi. Bu yordamning yangiligi shundaki oilalar taqsimotini mahalla hal qiladi. Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari 1999-yil yanvarda O‘zbekiston Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining 2002-yil yanvardagi “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo‘naltirilgan tarzda qo‘llab-quvvatlashining 2002-2003 yillarda mo‘ljallangan dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori talablarini amalga oshirmoqdalar. “Fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining aholining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishini ta‘minlash” to‘g‘risidagi farmoni chiqdi.

Hozirgi kunda mahalla jamiyatda etnomadaniy qadriyatlarni tiklash jarayonida muhim rol o‘ynamoqda. Nikoh, janoza, aqiqa to‘yi, sunnat to‘yi, muchal to‘yi kabi marosimlar ham o‘tkazilmoqda.

Bozor munosabatlarini shakllantirishning murakkab holatida mahallaning ijtimoiylashtiruv roli oshib ketadi. Bu avvalambor oila qadriyatlarini saqlab qolishda namoyon bo‘ladi. Nizoli holatlar paydo bo‘lganda xotin-qizlar qo‘mitasi yoki mahalla oila vakillari bilan suhbat o‘tkazadi va odatda vaziyatga oydinlik kiritadi va ajralishlar bo‘lishiga olib keladi. Bundan tashqari mahalla ishsizlarga ishga joylashishlariga, militsiya xodimlariga tartibni saqlashda yordam beradi, xizmatga chaqirilganlar bilan tushuntirish ishlari olib boradi. Avvalgiday jamoa o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda muhim o‘rin tutmoqda. Hozirda mahalla bolalar

bogʻchalari va maktablari bilan yaqin hamkorlik olib borib, ularga taʼmirlash ishlarini olib borishda, tarbiya ishlarida yordam koʻrsatadi. Mahalla qoʻmitasi majlislarida maktab intizomining jiddiy buzilishlari ham koʻrib chiqiladi. Yoshlarga taʼsir koʻrsatishning bu rasmiy tarmoqlaridan tashqari jamoani nazorat qilishning anʼanaviy usuli ham saqlanib qolgan. Har qanday mahallada boy hayotiy tajribaga ega odamlar mavjud. Ularning asosiy vazifasi aholining anʼanaviy axloq-odob qoidalariga rioya qilishlarini, bolalarning koʻchadagi yurish-turishini nazorat qilishdir. Ular har qanday odamga tanbeh berishlari mumkin, biroq bu ishni doimo ularning hurmatini saqlagan holda amalga oshiriladi. Ota-onalarning bunday munosabatni qadrlashi tahsinga sazovor. Shuning uchun “mahalla sening ham otang, ham onang” degan maqol mavjud. Boshqa sohalarda namoyon boʻladigan milliy tiklanish, xalqning milliy oʻz-oʻzini anglashni faollashtirish orqali boʻladi. Sobiq Sovet ittifoqi davrida bu kabi anʼanalar toʻliq yoʻqolib ketmagan, balki ayrim oilalarda oʻziga xos tarzda saqlanib qolgan va yoshlarga berilgan. Bu ayniqsa, hayotning anʼanaviy turmush tarzini saqlab kelayotgan eski shahar mahallalarida yashovchilar orasida yaqqol namoyon boʻlgan. Mahalla fuqarolarining yuqori savodxonlik va madaniy darajasi (yosh va oʻrta avlod, oʻrta yoki oliy maʼlumotga ega) badiiy ijodning keng rivojlanishi, marosimlar oʻtkazishda maʼnaviy oʻz-oʻzini ifodalashning keng imkoniyatlarini koʻzda tutadi.

Shuni taʼkidlash joizki, etnik anʼanalar va marosimlarning tiklanishida avvalo, oiladagi katta avlod, shuningdek, ommaviy axborot vositalari, ayniqsa televideniye katta oʻrin tutadi.

Hozirgi kunda mahallaning ahamiyati oshib bormoqda. Biroq yoshlar tarbiyasida muammolar kam emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarning axloqiy tarbiyasiga xalaqit beradigan bir qancha holatlar ham kelib chiqmoqda. Yoshlarning yoshligidanoq savdo-sotiq qilishga va boshqa tijorat ishlariga shoʻngʻib ketishi ularning oʻqishiga, bilim olishga boʻlgan intilishlariga, ijtimoiy munosabatlarga kirishishga, salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Baʼzi hollarda muallimlar oʻquvchilarni toʻliq tarbiyalash imkoniyatidan mahrumdirlar, yaʼni ular boshqa faoliyat bilan ham shugʻullanadilar. Jamiyatni demokratiyalashtirishning mazkur bosqichida yoshlar faoliyat turini tanlashda keng imkoniyatlarga ega boʻlishdi. Biroq

ular bulardan to'liq foydalana olmaydilar. So'nggi yillarda yoshlar orasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish susaydi, din ta'siri kuchaydi va bu natijada yoshlar mafkuraviy sohada o'z mo'ljallarini yo'qotishlariga olib keldi. Mahalla tarbiyaning an'anaviy usullaridan foydalanib, yosh avlod bilan yanada faol ish olib borish, ularda hozirgi jamiyat talablariga muvofiq keladigan dunyoqarash va axloqiy tamoyillar hosil qilishdan iborat.

Mahalla azaldan nafaqat o'sib kelayotgan avlodning tarbiyachisi vazifasini bajargan, balki ijtimoiy fikrni shakllantirgan ham. Qo'shnilar o'rtasidagi barcha nizoli holatlar, shuningdek, oilaviy janjallar mahalla qo'mitalari faollari tomonidan muhokama qilinadi. Bular orasida ko'pincha qaynona-kelin, yosh kelin-kuyovlar orasida janjallar ko'p uchraydi. Bunaqa holatlarda xotin-qizlar qo'mitasi suhbat o'tkazadi. Agar ikki tomonni yarashtirib bo'lmasa, bu holat bilan mahalla qo'mitasi shug'ullanadi. Odatda o'sha joyning o'zida muammo hal qilinadi. Shuning uchun ajralishlar soni ko'p emas. So'nggi paytlarda uy ishlari bilan band ayollar, yosh oilalar bilan ishlash faollashdi, ularni kasb-hunarlariga o'rgatish ishlari olib borilmoqda. Mahalla ishsizlarning ishga joylashishlariga ham ko'maklashmoqda. Harbiy qo'mitalar askarlikka olishga tanlov bo'lganda mahalla faolligiga tayanishadi.

1999-yil 14-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari haqida"gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Unda yana bir marta fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishi asosida tarixiy taraqqiy xususiyatlari, milliy va ma'naviy qadriyatlar, mahalliy odat va an'analar yotishi ta'kidlandi. Qonunda mahallaning vazifalari belgilab qo'yilgan. Yuqorida sanab o'tilgan vazifalardan tashqari mahallaga yangi vazifalar-tijorat va maishiy xizmat ko'rsatishni, hududning tozalik holatini, aholidan soliqlarni o'z vaqtida topshirilishini nazorat qilish ham yuklatildi. Davlat mahallaga avval mahalliy kengashlar bajargan vazifalarni yuklamoqda. Bu esa mahalla qo'mitalari davlat tuzilmalariga aylanayotganligidan guvohlik beradi.

Mahallaning ijtimoiy hayotida so'nggi o'n yillarda katta o'zgarishlarni boshdan kechirgan qo'shnichilik munosabatlari muhim o'rin tutmoqda. Oilaviy muhitning individuallashtirish jarayoni ketmoqda. Shu bilan birga yaqin qo'shnichilik munosabatlari o'zbek

oilasining qadriyatlaridan biri bo‘lib qolaveradi. Bu avvalombor xo‘jalik yordamida, bolalar tarbiyasida, qiyin vaziyatlarda yordam ko‘rsatishda namoyon bo‘lmoqda. Shuning asosida ma‘naviy yaqinlik paydo bo‘ladi, ya‘ni kundalik axborot almashinuvi, mahalladagi voqealar muhokamasi bo‘lib o‘tadi. Shu tarzda mahalladagi eng kichik guruhlardan biri-qo‘shnichilik guruhi paydo bo‘ladi.

Mana shu guruh bilan bir qatorda qarindoshlik aloqalari ham mavjud. Ular hozirda avvalgidan ko‘ra kamroq bo‘lsada, uning a‘zolarining faol o‘zaro yordami bilan xarakterlidir. Qarindoshlik munosabatlari o‘zbeklarning oilaviy qadriyatlari tizimida hali ham birinchi o‘rinda turadi.

O‘zbeklarning ijtimoiy hayotidagi muhim hodisalardan biri erkaklar birlashmalari-gap, gashtak, ziyofatdir va ularning maqsadi bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazishdir. Har bir yosh guruh o‘zining muomala shakliga ega: Qadimda Toshkentda gaplar ommaviy xarakterga ega bo‘lgan. Ular hosil yig‘im terimi yakunlangan kuzgishki davrda o‘tkazilgan. To‘qmada erkaklar har kuni bir-birlarining uyida to‘planishgan va har kim qo‘lidan kelganini olib kelgan. Buning hammasi “umumiy qozon”ga solingan. O‘zlari taom tayyorlashgan, o‘zlari uy yig‘ishtirishgan, namoz o‘qishgan, suhbatlashishgan, axborot almashishgan.

Har bir gapda saylangan rahbar va ishtirok etish qoidalari bo‘lgan. Qoidabuzarlar gapdan chetlashtirilgan. Ziyofat xarajatlarini mezbon ko‘targan. Namoz va diniy adabiyotlar uchun odamlarni qamashgan XX asrning 30- yillarida gaplarda to‘planish havfli bo‘lgan. II jahon urushi davrida moddiy qiyinchiliklar ham gaplar o‘tkazilmasligiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Biroq gaplar XX asrning 50-60 yillarida asta-sekin tiklana boshladi. Biroq bu gaplar biroz boshqacha edi. Avvalo, endi ayollar orasida ham gap tashkillashtirildi. Hozirda ayollar gaplari erkaklarnikidan ko‘ra keng tarqalgan. Oilaviy gaplar, avvalombor sinfdoshlar, kursdoshlar orasida, shuningdek kasbiy gaplar ham ommaboplashdi.

Gaplarning ijobiy xususiyatlari bilan birgalikda ularda salbiy jihatlar ham mavjud. Bu isrofgarchilik va ichkilik bilan bog‘liq. Kitoblar mutolaasi, mazmunli suhbatlar tan olinmay kelindi. Avvalgilaridan farqli ravishda hozirgi gaplar yil davomida

o'tkaziladi. To'y paytida gap ishtirokchilari to'y egasiga yordam ko'rsatishadi. Ular og'aynilarini qiyin kunlarda qo'llab-quvvatlashadi. Har bir gapning shuhrati bor. Insonni, ayniqsa yoshlarni qaysi gapga a'zo bo'lganidan u qanaqa tarbiya olganini aniqlasa bo'ladi.

Ayollar orasidagi gaplar XX asrning 60-70 yillarida keng rivojlana boshladi. Bu mahalladagi qo'shnilarning birlashmasi edi. Biroq ishtirokchining yoshi inobatga olingan. Har bir mahallada o'rta yosh ayollar, yosh ayollar (asosan kelinlar)ning birlashmalari mavjud bo'lgan.

Yaqin qarindoshlar orasidagi gaplar ham keng tarqalgan. Odatda bunda yoshi eng ulug' ishtirokchi rahbar bo'ladi. Bunday gaplarga ayollar farzandlarini ham olib kelishgan.

Shuningdek oilaviy gaplar ham paydo bo'ldi. Ularda erkaklar o'z xotinlari bilan ishtirok etishadi. Bu gaplar sinfdoshlar yoki kursdoshlar gaplari sifatida boshlangan va keyinchalik har uylangan a'zo o'z xotinini ham olib kela boshlaydi. Bu gaplar umumiy qoidalar asosida mavjud bo'lib, nihoyatda kam uchraydi.

O'rta va katta avlod ayollari o'rtasida to'planishning boshqa shakllari ham mavjud. Bular mushkul kushod va mavlud kabi diniy marosimlar bo'lib, ular so'nggi yillarda Toshkent mahallalarida ochiq-oydin o'tkazilmoqda. Mavlud yoki mushkul kushodga to'planishgan ayollar nafaqat diniy marosimlarda ishtirok etishadi, balki muomalaga kirishish imkoniyatiga ham ega bo'lishadi. Hayotning eng yaxshi axloqiy me'yor va tamoyillarining tiklanishi fanda hayotning ba'zi eskirgan jihatlarini yangilashga, ayollar erkinligi va huquqlarini cheklashga ham urinishlar bo'ldi.

Mahalla hozirda zamonaviy jamiyat hayotining ijtimoiy tizimida o'z o'rnini topgan. Milliy va etnik an'analarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston siyosati bu an'anaviy institutning yanada faol faoliyat yuritishiga yangi zaminlar yaratdi.

Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o'rne.

Ijtimoiy pedagogikada jamiyat, ijtimoiy muhit avvalambor bolaning yangi muhitlarga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Shu nuqtai nazardan inson va unga ta'sir qiluvchi tashqi omillarning jamiyatdagi o'zaro munosabati hamkorlik xarakteriga ega ekanligi muhimdir. Muhit-inson kirishishi, o'zini qulay sezishi

uchun joylashuvinigina yetarli bilishi lozim bo'lgan ko'cha, uy va boshqa narsalar emas. Balki, muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan xarakterlanadigan inson jamoalari hamdir. Shuning uchun inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir qiladi hamda o'zgartiradi va o'z o'rnida muhit ham inson oldiga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning xatti-harakatlarini qabul qilishi ham, inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ladi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Inson jamiyatda bir vaqtning o'zida bir qancha mavqelarni egallashi mumkin. Masalan, ayol ham rafiqqa, ham ona, ham ustoz mavqelarini egallashi mumkin. Har bir mavqe insonga muayyan talablarni qo'yadi va shu bilan birga unga bir qancha huquqlarni beradi. Insonning jamiyatdagi muayyan huquq va majburiyatlar bilan xarakterlanadigan mavqei ijtimoiy maqom deyiladi. Insonda tug'ma maqomlar bo'lishi mumkin. Insonning ijtimoiy maqomiga millati, tug'ilgan joyi, familiyasi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday maqomlarga odatda tug'ma maqom deyiladi. Boshqalari esa inson jamiyatda nimalarga mustaqil erishganligiga qarab belgilanadi. Masalan, ijtimoiy pedagog maqomiga shu sohadagi kasb tayyorlovchi o'quv muassasasida ta'lim olgan va bu soha bo'yicha diplomga ega bo'lgan shaxs erishishi mumkin. Yuqoridagi maqomni qo'lga kiritilgan maqom desak adashmagan bo'lamiz.

Maqom insonning jamiyatdagi xulq-atvorini muayyan vaziyatlarda o'zini shu maqomdagilar holatiga ko'ra belgilaydi. Atrofdagilar u shaxsdan nima kutishlari ham muhimdir. Shuning uchun inson maqomi bilan belgilanadigan xulq-atvor ijtimoiy rol deyiladi. Turli ijtimoiy rollarni o'zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning murakkablik jihati shundaki, jamiyatda faqat jamiyat tomonidan ma'qullanadigan maqomlar bo'lmasdan ijtimoiy norma va qadriyatlarga mos kelmaydigan maqomlar ham mavjud. Shuning uchun bola shakllanish va rivojlanish jarayonida ham ijobiy, ham salbiy rollarni o'zlashtirishi mumkin.

Pozitiv rollarga avvalo oila a'zosining rolini kiritsak bo'ladi. Oilada bola bunday rollarning bir nechtasini o'zlashtiradi: o'g'il yoki qiz, aka yoki opa, jiyan, nabira, shuningdek, bobokalonlari bilan ham tanishishi mumkin.

Bola o'z rivojlanishi davomida o'zlashtiradigan yana bir muhim roli bu jamoa a'zosi rolidir. Bolalar bog'chasi va maktabda, sport to'garagida tengqurlari bilan muomala qilganda, bola jamoa a'zosi, o'rtoq, do'st, o'quvchi, yetakchi kabi rollarni o'zlashtiradi. Har bir inson iste'molchi rolini bajaradi. Chunki u hayoti mobaynida zarur bo'lgan narsalarga doim ehtiyoj sezadi. Bular: ovqat, kiyim-kechak, kitob va boshqalar. Jamiyat insonga taqdim etgan xizmatlardan oqilona foydalana olishni bola yoshligidayoq o'zlashtirishi lozim.

Yana bir muhim ijtimoiy rol-o'z vatani fuqarosi bo'lish, uni sevish, u bilan faxrlanish, vatanparvar bo'lish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga bola o'zlashtirishi mumkin bo'lgan boshqa rollar ham bor. Masalan, mutaxassis roli. Uni bola maktab, litsey yoki boshlang'ich kasbiy bilim yurtlarida o'zlashtiradi. Salbiy rollarga daydi, tilanchi rollarini misol qilsak bo'ladi. Katta shahar ko'chalarida, magazin, bozor, jamoa transportlarida tilanchi bolalarni ham uchratishimiz mumkin. Ular bu rollarga ko'nikishgan. O'tgan-qaytganlardan mohirlik bilan pul undirib olishadi. Ular orasida o'g'irlik bilan shug'ullanadiganlari ham uchraydi. Ba'zi hollarda bo'lsa, ularni bu ishga kattalar undashadi.

Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o'zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko'nikishi tushuniladi.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muloqot va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo'lga kiritishi, muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishi sodir bo'ladi. Anglash sohasida o'z "Men"i obrazini shakllantirish, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rnini anglash ro'y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1.Oilada mahallaning tutgan o‘rni haqida fikringiz
- 2.Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov mahalla haqida qanday purma’noli fikr bildirgan?
- 3.Bolalarning ijtimoiy rollari qanday toifalarga ajratiladi?
- 4.Ijtimoiy moslashuv bolada qanday yo‘nalishlarda olib boriladi?
- 5.Inson jamiyatda bir vaqtning o‘zida qanday mavqelarni egallashi mumkin?



Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol metod: “Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning qo‘llanishi:

- talaba (yoki o‘quvchi)lar yakka tartibda o‘tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo‘yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;
- talaba (yoki o‘quvchi)lar tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o‘zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo‘lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);
- o‘qituvchi tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalarni o‘qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to‘g‘ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkoni bo‘lsa) tanishtiriladi;
- har bir talaba (yoki o‘quvchi) to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarni aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo‘ladilar, o‘z-o‘zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

| Tayanch tushunchalar | Tushunchalar mazmuni | Qo‘shimcha ma’lumotlar |
|-----------------------------|-----------------------------|-------------------------------|
| Etnos | (Talabalar avobi.....) | |
| Mentalitet | | |
| Kommunikativ | | |
| | | |

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq: Mavzuga oid glossariy tayyorlash

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1. Bolalik bu...

a) Faqat bolaga bo'ysunadigan vaqt davri, u nafaqat uning bilim faoliyatini kengaytiradi, balki atrof-muhit chegaralarini ham cheksiz kengaytiradi.

b) O'z qonunlariga binoan mavjud, uning o'ziga xos tili, g'oyalari, ko'rganlarini taqdim etish usuli mavjud.

c) Fan kategoriyalari shu fanda qo'llaniladigan yanada kattaroq, amaliy tushunchalardir.

d) Ma'lum davr uchun xos bo'lgan anatomik, fiziologik xususiyatlar.

2. Taqlid bu...

a) Biror-bir "namuna"ga o'xshash uchun harakat qilish. Bu holat insonning ijtimoiy tajriba to'plashining ixtiyoriy va asosan ixtiyorsiz yo'llaridan biridir.

b) Tilni o'zlashtirish va o'zaro munosabatga kirishganda kerak bo'ladigan ijtimoiy xulq-atvor normalariga anglamagan holda ega bo'lish.

c) Bu faqat bolaga bo'ysunadigan vaqt davri, u nafaqat uning bilim faoliyatini kengaytiradi. balki atrof-muhit chegaralarini ham cheksiz kengaytiradi.

d) Ma'lum davr uchun xos bo'lgan anatomik, fiziologik xususiyatlar.

3. O'yin bu...

a) Bola faolligining asosiy va o'ziga xos shaklidir. Bu o'sayotgan bola organizmining tabiat, atrof-muhit ob'ektlari haqida ma'lumot yig'ishga, kattalarga taqlid qilishga, faol harakat qilishga

ehtiyojidir. O‘yin bolaning muhit bilan o‘zaro aloqasi shakllanadigan faoliyat turidir.

b) O‘yin bola hayoti, madaniyati va faoliyatini tashkil qilish shakli sifatida bolaning yangi muhitga ko‘nikish shartidir.

c) Bu faqat bolaga bo‘ysunadigan vaqt davri, u nafaqat uning bilim faoliyatini kengaytiradi. balki atrof-muhit chegaralarini ham cheksiz kengaytiradi.

d) Biror-bir “namuna”ga o‘xshash uchun harakat qilish. Bu holat insonning ijtimoiy tajriba to‘plashining ixtiyoriy va asosan ixtiyorsiz yo‘llaridan biridir.

4.Engil adaptatsiya bu...

a) Bolaning yurish-turishi 10-15 kun ichida me‘yoriy holatga qaytadi. Bola MTMga qatnay boshlaganidan so‘ng bir oy o‘tgach, o‘zini me‘yorda tuta boshlaydi.

b) Bolaning yurish-turishi va o‘zini me‘yorda tuta boshlashi.

c) Biror-bir “namuna”ga o‘xshash uchun harakat qilish. Bu holat insonning ijtimoiy tajriba to‘plashining ixtiyoriy va asosan ixtiyorsiz yo‘llaridan biridir.

d) Bolaning yurish-turishi yoki emotsional holatidagi o‘zgarishlar 15-30 kun ichida me‘yoriy holatga qaytadi. Agar avval unda ozish kuzatilgan bo‘lsa, keyinchalik u o‘z vaznini tiklab oladi. MTMga qatnay boshlashidan bir oy mobaynida bir marotaba yengil kasallikka chalinadi va 7-10 kun MTMga kelmasligi mumkin.

5.O‘rta adaptatsiya – deganimiz nima?

a) Bolaning yurish-turishi 10-15 kun ichida me‘yoriy holatga qaytadi. Bola MTMga qatnay boshlaganidan so‘ng bir oy o‘tgach, o‘zini me‘yorda tuta boshlaydi.

b) Biror-bir “namuna”ga o‘xshash uchun harakat qilish. Bu holat insonning ijtimoiy tajriba to‘plashining ixtiyoriy va asosan ixtiyorsiz yo‘llaridan biridir.

c) Bu faqat bolaga bo‘ysunadigan vaqt davri, u nafaqat uning bilim faoliyatini kengaytiradi. balki atrof-muhit chegaralarini ham cheksiz kengaytiradi.

6.O‘yin kompetentsiyasi deganimiz nima?

a) Bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

b) Mavjudotning bir shakli va inson hayotining usuli, uning atrofidagi dunyoni va o'zini o'zgartirishga va o'zgartirishga qaratilgan faoliyati.

c) Tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

d) Muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

7. Ijtimoiy kompetensiya deganimiz nima?

a) Hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.

b) Tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

c) Mavjudotning bir shakli va inson hayotining usuli, uning atrofidagi dunyoni va o'zini o'zgartirishga va o'zgartirishga qaratilgan faoliyati.

d) Muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

8. Madaniyat so'zi qanday ma'noni bildiradi?

a) ("cultura" so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

b) Bolalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi

c) Aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

d) Madaniyat -maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

9. Ko'nikma deganimiz nima?

a) Olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

b) Shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

c) Ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

d) Didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

10.Mazmun deganda nimani tushunasiz?

a) (ta'lim (bilim olish) mazmuni)– ta'lim jarayonida bola tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

b) Muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

c) Didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

d) Shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

“TAMOYIL” VA “QOIDA” TUSHUNCHALARI. INSONPARVARLIK TAMOYILI. TABIATGA MOSLIK TAMOYILI. MADANIY MUVOFIQLIK TAMOYILI

Tayanch iboralar: *tamoyil, prinsip, mezon, insonparvarlik, tabiatga moslik, madaniy muvofiqlik, biologik, gumanistik, integratsiya, didaktika, chekinish*

Ijtimoiy pedagogikada tamoyillari va qoidalari

«Tamoyil» soʻzi lotincha «prinsipium» soʻzidan hosil boʻlgan «asos», «boshlanish» maʼnolarini bildiradi. Har qanday fan uchun ishlatilgan muayyan qoidalardan kelib chiqiladigan oʻz tamoyillari mavjud. Fanlarda tamoyil va qoidalar bizga bogʻliq boʻlmagan holda mavjud. Ulardan chetga chiqish mumkin emas, aks holda pedagogik faoliyat befoyda balki ham zararli boʻladi. Ijtimoiy pedagogika pedagogikadan ajralib chiqdi, tabiiyki oʻz asosida shu fan tamoyillariga tayanadi.

Pedagogikadagi tamoyillar shaxs taʼlim-tarbiyasining umumiy yoʻnalishini beradi va aniq pedagogik vazifalarni hal etish uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Biroq shu fan rivojlanishining har bir davri uchun pedagogika tamoyillari haqidagi masala munozaralidir. Zamonaviy davr ham bundan mustasno emas. Olimlar bu tamoyillarni olgʻa suradi va yangidan maʼlumlarini izohlaydi.

Biz ijtimoiy pedagogikaning 3 ta tamoyilini koʻrib chiqamiz: Insonparvarlik tamoyili. Tabiatga moslik tamoyili. Madaniy muvofiqlik tamoyili. Shu tamoyillardan har biri ijtimoiy pedagogikada oʻzining talqiniga va oʻziga xos xususiyatga ega.

Insonparvarlik tamoyili.

J.Piaje, K.Rodjers, V.Suxomlinskiy kabi olimlarning fikricha, insonning mohiyati faqatgina biologik va ijtimoiy jihatlardan iborat emas. U maʼnaviy munosabatlar bilan toʻla. Gumanistik tarbiyaning ideali ham tomonlama rivojlangan shaxsdir. Ijtimoiy pedagogning vazifasi faqatgina bolalarni sevish emas, ularga ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari, doʻstlari va atrofdagi insonlarni sevishni oʻrgatishdan iboratdir. Insonparvarlik gʻoyasi ijtimoiy pedagog

uchun juda muhim, ayniqsa, rivojlanishida cheklanishlar paydo bo'lgan bolalar uchun bu tamoyil muhim ahamiyatga ega.

Insonparvarlik tamoyiliga ko'ra:

- qanday sharoitda yashashidan qat'iy nazar jamiyatdagi barcha insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

- "Mening o'zim hal qilaman" pozitsiyasini tanlashga, o'z muammolarini o'zi hal etishga o'rgatish va yordam berish;

- Bolalarga yordam berishni ularga ayanch hissi bilan emas, balki ularning jamiyatga kirishishiga yordam berish asosida bildirish talab etiladi.

Tabiatga moslik tamoyili.

Tarbiyaning tabiyaga uyg'un bo'lishi- ijtimoiy pedagogika prinsipi, shunga ko'ra ijtimoiy pedagog o'z amaliy faoliyatida bolaning tabiiy holda rivojlanish omillariga tayanadi. Tarbiyaning tabiatgaga uyg'un bo'lish tamoyilini ilk bor mashhur donishmand, chexoslaviyalik gumanist-pedagog Yan Amos Komenskiy (1592-1670) o'zining «Buyuk didaktika» (1632) asarida ta'riflagan. Kamenskiy, inson tabiyatining bir qismi va u tabiyatning bir qismi sifatida uning eng asosiy, umumiy qonunlariga bo'ysunadi deb hisoblanadi. Komenskiyning fikricha, tabiatning bu qonunlari o'simliklar va hayvonlar olamida ham shuningdek, insonga nisbatan ham o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Komenskiy nafaqat tarbiyaning umumiy qonunlariga, bola shaxsi psixologiyasiga ham tayanadi. U bolalar o'spirinlar va yosh yigitlarning yoshiga oid tafsifiga tayangan holda o'z bolalar ta'lim-tarbiyasi tizimini ilgari suradi, asoslaydi va quradi. Komenskiydan ancha ilgari sharq uygonish davrining buyuk olimi va mutafakkiri Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'z asarlarida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi haqida gapirgan edi. Masalan «uy ro'zg'or tutish» haqidagi asarida Ibn Sino yozgan ediki, inson aqlli mavjudot, shuning uchun tabiatda alohida o'rin tutadi va uning qonunlariga ko'ra rivojlanadi. «Yolg'on xislatlarni qayta tarbiyalash» asarida esa Ibn Sino yozadiki, kimki axloqli insonni tarbiyalamoqchi bo'lsa unda u uni har tomonlama o'rganishi, insonning tabiati qoidalarini bilishi kerak. Natijada tarbiyaning tabiat bilan uyg'un bo'lishi tamoyili ko'pgina buyuk pedagoglar tomonidan o'z pedagogik va ijtimoiy pedagogik nazariyalari qurish asosi sifatida olingan edi. Masalan, Fransiya

faylasufi Jan Jak Russo bola tarbiyasi tabiat bilan uyg'un ravishda amalga oshirilishi kerak deb hisoblab, «bolalar katta bo'lishidan ilgari bola bo'lishi kerak». Shvetsar pedagogi Iogan Genrix Pestalotsi yetim va qarovsiz bolalar uchun muassasalar va bolalar uyini yaratgan, u hisoblaydiki, tarbiya maqsadi-inson tabiiy kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirishdir, bunda rivojlanish har tomonlama va uyg'un bo'lishi lozim. Nemis olimi va pedagogi Adolf Disterveg ham o'z ishlarida talim-tarbiya jarayonida yosh va individual xususiyatlarini etiborga olishi lozimligini ta'kidlaydi. Tarbiya bilan uyg'un bo'lishini rus klassik pedagoglari ishlarida ham o'z aksini topgan. K.D.Ushinskiy o'zining asosiy «inson tarbiya predmeti sifatida» degan psixologik pedagogik asarida yozgan ediki, bola tarbiyasi va ta'limi uchun tarbiya prinsiplari va qoidalarini bilish, tadbiq qila olishi lozim. Ushinskiy fiziologiya, gigiyena va psixologiya (diqqat, xotira, tasavvur, iroda) asoslarini o'rganish zaruriyatini asoslab berdi, uning asosi so'zlash qobiliyatini axloqiy estetik va diniy xislari, didaktikani o'rganishga o'tish mumkin.

Ijtimoiy pedagogikada tarbiyaning tabiat bilan uyg'un bo'lish tamoyiliga amal qilib, quyidagi qoidalarga tayanishi lozim:

- bolalarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish;
- bolalarning jinsiy o'zgaruvchanligini e'tiborga olish;
- me'yoridan chetga chiqish bilan bog'liq bo'lgan bolalarning individual xususiyatlarini e'tiborga olish;
- bola shaxsidagi ijobiy, kuchli tomonlariga tayanish;
- bola tashabbuskorligini va mustaqilligini rivojlantirish.

Madaniy muvofiqlik tamoyili.

Bu tamoyil tabiatga moslik tamoyilining davomidir. Uning zaruriyati inson tabiati bilan shartlangan. Inson biologik mavjudod sifatida tug'iladi, shaxs bo'lib esa bir avloddan ikkinchi avlodga shaxs tarbiyasi va rivojlanishi jarayonida o'tadigan o'zini tutish ijtimoiy tajribani o'zlashtirib yetishadi. Antik jamiyatdagi faylasuf va pedagoglar shaxs shakllanishi va madaniyat o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni tahlil qilganlar. Shu narsaga Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy ham o'z asarlarida to'xtalganlar. Bunda ikkita muhim tezis belgilandi: shaxs madaniyat orqali shakllanadi, har qanday madaniyat asosi, boyligi esa insondir. Madaniyat yuqori axloqiy insonni shakllantirishning

zaruriy va eng muhim omilidir. Madaniyat bilan uyg'un bo'lish tamoyili pedagogikada A.Disterveg (XIX asr) tomonidan ilgari surilgan. Uning fikricha bolani tarbiyalash jarayonida uning tug'ilgan joyi, shart-sharoiti, bir so'z bilan aytganda, uni o'rab turgan madaniy jihatlar e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Butun insoniyat har bir xalq va har bir avlod madaniyat rivojlanishining ma'lum bir pog'onasida turadi.

Agar bola o'z me'yorida rivojlangan bo'lsa, u o'sha jamiyat madaniyatini o'zlashtiradi, ya'ni jamiyat bilan integratsiyaga kirishadi. Shu bilan uning o'zi ham o'sha madaniyatning yaratuvchisiga aylanadi. Bu tamoyilga ko'ra bolalarning madaniyatini rivojlanishidagi chekinishlarni hisobga olish hamda ularning ijodkorligini oshirish talab etiladi.


Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. «Tamoyil» so'zi qanday so'zdan hosil bo'lgan?
2. Ijtimoiy pedagogikaning qanday tamoyillari mavjud?
3. «Bolalar katta bo'lishidan ilgari bola bo'lishi kerak»-degan fikr kimga tegishli?
4. Insonparvarlik tamoyiliga qanday talablar asosida tashkil etiladi?
5. Ijtimoiy pedagogikada tarbiyaning tabiat bilan uyg'un bo'lish tamoyili qanday qoidalarga tayanadi?

Mavzu yuzasidan interfaol metod:

“Klaster” metodi.

Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. G'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang



Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:
Mavzu yuzasidan taqdimot tayyorlash

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1. Ijtimoiyashuv deb nimaga aytiladi?

- a) Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy subyektga aylanishi
- b) Bolaning rivojlanishi
- c) Tashqi muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishi
- d) To'g'ri javob yo'q

2. Adaptatsiya nima?

- a) Organizimning tashqi muhit bilan adekvat aloqalarning shakllanishi xususiyati
- b) Insonni o'rab turgan va uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan sharoitlar
- c) Bolaning individual rivojlanishi
- d) Bolalarning shaxsiy rivojlanishi

3.Bolalar psixologiyasining asosiy metodlari qaysilar?

- a) Kuzatish, eksperimental, test, anketa
- b) Kuzatish, eksperimental
- c) Test anket, faoliyat
- d) Genetik metod, donalash metodi

4.Shaxsiy rivojlanishga ta'sir etadigan omillar qaysilar?

- a) Irsiyat va Muhit
- b) Ta'lim va tarbiya
- c) Atrof muhit
- d) Faoliyat

5.MTTda ijtimoiy pedagogik faoliyati qanday bosqichlardn iborat?

- a) Tashxis, amaliyot, tayyorlov
- b) Amaliyot, faoliyat, ta'lim
- c) Amaliyot, mashqlar
- d) Metodlar, tamiyillar

6.Shaxs rivojlanishining asosiy omillari qaysilar?

- a) Biologik va ijtimoiy omillar
- b) Irsiyat va tashqi muhit
- c) Biologik va tashqi muhit
- d) Irsiyat va ijtimoiy omillar

7.Tarbiya qanday turlarga bo'linadi?

- a) Oilaviy, diniy, itimoiy
- b) Ijtimoiy ,diniy
- c) Oilaviy, diniy, tarbiyaviy
- d) ta'limiy, tarbiyaviy

8.Kimning asarida tarbiyani insonparvarlashtirish zarurati haqidagi g'oyalar bor?

- a) Yan Amos Komenskiy.
- b) Jan Jak Russo.
- c) Adriana Gelvetsiy
- d) Robert Ouen

7.Faoliyat nazariyasining asoschisi kim?

- a) A.N.Leontyev.
- b) F.Obuxova
- c) L.S.Vigotskiy.
- d) D.B.Elkonin

8. Bolalar bog'chasi xozirda MTT birinchi marta qayerda va kim tomonidan tashkil etilgan?

- a) 1837 yili nemis pedagogi F.Fryobel tomonidan tashkil etilgan
- b) 1857 yili russ pedagogi Y.A.Komenskiy tomonidan tashkil etilgan
- c) 1837 yili nemis pedagogi Disterveg tomonidan tashkil etilgan
- d) 1867 yili rus pedagogi Lev Tolstoy tomonidan tashkil etilgan

9. "O'z o'zingni angla" degan shiorni ilgari surgan va shu bilan ong insonda barcha yovuzlikni yo'qotishi mumkinligini qaysi olim ta'kidlagan?

- a) Suqrot
- b) Demokrit
- c) Arastu
- d) Aflotun

10. Jamoa deganda nimani tushunasiz?

- e) Yagona maqsad atrofida birlashgan gurux
- f) Yangi fikrlarga ega bulgan gurux
- g) 4-5 kishidan iborat bulgan gurux

IJTIMOIIY-PEDAGOGIK KATEGORIYALAR. PEDAGOGIKA VA IJTIMOIIY PEDAGOGIKA KATEGORIYALARI: SHAXS, RIVOJLANISH, FAOLIYAT, IJTIMOIIYLASHUV, JAMIYAT. IJTIMOIIY PEDAGOGIK FAOLIYAT. IJTIMOIIY TA'LIM-TARBIYA VA IJTIMOIIY TARBIYA

Tayanch iboralar: *ijtimoiy-pedagogik kategoriya, shaxs, rivojlanish, faoliyat, ijtimoiylashuv, jamiyat. ijtimoiy pedagogik faoliyat, ijtimoiy ta'lim-tarbiya, ijtimoiy tarbiya.*

Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari.

Har bir fanning o'rganish predmetiga asoslangan bilimlar tizimini ajratib turadi. Fanning bilimlar tizimi uning tushuncha va kategoriyalarida o'z aksini topadi. Tushuncha — real olamni bilish jarayonida aks etish shakllaridan biri. Reallikning o'zgaruvchanligi va ko'p qirraliligi tufayli tushunchalar dinamik, rivojlanadigan tavsifga ega. Ular tarixiy holat va hayot sharoitlariga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Hammamizga ma'lumki, pedagogika fanining asosiy kategoriyalariga “ta'lim”, “tarbiya”, “ma'lumot” singari tushunchalar kiradi. Shu kategoriyalar asosida “shaxs”, “rivojlanish”, “faoliyat”, “jamiyat”, “ijtimoiylashuv” singari ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalar qo'llaniladi. So'nggi yillarda «pedagogik faoliyat» kategoriyasi ham keng qo'llanilmoqda. Ijtimoiy pedagogika fani pedagogikaning yo'nalishlaridan biri sifatida “Ijtimoiy pedagogik faoliyat”, “Ijtimoiy ta'lim” va “Ijtimoiy tarbiya” singari kategoriyalarga ega. Pedagogika va ijtimoiy pedagogika fani kategoriyalarining bir-biridan farqli jihati quyidagi jadvalda aks etgan.

Shaxs. «Shaxs» - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir. Shaxs – muayyan jamiyatning a'zosi. Shaxsning kamol topishida va uning xulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha ham bir xil bo'lavermaydi. Chunki uning xulqiga, munosabatlariga vaziyat ham ta'sir etadi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya muhim


ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o'sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalariga asoslanib kamol topadi. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi. Shaxs ma'lum ijimoiy tuzilgan mahsul. Uning mohiyatini ijimoiy munosabatlarning tashkil etadi. U yashayotgan jamiyatdagi konkret tarixiy sharoit belgilaydi. Shaxsning hayotiy faoliyatida sodir bo'ladigan ijtimoiy muhit unga ham ijobiy ham salbiy ko'rsatishi mumkin. Zero, odam ota-bobolar tajribasini o'rganadi, shaxs sifatida rivojlanib boradi, o'rgangan tajribalarni takomillashtiradi. Natijada ularni o'z faoliyatida qo'llaydilar. Ana shu yashayotgan sharoit va mehnat qilayotgan sharoit unga bo'layotgan tarbiyaviy ta'sir va faoliyat jarayonidagi aktivlik tufayli shaxsiy xususiyatlar vujudga keladi. Demak, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit va insoning o'zi o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga aktiv ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayotini o'z tabiatini o'zgartiradi.

Rivojlanish. Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish bo'yicha o'sishi, vazinning ortishi, sezgi a'zolarini mukammallashuvi, harakatlarni to'g'ri boshqara bilish bilan bog'liqdir.

Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlar va belgilarning shakllanishi, emotsional irodaviy, bilish jarayonida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning xulqida, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Faoliyat. Ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xir turlari shakllanadi.



Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydigan, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar. Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrofga ma'lum bir munosabatning shakllanida asos bo'lib xizmat kiladi. Masalan, kattalarning bolalar bilan bo'ladigan hissiy, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talabni vujudga keltiradi, dastlabki harakat va tasavvurlar, ta'surotlar shakllana boshlaydi. Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog'liq. Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan bo'ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan harakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni asta-sekin buyumlar olamiga olib kiradilar. Mana shu yo'l bilan bola buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatning o'ziga xos tomonlarini egallab boradi.

Ijtimoiylashuv. "Ijtimoiylashuv" so'zi dastlab siyosiy iqtisodiyotdan kelib chiqqan. U siyosiy iqtisodiyotda yer, ishlab chiqarish vositalarining umumlashuvi ma'nosini anglatgan. "Ijtimoiylashuv" atamasini birinchi bo'lib insonlarga nisbatan qo'llagan amerikalik sotsiolog F.G.Keddings hisoblanadi. U "Ijtimoiylashuv nazariyasi" (1987) kitobida hozirgiga yaqin ma'noda "ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir" degan fikrni bildiradi.

XX asr o'rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini butun umri mobaynida o'rganuvchi fanlararo bog'lanuvchi mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli konsepsiyalarining tahlili uni shartli ravishda ikki asosiy yondashuvga ajratish imkonini beradi:

1. Sub'ektiv-ob'ektiv. Unda insonga jamiyat ta'sirining passiv iste'molchisi sifatida qaraladi (E.Dyurkgeym, T.Parsons)

2. Sub'ektiv-sub'ektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o'rni, uning hayotiy holatlarga ta'sir etish qobiliyati nazarda tutiladi.

Jamiyat. Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning hozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko'proq mos keladi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o'zlashtirish jarayonidagi rivojlanish va o'zgarishi bilan aniqlanadi.

Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir ob'ektiv ehtiyoj - o'ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Shaxsning faqat o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi. Shunday qilib, bolaning ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bog'liq ikki yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish). Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv va individuallashuv jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni tashkil etadi. Inson(bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi sub'ekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. (J.Pia Je, R.Mertoj).

Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir.

Individuallashuv insonning hali yoshligidayoq paydo bo'ladigan ob'ektiv ehtiyojlari bilan bog'liq jamiyatdagi o'z-o'zini egallashidir. Bu ehtiyoj:

- a) o‘z qarashlariga ega bo‘lish;
- b) o‘ziga xosliklariga ega bo‘lish;
- v) unga tegishli bo‘lgan masalalarni hal qilish, uning o‘z darajasini aniqlab olishiga xalaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish xohishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy pedagogika-shaxsni ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o‘rganish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik faoliyatning samarali usullari, texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo‘llashga qaratilgan pedagogika sohasi.

Bundan tashqari, ijtimoiy pedagogikaga bola ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o‘rganadigan va mutaxassislarni ijtimoiy tarbiya va ta’lim usullari va texnologiyasi bilan ta’minlaydigan fan sifatida ta’rif bersa ham bo‘ladi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat

Pedagogik faoliyat – ta’lim va tarbiya orqali ijtimoiy madaniy tajribani berishga yo‘naltirilgan kasbiy faoliyat turidir. Bu faoliyat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari, dasturlari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat bolaga ijtimoiylashuvi jarayonida (bolaning jamiyatga “kirishi”) yordam ko‘rsatishga qaratilgan kasbiy faoliyat turidir. Bola bilan bo‘lishi mumkin turli xil ta’lim muassasalari, tashkilotlari, birlashmalari ijtimoiy pedagoglar bilan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat har doim manzilli, ya’ni aniq bir bolaga va ijtimoiylashuv, jamiyatga integratsiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

- Pedagogik va ijtimoiy pedagogik faoliyatning qiyosiy jadvali
- Kasbiy faoliyat turi
- Faoliyat maqsadi
- Faoliyat xususiyati
- Faoliyat ob’ekti
- Faoliyat amalga oshiriladigan faoliyat
- Pedagogik faoliyat
- Ijtimoiy madaniy tajribani olish

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom va rol, ijtimoiy xulq-atvorning me’yor va qoidalari haqida ko‘p bilimlarni o‘zlashtiradi. U shuningdek, uning jamiyatga ko‘nikishiga yordam beruvchi turli ko‘nikma va malakalarni ham

o'zlashtiradi. Bu jarayon ayniqsa bolalikda juda jadal amalga oshadi. Ma'lumki, bola besh yoshgacha uning keyingi hayotida o'z aksini topuvchi nihoyatda ko'p bilimlarni oladi.

Bolalar ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati shuki, bola jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yorlariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. U bularni faqat o'zlashtirib boradi. Shuning uchun bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ishlayotgan mutaxassislarning (psixolog, shifokor, pedagoglar, "agent"lar) ta'siri katta bo'lib, bolalarni hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o'zlashtirishlari, ularni hayotda qo'llashga intilishlari aynan ularga bog'liqdir. Buning ijtimoiy pedagogika bilan bog'liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta'lim muassasida ta'lim olish jarayonida ma'lumki bola avvalo akademik bilimlarni o'zlashtiradi. Biroq shu bilan bir paytda u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko'nikma va malakalarni qo'lga kiritadi. Bu bilim, ko'nikma va malakalar ijtimoiylashuv jarayonida bolaga maxsus yordam kerak bo'lganda juda zarur bo'ladi.

Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga yetkazish, unda ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni ijtimoiy ta'lim deyiladi.

Agar shaxsning jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individuallashuv jarayonlari o'rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi ro'y beradi. Shu bilan birga bu yerda shaxs va muhitning o'zaro ta'sir etishi ham sodir bo'ladi. Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o'rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon uch asosiy sohada amalga oshadi:

1. Faoliyat turlarning kengayishi, uning shakl va vositalarini qo'lga kiritish, erkin mo'ljal olish.

2. Muloqot doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish.

3. Shaxsiy "Men" obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o'z ijtimoiy mansubligi va o'rnini anglash, o'ziga baho berishni shakllantirish.

Ijtimoiylashuv vositalari. Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan universal vositalar orqali amalga oshiriladi, ularga: go'dakni emizish va g'amxo'rlik qilish

usullari, maishiy va gigiyenik yurish-turish qoidalari, insonni o‘rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma’naviy madaniyat unsurlari(alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi ko‘p sonli munosabatlari-muloqot, o‘yinlar, ma’naviy-amaliy faoliyati, sport bilan shug‘ullanishi kiradi.

Har bir jamiyat, davlat, ijtimoiy guruh ijobiy va salbiy, formal va noformal sanksiyalarni man etish, ruxsat berish, majburlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Bu choralar yordamida inson xulq-atvori shu jamiyatda qabul qilingan me’yoriy qadriyatlarga moslashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari: muloqot (otalar, tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (o‘yin, o‘qish, ijod, sport). Psixologik-pedagogik tadqiqotlar jarayonida turli yosh davrlariga turli faoliyat turlari mos kelishi aniqlangan.

Bolaning me’yorida rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri muloqot. Muloqot va faoliyatning yetakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari qo‘llaniladi:

- go‘daklik davri-bevosita hissiy-ruhiy;
- go‘daklikdan keyingi davr-predmetli faoliyat;
- maktabgacha davr-rolli o‘yinlar;
- ilk maktab davri-o‘quv faoliyati;
- o‘smirlik davri-kasb ta’limi faoliyati;
- o‘spirinlik davri-shaxsiy muloqot faoliyati.

Ijtimoiylashuv agentlari. Insonning voyaga yetishida, uning shakllanish jarayonida, u bevosita munosabatda bo‘lgan kishilar muhim o‘rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turli bo‘ladi. Bolalar va o‘smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, tengdoshlari, qo‘shnilar agent bo‘lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib, agentlar qatoriga turmush o‘rtog‘i, hamkasblari ham qo‘shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o‘rinlariga, inson uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga qarab agentlar ham farqlanadi: faol ta’sir etuvchi va faol ta’sir ko‘rsatmaydigan.

Ijtimoiylashuv mexanizmlari. Insonning ijtimoiylashuvi turli omillar, agentlar bilan hamkorlikda va bir qator mexanizmlar asosida amalga oshadi. Fransuz olimi Gabriel Tard amerikalik Uri Bronfenbrenner, rus olimlari V.S.Muxina va A.V.Petrovskiylarning tadqiqotlari ijtimoiylashuv mexanizmlariga turli yondoshuvlarni keltirib chiqaradi. Mavjud ma'lumotlarning umumlashtirilishi quyidagi mexanizmlarni alohida ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

1. I.P.Podlasiy tasnifi bo'yicha:

Bostirish mexanizmi, uning mazmuni muayyan g'oya, fikr, xohish, istaklarni ongdan chiqarib tashlashdan iborat. Bu mexanizmning tashqi va ichki turlari mavjud. Ichki mexanizm ham o'z o'rnida ixtiyoriy va g'ayri ixtiyoriyga bo'linadi. G'ayri ixtiyoriy mexanizm - unutishdir. Ixtiyoriy bostirish mexanizmi esa iroda kuchi bilan amalga oshiriladi. Tashqi bostirish mexanizmi tarbiyaning keng tarqalgan usulidir;

Ajratish mexanizmi. Bu mexanizm ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson o'zi uchun yomon taassurotlardan voz kechishi bilan bog'liq. Ajratish mexanizmi odatda nizolarni hal qilishda kuzatiladi

O'z-o'zini cheklash mexanizmi. Bu mexanizm ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi. Agar tarbiyalanuvchiga uning yutuqlari do'stlarinikidan ko'ra ahamiyatsizroq tuyulsa, uning o'z-o'ziga hurmati pasayadi, yomon o'qiy boshlaydi. Bu o'z "Men"ini cheklab qo'yish, qiyinchiliklar oldida ojiz qolishdir. Ba'zi hollarda o'z-o'zini cheklash mexanizmini qo'llashni oqlasa bo'ladi. Chunki bu holatda moslashuv sodir bo'lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli o'z-o'zini cheklash, o'z-o'ziga baho berishning pasayishiga olib keladi. Buning natijasida o'z salohiyatini bilmay turib tarbiyalanuvchi ilk muvaffaqiyatsizlikdan so'ng boshlagan ishini tashlab qo'yadi, oqimda suza boshlaydi;

Loyihalash mexanizmining mohiyatini o'z kamchiliklarini boshqalarga tegishli deb hisoblash tashkil qiladi. O'ziga, boshqalarga qarshi qaratilgan salbiy hissiyotlar bilan inson o'ziga bo'lgan hurmatni saqlab qoladi. Shubhali inson hammadan gumonsiraydi, xudbin hammani xudbin hisoblaydi;

Identifikatsiyalash ijtimoiylashuvning yana bir asosiy mexanizmidir. Identifikatsiya jarayonida tarbiyalanuvchi hayolan o'zini o'rtoqlari bilan qiyoslaydi. Identifikatsiya ob'ekti nafaqat real

insonlar, balki tasavvurlardagi insonlar ham bo‘lishi mumkin. Identifikatsiyaning to‘liq, qisman, ongli, ongsiz turlari mavjud.

Identifikatsiya mexanizimi **introeksiya** mexanizimi bilan juda bog‘liq. Bunda boshqalarning xislatlari o‘zgarmagan holda o‘zlashtirib olinadi. Garchi bu mexanizm xayolan amalga oshirilsa ham uning natijalarini anglab olish qiyin emas;

Empatiya mexanizmi, ya’ni boshqa odamning hissiy holatiga hamdard bo‘lish. Shaxsning muammo, qiyinchiliklarini yengishga yordam berish hissiyotga boy shaxslarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega;

Intellektuallashuv mexanizmida katta yoshdagi tarbiyalanuvchi abstrakt fikrlay boshlaydi va vaziyatdan chiqib ketish yo‘lini o‘zi uchun emas, go‘yoki boshqa odam uchun qidiriyotgandek tuyuladi. Bu mexanizm tarbiyalanuvchi hayotiy muhim muammolarga (kasallik, boshqa maktabga o‘tish, institutga kirish) duchor bo‘lganda namoyon bo‘ladi.

Harakatlarni bekor qilish mexanizmi fikr, xissiyot, harakatlarni susaytirish uchun qo‘llaniladi. Tarbiyalanuvchi kechirim so‘raganida, uning harakatlari kechirilishi va sof vijdon bilan harakat qila boshlashiga ishonadi. Ko‘p shaxslar shu tarzda komillikka erishishadi.

I.V.Mudrikning fikricha psixologik va ijtimoiy psixologik mexanizmlarga quyidagilarni kiritsa bo‘ladi:

Imprinting (xotirada saqlab qolish)-insonga ta’sir qiladigan hayotiy muhim ob’ektlarni eslab qolishi. Bu mexanizm odatda go‘daklik davrida ko‘p qo‘llaniladi. Biroq keyingi yosh davrlarida ham imprintingni kuzatishimiz mumkin.

Eksiztensial bosim mexanizmi – tilni o‘zlashtirish va o‘zaro munosabatga kirishganda kerak bo‘ladigan ijtimoiy xulq-atvor normalariga anglamagan holda ega bo‘lish.

Taqlid – biror-bir “namuna”ga o‘xshash uchun harakat qilish. Bu holat insonning ijtimoiy tajriba to‘plashining ixtiyoriy va asosan ixtiyorsiz yo‘llaridan biridir.

Refleksiya mexanizmi – ichki suhbat. Unda inson jamiyatning turli institutlari, oila, tengdoshlar jamoasi, obro‘-e’tiborli shaxslarga xos xususiyatlarga baho beradi, ularni ko‘rib chiqadi yoki inkor etadi. Refleksiya insonning turli “men” obrazlari orasidagi real va

xayoliy shaxslarning ichki suhbatidir. Bu mexanizm yordamida insonning shakllanishi ro‘y beradi.

Bundan tashqari ijtimoiylashuvning ijtimoiy pedagogik mexanizmlariga quyidagilarni ham kiritsa bo‘ladi:

➤ **An’anaviy mexanizmi** inson tomonidan oila, atrof-muhit, qo‘shnilar, o‘rtoqlariga xos norma, qarash stereotiplarini o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi. Bu o‘zlashtirish ongsiz holatda amalga oshib, taassurotlar yordamida sodir bo‘ladi.

➤ **Institutsional mexanizm** insonning jamiyat institutlari va turli tashkilotlari bilan o‘zaro munosabati jarayonida kuzatiladi. Bu jarayonda inson turli bilim va tajribalarni to‘plashi mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Shaxs deganda kimni tushunasiz?
2. Rivojlanish deganda nimani tushunasiz?
3. Psixologik va ijtimoiy psixologik mexanizmlarga nimalarni kiritsa bo‘ladi?
4. Pedagogik faoliyat qanday faoliyat turi hisoblanadi?
5. O‘z-o‘zini cheklash mexanizmi deganda nimani tushunasiz?

Mavzu yuzasidan interfaol metod

“Bilaman, Bilishni xoxlayman, Bilib oldim” metodi (B.B.B)

1. O‘quvchi talabalarning o‘rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo‘yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.

2. O‘quvchi talabalarning mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganiladi

3. O‘quvchi-talabalar mavzuga oid ma’lumotlar bilan batafsil tanishtiriladi.

| Bilaman | Bilishni xoxlayman | Bilib oldim |
|----------------|---------------------------|--------------------|
| | | |
| | | |
| | | |

Mustaqil ta’lim uchun topshiriq:

Mavzu yuzasidan internet ma’lumotlarini yig‘ish.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1. Bolalar jamoasi deganda nimani tushunasiz?

- a) Muayyan umumiy maqsadi va faoliyati turiga ko'ra birlashgan bolalar guruhi
- b) Ta'lim va tarbiyaning muayyan maqsadi
- c) Faoliyat jarayonida bolalarning ishtiroki
- d) Xalq ta'limi tizimining dastlabki bo'g'ini

2. Bilish deganda nimani tushunasiz?

- a) Ta'lim jarayonida bolalarga taqdim etilgan o'quv materialining o'zlashtirilganlik darajasi.
- b) Borliq va uning ob'ektiv qonuniyatlarini o'rganish, o'zlashtirish, egallash.
- c) Ta'lim jarayonida tarbiyachi tomonidan olib boriladigan faoliyat
- d) Ta'lim oluvchilar bilim, ko'nikma va malakalarning shartli ifodalanishi

3. MTTda ijtimoiy faoliyat necha bosqichda olib boriladi?

- a) 3 ta
- b) 4 ta
- c) 2 ta
- d) 5 ta

4. O'zbekistonda ommaviy maktabgacha tarbiyaning yuzaga kelishi o'tgan asrning nechinchii yillariga to'g'ri keladi.

- a) 1910-1920 yillar
- b) 1917-1920 yillar
- c) 1917- 1990 yillar
- d) 1917-1990 yillar

5. Kompetentsiya bu ...

- a) Bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvafaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

b) Shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari;

c) Muayyan ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan fanlar yo'nalishi;

d) O'zlashtirilgan bilim, malaka, ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan kopetentsiyalar;

6.Maktabgacha yosh davri necha yoshlarni o'z ichiga oladi?

a) 3-7 yosh

b) 2-3yosh

c) 4-6yosh

d) 3-6yosh

7.Necha yoshli bolalarda shartli reflekslar hosil bo'la boshlaydi?

a) 3 oylik

b) 4 oylik

c) 2 oylik

d) Tu'gilgandan boshlab

8.L.S.Vigotskiy fikricha psixik taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bu...

a) Ta'lim

b) Tarbiya

c) O'yin

d) Mehnat

9.Shaxs tu'gilganidan boshlab rivojlanadigan muhit nima deyiladi?

a) Sotsium

b) Mikrosotsium

c) Individ

d) Oila

10.A.N Leontyev fikricha shaxs necha marta tug'iladi?

a) 2

b) 1

c) Albatta bir marta

d) To'g'ri javob yo'q

ILMIY TADQIQOT METODLARI: EMPIRIK VA NAZARIY. ILMIY TADQIQOT METODLARI TAVSIFI. IJTIMOY PEDAGOGIKADA ILMIY TADQIQOTNING VAZIFALARI.

Tayanch iboralar: Tarbiya jarayoni, ilmiy-pedagogik tadqiqot, metod, mutaxassislik, pedagogik kuzatish, suhbat, test, so‘rovnomalar, hujjatlarni tahlil qilish, eksperiment, statistika ma’lumotlar, sotsiologik tadqiqotlar.

Ilmiy tadqiqot metodlari. Metod (lotincha-metodos-yo‘l so‘zidan) tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida “metod” so‘zi keng ma’noda muayyan maqsadga erishish yo‘lini, tor ma’noda - tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari va qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi.

Pedagogika fani o‘z mazmun mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan o‘rganadi. Ushbu ilmning ilmiy tadqiqot usullari deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimni qilish va o‘qitishning real jarayonlariga xos bo‘lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo‘llari, uslublari va vositalari majmui tushuniladi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to‘g‘ri tanlansa, ta’lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi: Ammo shuni ta’kidlamoq lozimki, ilmiy tadqiqot metodlari tizimi hali hozirgacha fanda to‘la yaratilgan, hal etilgan emas.

Ilmiy tadqiqot metodlari tavsifi. Mavjud va ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy-tadqiqot usullariga tayanib fikr yuritish mumkin.

1. Pedagogik kuzatish usuli.
2. Suhbat usuli.
3. Bolalar ijodini o‘rganish usuli.
4. So‘rovnoma, test usuli.
5. Maktab hujjatlarini tahlil qilish usuli.
6. Eksperiment, tajriba, sinov usuli.
7. Statistika ma’lumotlarni tahlil qilish usuli.
8. Matematika-kibernetika usuli.

Pedagogik kuzatish – odatda tabiiy kuzatish orqali o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o‘zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta’limiy-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini belgilash uchun qo‘llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko‘zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob’ekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

Qayd qilish usuliga qarab kuzatish turlarga bo‘linadi. Bevosita va bilvosita qayd qilish usuli tadqiqotchiga real pedagogik jarayon kuzatuvchilarning xatti-harakatlari va hokazolarni yozib qo‘yish imkonini beradi. Bevosita qayd qilish usuli biror-bir hodisaning oqibatlarini haqidagi faktik materialni boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo‘llash vositasida olishga imkon beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning vizual usullari xilma-xil texnika vositalari (kino foto syomka, video zapis, televidenie va h.z.)ni qo‘llash bilan tobora ko‘p qo‘llanilmoqda.

Suhbat metodi – so‘rashning bir turi bo‘lgani holda, tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko‘rishini talab etadi, Chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo‘lish vaqtida og‘zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo‘llaniladi. Suhbat metodi– maktab o‘qituvchilari va o‘quvchilar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo‘llaniladi. Suhbat metodidan farq qilib, intervyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo‘li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnet tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so‘rash nazariyasi va praktikasida intervyu tashkil etishning ko‘p usullari mavjud: -guruhlar bilan; -intensiv; -sinash va h.k.

Bolalar ijodini o‘rganish – o‘quvchilarning o‘ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, xulosalar yasaladi.

Pedagogik so‘rash metodi – tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalarini haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So‘rash

savollarning mantiqiy o‘ylangan sistemasini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat’iy formadagi javobni (“ha”, “yo‘q”) ham taqozo etishi mumkin. Test, so‘rovnoma - bu so‘rovnoma, ya’ni anketa usuli qo‘llanganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o‘quvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o‘tkaziladi. Test savollaridan ko‘zlangan maqsad oz vaqt ichida o‘quvchilarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.

Mutaxassislarning bilimini va saviyasini aniqlash uslublaridan biri – bu test yordamidagi sinovdir. Test yordamida sinov o‘quvchi yoki mutaxassisning bilimi, ilmi, ma’naviyati hamda yoshlarning qaysi yo‘nalish va mutaxassislikka layoqati, iqtidorini zudlik bilan aniqlash yoki baholashga imkon beradi. Test yordamida bilimni baholashning pedagogika nuqtai nazaridan ba’zi bir yutuqlari va kamchiliklarida keltirilgan va baholash jarayonini EHM yordamida avtomatlashtirish mumkinligi ta’kidlangan. Test savollari va masalalarining jozibadorligiga sabab, uning qisqa va lo‘ndaligi, to‘g‘ri javobni umumiy javoblar ichida borligi va ularning o‘quvchilarga ko‘rsatma bo‘lib xizmat qilishi, uning topishmoqli o‘yinga o‘xshashligi va javobni topishda xotira, intuitsiya va topqirliklar qo‘l keladi. Test savollarini chop etish o‘quvchilarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

Test sinovini oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga kirish imtihonlarida qo‘llash quyidagi qator natijalar berdi.

Imtihon oluvchi bilan imtihon topshiruvchi orasidagi sub’ektiv sabablar va psixologik to‘siqlar yo‘qoladi. Barcha abituriyentlarga beriladigan imtihon sharoitlari vaqti variantlarning murakkablik darajasi, baholash kriteriyalari deyarli bir xil bo‘lishiga erishiladi. Test natijalarini EHM yordamida avtomatlashtirilgan holda ishlab chiqish amalga oshirildi, o‘quvchilarning qaysi fandan va uning qaysi bo‘limidan bilimlarining past yoki yuqoriligini baholash va uning respublikamiz regionlari, xatto ayrim maktab-litseylar bo‘yicha tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Iqtidorli yoshlarni tanlash, olimpiadalar o‘tkazish jarayonlarini sezilarli darajada yaxshilashga olib keldi.

Test sinovlar metodi - bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig'ib olish metodidir. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda test savollarining ma'lumotlarini kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish usuli - bunda o'quvchilarning umumiy miqdori, uning o'sishi yoki kamayish sabablari tavsifi, o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasiga, sinfdan qolishning oldini olish, rag'batlantirish va jazolash choralari turlariga, maktabning moddiy bazasiga e'tibor beriladi. eksperiment-tajriba-sinov usuli - ushbu tajriba asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarining tadbiqu jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usuli - xalq ta'limi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, maktab qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar statistika usuli orqali aniqlanadi. Sotsiologik tadqiqot metodi – Anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad talaba-yoshlarning kasb-hunarga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, talabalar orasidagi do'stlik munosabatlarini O'zMU dagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, yoshlar orasidagi munosabatlarni, dinga, xususan tasavvufga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, talabalarning ma'naviy sifatlar darajasini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti, professor-o'qituvchilarning o'qitish darajasi, o'quv qo'llanmalarning sifati, kompyuter bilan mashg'ulot o'tkazish turlarini o'rganish universitetda qo'llanilayotgan testlar talabalar nazarida, ilmiy va kasbiy mahoratini oshirishdagi mashg'ulotlar turi, stipendiyalar miqdori, stipendiyalar talabalarning harajatini qanchalik qoplaydi, haq to'lanadigan ishlarda talabalar qatnashdimi, ota-onalarining moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, talabalarning ko'p shug'ullanadigan jamoat joyi, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar, mutaxassis bo'libetishida hal qiluvchi omillar, talabalarning onglilik darajasi jarayoni, komil

inson bo‘lish uchun kerakli bo‘lgan ma’naviy sifatlar, komillikka erishish uchun tezroq qutulish kerak bo‘lgan salbiy sifatlar. Savol-javoblarning barchasi kompyuterda qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi.

Ijtimoiy pedagogikada ilmiy tadqiqotning vazifalari. Ijtimoiy pedagogika o‘zining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda quyidagi tadqiqot metodlaridan keng ko‘lamda foydalanadi:

- umumantiquiy metodlar (analiz, sintez, umumlashtirish, qiyoslash, modellashtirish, loyihalash);
- umumpedagogik metodlar (kuzatish, suxbat; tajriba; manbalarni o‘rganish; qayta ishlash, umumlashtirish);
- xususiy pedagogik - psixologik metodlar (individual va guruhliy o‘rganish, xurmatlash, tushuntirish, ijobiy fazilatlarga tayanish, ijtimoiy fikrlarni hisobga olish, tashxislash ekspert xulosalarini hisobga olish);
- tarixiy metodlar tarixiy qiyoslash, genetika, strukturaviy (alohida belgilar, shartli guruhlar) tarixiy manbalarni o‘rganish;
- sotsiologik metodlar (anketa, so‘rovnoma, intervyu olish, sotsiometrik, biografik, monitoring, test topshiriqlari, modellashtirish);
- matematik – statistik (taxlil, natijalarni qayd etish, tekshirish).

Olib borilgan tadqiqotlar jarayonida ijtimoiy — pedagogik faoliyatni asosiy umumiy va o‘ziga xos texnologiyasi aniqlanadi va tahlil etiladi. Umumiy texnologiya ichida — ijtimoiy pedagogik tashxis, baholovchi, prognoz qilish, modellashtirish, yaxlitlash dasturlari mavjud. Ushbu dasturlarda qayta aloqa va ijtimoiy — pedagogik faoliyatning bilish va qayta o‘zgartiruvchi axborotlar bilan ta‘minlash texnologiyalari o‘z ifodasini topishi zarur. Bular birgalikda ijtimoiy pedagogik faoliyatni texnologik jarayonining zanjirli siklini tashkil etadi. Unga xususiy (o‘ziga xos); ijtimoiy — pedagogik adaptatsiya va reabilitatsiya, profilaktika va kompensatsiya, ta‘minlash va mobilizatsiya, korreksiya va stabillashtirish, targ‘ibot — tashviqot texnologiyalarini hal etish kiradi. Ijtimoiy pedagogikani rivojlanishini o‘ziga xos xususiyatlari ishlab chiqilgan, sinab ko‘rilgan va amaliy faoliyatda qo‘llanilgan innovatsion ijtimoiy pedagogik modellar, aholini turli guruhlar bilan ishlarini tashkil etish hisoblanadi. Amaliy ishlar tajribalarini

umumlashtirish va oddiy manbalarni shu jumladan pedagogika tarixi bo'yicha manbalarni umumlashtirish uchta asosiy strategiya yo'nalishini asoslash imkonini berdi va shunga muvofiq o'z prinsiplari asosida maqsadlarga erishish va vazifalarni hal etishni ta'minlovchi ijtimoiy pedagogikani rolini ko'rsatib berdi.

Birinchi strategiya — insonni sotsiumga kiritish, ya'ni uni ijtimoiylashtirish, ijtimoiy tarbiyani shakllantirish, rivojlantirish.

Ikkinchi strategiya — sotsiumni pedagoglashtirish (uning pedagogik imkoniyatlarini to'laligicha foydalanish, samaradorligini oshirish).

Uchinchi strategiya ijtimoiy — pedagogik faoliyat maqsadiga ko'ra optimallashtirish prinsiplari asosida inson va sotsium o'zaro ta'sirini boshqarish. Shunga ko'ra birinchi strategiya bilan u shaxsni ijtimoiy rivojlantirish; ikkinchi strategiyaga muvofiq ijtimoiy muhit pedagogikasi sifatida; nihoyat uchinchisiga muvofiq ijtimoiy ish pedagogikasi sifatida ishtirok etadi.

Tadqiqotchi I.V.Mudrikning fikricha psixologik va ijtimoiy psixologik mexanizmlarga quyidagilarni kiritsa bo'ladi:

- imprinting (xotirada saqlab qolish) insonga ta'sir qiladigan hayotiy muhim ob'ektlarni eslab qolishi. Bu mexanizm odatda go'daklik davrida ko'p qo'llaniladi.

- eksiztensial bosim mexanizmi-tilni o'zlashtirish va munosabatga kirishganda kerak bo'ladigan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlariga anglamagan holda ega bo'lish.

- taqlid-biror bir namunaga o'xshashga harakat qilish. Bu holat insonning ijtimoiy tajriba to'plashining yo'llaridan biridir.

- refleksiya mexanizmi-ichki suhbat. Unda inson jamiyatning turli institutlari, oila, tengdoshlar jamoasi, obro' e'tiborli shaxslarga xos xususiyatlarga baho beradi, ularni ko'rib chiqadi yoki inkor etadi. Refleksiya insonning turli "men" obrazlari orasidagi real va hayoliy shaxslarning ichki suhbatidir. Bu mexanizm yordamida insonning shakllanishi ro'y beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Metod so'ziga ta'rif bering.
2. Ilmiy tadqiqot metodlari tasnifnomasini aytib bering.

3. Ilmiy tadqiqot metodlarining qaysilaridan kelajakdagi faoliyatingizda foydalanish mumkin va qanday?

4. Ijtimoiy pedagogika o'zining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda qanday tadqiqot metodlaridan keng ko'lamda foydalanadi?

5. Tadqiqotchi I.V. Mudrik psixologik va ijtimoiy psixologik mexanizmlariga nimalarni kiritgan?

Mavzu yuzasidan interfaol metod “PLUS VA MINUS” METODI



Metodning tavsifi: dars yakunida o'qituvchi o'quvchilarga mavzuga oid biror masalani ular o'rtasiga tashlaydi. 1-guruh uning minus tomonini, 2-guruh uning plus tomonini ularga taqdim etilgan posterlarga yozadilar. Ularga yozish uchun 5 daqiqadan 10 daqiqagacha vaqt ajratiladi. Vaqt tugagandan so'ng har bitta guruhdan bittadan o'quvchi chiqib yozganalarini o'qib beradilar. yakunida qaysi guruhning javoblari aniq tiniq bo'lsa o'sha guruhga rag'bat kartochkalari beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:
Yangicha interfaol metodlar yaratish.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1. Ilk bolalik davrida bolalarning yetakchi faoliyati bu.....

a) Predmetni o'rganish

- b) Mehnat
- c) O‘yin
- d) Mashq

2.Nechchi oylik bolalarda emotsional munosabat shakillanadi?

- a) 3 oylik
- b) 2 oylik
- c) 1 oylik
- d) Tug‘ilgandan boshlanadi

3.Faoliyat nazariyasining asoschisi kim?

- a) A.N Leontyev
- b) D.B.Elkonin
- c) F.Obuxova
- d) L.S.Vigotiskiy.

4.Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari nimalardan iborat?

- a) “Ijtimoiy pedagogik faoliyat”, “Ijtimoiy ta’lim”, “Ijtimoiy tarbiya”
- b) “Ijtimoiy ta’lim” va “Ijtimoiy tarbiya”
- c) “Ijtimoiy pedagogik faoliyat” va “Ijtimoiy ta’lim”
- d) “Ijtimoiy pedagogik faoliyat” va “Ijtimoiy tarbiya”

5.Mamlakatimizda nechanchi yil “Oila yili” deb nomlangan?

- a) 2000-yil
- b) 1998-yil
- c) 1999-yil
- d) 1997-yil

6.Ijtimoiy maktabgacha ta’lim bu –

- a) Davlat tomonidan tashkil etiladigan tashkilot
- b) Xususiy tashkil etilgan tashkilot
- c) Nodavlat talimga qarashli tashkilot
- d) Tarbiya maskani

7.Tarbiyachining nutq madaniyatida qanday xususiyatlar bo‘lishi kerak?

- a) Nutqning ifodaligi va sofligi
- b) Nutqning aniqligi va to‘g‘riligi
- c) Nutqning ravon va boyligi

d) Tovush to‘lqinining to‘g‘riligi

8.«Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari» kitobining mullifi?

a) J.Hasanboyev, M.To‘ropova, O.Hasanboyeva.

b) O.Hasanboyev, O.Hasanboyeva

c) R.Mavlanova, M.Inomova .

d) K.Hoshimov, H.Homidiy

9.«Men bolalarning jamoaviy ijodiy faoliyatining tashkilotchisi va qatnashchisi sifatida ularning o‘z-o‘zini boshqarishiga, jiplashishiga yordam berishim kerak» –bu tarbiyachining...

a) Ish yuritish yo‘nalishi

b) Vazifasi

c) Maqsadi

d) Burchi

10.«O‘z farzandingizni yaxshi bilasizmi?» metodi kimlar uchun yaratilgan?

a) Ota-onalar

b) Tarbiyachilar

c) O‘qituvchilar

d) O‘quvchilar

ILMIY TADQIQOT BOSQICHLARI. ILMIY TADQIQOT YAKUNLARI

Tayanch iboralar: Ilmiy yo‘nalish, muammo, ilmiy mavzu, ilmiy tadqiqot, kompleks muammo, iqtisodiy samaradorlik, ilmiy yangilik, ilmiy-texnikaviy axborot, adabiyot taxlili, axborot oqimi, fundamental, amaliy, ishlanma.

O‘zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishlarning zamonaviy yo‘nalishlari. Respublika olimlari zamonaviy fanning ko‘pgina yo‘nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borishmoqda. Mamlakatimizda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha jahon darajasidagi ilmiy maktablar yaratilgan bo‘lib, ularda tadqiqotlar muvaffaqiyatli olib borilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot ishlarining tarkibiy qismlari. Ilmiy izlanish bu ob‘ektiv borliqni, tabiat qonunlarini, hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni bilish jarayonidir. Bilim - inson tafakkurining murakkab harakatidir. Bu harakat bilmaslikdan bilishga, to‘liqsiz yoki noaniqlikdan to‘liqlik va aniqlikka qarab yo‘naladi. Bunga ilmiy izlanishlar yordamida erishiladi. Ilmiy izlanishlar bir qator bosqichlardan o‘tadi. Bu bosqichlar ilmiy izlanishlar strukturasi tashkil etadi. Strukturani 7 ta asosiy bosqichdan iborat deb olish mumkin.

1. Muammoni qo‘yish. Bu bosqich faqatgina muammoni topishdan iboratgina bo‘lib qolmay, balki aniq va puxta ko‘rinishga keltirilgan ilmiy izlanish topshirig‘iga ham ega bo‘ladi. Oldinga qo‘yiladigan ilmiy izlanishlar topshirig‘ini juda puxta belgilab olish shart, chunki izlanishlar natijalari sezilarli darajada shunga bog‘liq. Muammoni qo‘yishda juda muhim bo‘lgan ishlardan biri bu boshlang‘ich ma‘lumotlarni yig‘ish va o‘rganib chiqishdir.

Bunday ma‘lumotlarni yig‘ish ilmiy izlanishlarning boshlanishidagina bajarilib qolmay, balki butun izlanishlar davomida olib borilishi kerak.

2. Boshlang‘ich ilmiy faraz (gipotez) ni o‘rtaga tashlash va asoslash

Ko‘p hollarda ishchi gipotezani ishlab chiqish izlanishning puxta formulirovkalangan topshirig‘i va to‘plangan axborotlarning

tahlili asosida bajariladi. Bunda ishchi gipoteza bir necha variantlarga ega bo'lishi mumkin. Ushbu variantlardan ko'proq maqsadga muvofiq keladiganini tanlab olinadi. Ammo qolganlari ham nazardan chetda qolmasliklari kerak. Ishchi gipotezani aniqlab olish ba'zan eksperimentlar o'tkazib ko'rishga to'g'ri keladi. Bu esa o'rganilayotgan ob'ektni ancha chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

3. Nazariy izlanishlar.

Nazariy izlanishlarning maqsadi kuzatilayotgan voqea hodisalarni to'laroq umumlashtirish, ular orasidagi bog'liqliklarni o'rganish, ishchi gipotezadan iloji boricha ko'proq kuzatishlar olishdir. Boshqacha qilib aytganda, nazariy izlanish qabul qilingan gipotezani analitik rivojlantiradi va o'rganilayotgan muammo nazariyasini ishlab chiqishga olib keladi. Bu nazariya o'rganilayotgan muammoga tegishli fakt va xollarni tushuntirib oldindan aytib berishi kerak. Bu yerda hal qiluvchi faktor sifatida amaliyot kriteriyasi keladi.

4. Tajribaviy (eksperimental) izlanishlar

Eksperimental izlanishlar ilmiy izlanishlarning murakkab va mehnat talab qiladigan bosqichidir. Eksperimentning maqsadi har xil. U ilmiy ish xarakteri va o'tkazilish ketma-ketligiga bog'liq. "Normal" izlanishlar olib borilishida eksperiment nazariy izlanishlardan keyin o'tkaziladi. Bunday hollarda, ba'zan, eksperiment nazariya natijalarini tasdiqlaydi, ba'zan esa nazariy natijalarni rad etadi. Biroq ilmiy tekshirish tartibi teskari bo'lishi mumkin: oldin eksperiment, keyin nazariyalar. Bunday tartibga ko'proq nazariy ma'lumotlarning ozligi sababli yo'l qo'yiladi. Nazariya eksperiment natijalarini tushuntiradi va umumlashtiradi.

5. Natijalarni solishtirib ko'rish va tahlil qilish. Natijalarni solishtirib ko'rish va tahlil qilishda nazariya va eksperiment natijalar bir-birini tasdiqlashi, tanlangan gipoteza va o'rganish formulirovkasini to'g'ri ekanligini isbotlaydi. Ba'zan gipoteza ko'rinishini o'zgartirish kerakligi aniq bo'lib qoladi. Juda kam hollarda yomon natijalarga erishilib gipotezani rad etish xollari ham uchrab turadi.

Ilmiy tadqiqot yakunlari. Xulosalar bosqichida ilmiy izlanishlar xulosasi chiqariladi. Olingan natijalar va ularning

berilgan topshiriqqa muvofiqligi formulirovkalanadi. Faqat nazariy izlanishlar uchun bu bosqich oxirgi bosqich hisoblanadi.

Natijalarni o‘zlashtirish. Natijalarni o‘zlashtirish bosqichi olingan natijalarni sanoatda realizatsiya qilishga tayyorlanadi. Bu bosqichda realizatsiya qilishning texnologik va konstruktorlik prinsiplari ishlab chiqiladi.

Ilmiy izlanishning ko‘rib chiqilgan strukturasi ba‘zan bosqichlar o‘rni almashib qolishi mumkin, lekin aytib o‘tilgan bosqichlar hamma ishlarda bajariladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. “Ilmiy muammo”, “Ilmiy yo‘nalish”, “Ilmiy mavzu” tushunchalarini izohlang.

2. Ilmiy izlanishlar strukturasi 7 ta asosiy bosqichlarini izohlang

3. Ilmiy izlanish bilan axborot izlash orasidagi farq nimadan iborat ?

4. Ilmiy mavzuga qo‘yiladigan talablarni keltiring.


5. Ilmiy axborot manbai bo‘lib qanday hujjatlar hisoblanadi ?

Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol metod:

“Baliq skeleti” metodi

Metodning tavsifi: Muammoni qo‘yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammoni ta’riflash va yechib ko‘rishga imkon beradi.

Bir varoq oq qog‘ozga baliq skeleti chiziladi. Yuqoridagi suyagiga muammo yoziladi, pastdagilariga esa muammoni hal qilish yo‘llari yoziladi.



Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:
“Ilmiy muammo, ilmiy yo‘nalish va ilmiy mavzu”- yuzasidan
munozarali savollar tayyorlash.
Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1. Shaxsning yo‘naltirilganligi tushunchasi fanga ilk bora kim tomonidan fanga kiritilgan?

- a) S.L.Rubinshteyn
- b) A.S.Makarenko
- c) A.Avloniy
- d) X.X.Niyoziy

2.«Bolalarning ijtimoiy moslashuvi» fanini o‘qitishning maqsadi nimadan iborat?

a) Bo‘lajak tarbiyachilarni mustaqil davlat O‘zbekiston Respublikasining yangi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda kichik maktab yoshidagi bolalarni muvaffaqiyatli tarbiyalashga tayyorlash

- b) Tarbiyalash metodlarini o‘rganish
- c) Tarbiyaviy ishlarning shakllarini to‘g‘ri tashkil etish
- d) Tarbiya qonuniyatlari bilan tarbiya shakllarini bilish.

3. Bola shaxsiga hurmat va talabchanlik bu...

a) Ijodkor pedagog-tarbiyachi o‘z faoliyati jarayonida amal qiladigan tamoyil

b) Ijodkor pedagog-tarbiyachi o‘z faoliyati jarayonida qo‘llanadigan vosita

c) Ijodkor pedagog -tarbiyachi o‘z faoliyati jarayonida qo‘llaniladigan metod

d) Ijodkor pedagog -tarbiyachi o‘z faoliyati jarayonida amal qiladigan omil

4. Bolaga boshqarish obekti sifatida qaralib, oldindan belgilangan qat’iy ijtimoiy me’yorlarga bo‘ysunish talab etiladi?

Buyirish, kuzatish, qo‘rqitish, man etish qaysi tarbiya stiliga xos?

- a) Avtoritar
- b) Stixiyali
- c) Gumanistik
- d) Demokratik

5. Bolalar haqida demografik ma‘lumot yig‘ish metodi o‘quvchilarni pedagogik o‘rganishning qaysi yo‘nalishiga tegishli?

- a) Bolani umumiy o‘rganish
- b) Bolaning sog‘ligini o‘rganish
- c) Bolaning shaxsini o‘rganish
- d) Shaxsning jamoadagi o‘rnini o‘rganish

6. Jamoa deganimiz nima?

- a) Yagona maqsad atrofida birlashgan gurux
- b) Yangi fikrlarga ega bulgan gurux
- c) 4-5 kishidan iborat bo‘lgan gurux
- d) Yangi bilimga ega bo‘lgan gurux

7. Jamoa orasida shakllantiriladigan an‘analari nechta va qanday ko‘rinishlarda bo‘ladi?

- a) 2ta. Kundalik turmush an‘analari, bayram an‘analari
- b) 1 ta. An‘anaviy
- c) 3ta. Bayram an‘analari, kechalar, tadbirlar
- d) 4ta. Bayram an‘analari, kontsertlar, to‘garaklar, faoliyatlar

8. Rivojlanish bu...

- a) Bu shaxsning meros qilib olingan va orttirilgan xususiyatlarining miqdoriy va sifat jihatidan o‘zgarishi.
- b) Bevosita insonlararo munosabatlar jarayonidagi tarbiyaviy ta‘sir.
- c) Ijtimoiy tarbiya muammolarini o‘rganishdan iborat.
- d) Fan kategoriyalari shu fanda qo‘llaniladigan yanada kattaroq, amaliy tushunchalardir.

9. Irsiyat bu...

- a) Bu ota-onadan bolaga yuqadigan, genlarga xos bo‘lgan psixofizik va anatomofiziologik xususiyatlar (moyillik, morfologik xususiyatlar, temperament, xarakter, qobiliyat).

b) Tug‘ilgandan boshlab, inson o‘ziga xos shaxsiyatning turli jihatlari, ayniqsa ruhiy jarayonlarning dinamikasi, hissiy sohasi va iqtidor turlari rivojlanishida muhim rol o‘ynaydigan ma’lum organik moyillikni o‘z ichiga oladi.

c) Insonni o‘rab turgan va uning rivojlanishiga ta’sir qiladigan sharoitlar:

d) Bu shaxsni shakllantirishning maqsadga muvofiq, maxsus tashkil etilgan jarayoni. Tarbiya insonni muntazam ravishda yangi, yuqori darajalarga ko‘taradi, shaxsning rivojlanishini "loyihalashtiradi" va shuning uchun uning rivojlanishining asosiy, belgilovchi omili bo‘lib xizmat qiladi.

10.Faoliyat bu.....

a) Mavjudotning bir shakli va inson hayotining usuli, uning atrofidagi dunyoni va o‘zini o‘zgartirishga va o‘zgartirishga qaratilgan faoliyati.

b) Tirik organizmning xususiyati sifatida rivojlanish uchun zaruriy shart bo‘lib xizmat qiladi.

c) Fan kategoriyalari shu fanda qo‘llaniladigan yanada kattaroq, amaliy tushunchalardir.

d) Bevosita insonlararo munosabatlar jarayonidagi tarbiyaviy ta’sir.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING SOTSIUMDA RIVOJLANISHI

Tayanch iboralar: sotsium, yaqin muhit, ijtimoiy muhit, sotsializatsiya, individuallashtirish, preformizm, bixeviorizm, pragmatizm, biogenetiklar.

Sotsium tushunchasi. **Sotsium** (yaqin muhit) – bola sotsiolizatsiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu yaqin ijtimoiy muhitni bola asta-sekin o‘zlashtiradi. Boshida u (bola), asosan, oilada rivojlanadi, so‘ng yangi muhitlarni o‘zlashtiradi – maktabgacha muassasalar, maktab, maktabdan tashqari muassasalar, o‘rtoqlar davrasi, diskotekalar va h.k. Yosh o‘tgan sari bola tomonidan o‘zlashtirilgan ijtimoiy muhit “hududi” tobora kengayib boradi.

Sotsium va bola shaxsi. Sotsializatsiya jarayonida, xususan bolaning ijtimoiy moslashuvida insonning “hammadek” bo‘lishi ob‘ektiv ehtiyoji namoyon bo‘ladi. Biroq shu bilan parallel ravishda bolada - boshqa ehtiyoj - o‘zini o‘z individualligini ko‘rsatish ehtiyoji shakllanadi. Bola uni ifodalash usul va vositalarini qidira, namoyon qila boshlaydi, natijada uning individuallashtirilishi sodir bo‘ladi. Bola individuallashtirilishi shunda ifodalanadiki, u yoki bu ijtimoiy ahamiyatga ega shaxs xislat va xususiyatlari aynan shu insonga mansub shaklda namoyon etadi. Ijtimoiy o‘zini tutish esa boshqa insonlar intizomiga tashqi tomondan o‘xshashiga qaramay betakror, individuallik qirralarni egallaydi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi shunday qilib ikki yo‘nalish bo‘yicha sodir bo‘ladi: sotsializatsiya (ijtimoiy madaniy tajribani egallash) va individuallashtirish (mustaqil bo‘lish). Agar bolani sotsiumga kiritishda sotsializatsiya va integratsiya jarayonlari orasida muvozanat belgilansa, ya’ni bola, bir tomondan, mazkur jamiyatda o‘zlashtirilgan me’yor va qoidalarni o‘zlashtirsa, boshqa tomondan unga o‘z ahamiyatli “umumiy”ni individualligini qo‘shsa, sotsiumda bolaning integratsiyasi sodir bo‘ladi. Agar bolaning guruhga moslashish jarayoni sodir bo‘lmasa, unda o‘ziga ishonmaslik, tortinchoqlik, tashabbussizlik sodir bo‘lishi mumkin, bu shaxsni jiddiy deformatsiyaga olib kelishi mumkin. Agar bola moslashuv

fazasidan o'ta olsa va atrofdagilarga o'z individual farqlarini ko'rsatishni boshlasa, atrofdagilar esa uning individualizmini jamiyat me'yorlariga to'g'ri kelmaydi deb hisoblasa, unda bolada negativlik, gumonsirashlik, agressivlik, o'ziga yuqori baho berish rivojlanadi.

Bolaning rivojlanishi haqida umumiy tushuncha.

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish bo'yicha o'sishi, vazinning ortishi, sezgi a'zolarini mukammallashuvi, harakatlarni to'g'ri boshqara bilish bilan bog'likdir.

Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlar va belgilarning shakllanishi, emotsional irodaviy, bilish jarayonida muhim o'zgarishlar ro'y beradi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning xulqida, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Bu esa ularning ijtimoiy tajribalarining oshishiga yordam beradi. Bolaning dunyoga kelishidan tortib uning butun umri jarayonida yuqoridagi faktorlar (faoliyat va muloqat) bir-birini to'ldirib bola shaxsining rivojlanishini ta'minlaydi. Bola rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi-bu qarama qarshilikdir. U tashqi va ichki ta'sirlar orqali amalga oshiriladi. Tashqi ta'sirlarga insonni shakllantirishga qaratilgan maxsus faoliyat kirsam, ichki ta'sirlarga biologik va irsiy faktorlar kiradi.

Shaxs deganda ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qiluvchi muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Odamning ijtimoiy mavjudod sifatida shaxs nomini olishi uchun unga ijtimoiy-iqtisodiy hayot va tarbiya kerak.

Shuning uchun pedagogika fani bolaning shaxs sifatida rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillarni ham o'rganadi.

Inson hayoti davomida o'zgarib, shakllanib, rivojlanib boradi. Bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Rivojlanish deb bola vaznining oshishi, suyak va muskul tizimining, tanosil a'zolarining, nerv-funksional faoliyatining kamol topishi, aql zakovatining shakllanishiga aytiladi.

Shaxs rivojlanishi va kamolga etishi murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lib, bunda nasl-irsiyat (biologik omil), ijtimoiy muhit ham, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya va nihoyat o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega.

Biologik faktorlar. Biologik faktorlar deganda asosan, irsiyat nazarda tutiladi. Irsiyat deganda esa gen orqali ota-onalardan farzandlariga o'ziga xos xususiyatlarining o'tishi nazarda tutiladi. Irsiyat orqali bola organizmiga, nerv sistemasiga, hissiy organlariga ega bo'ladi. Bu insonni boshqa insonlardan ajratib turadigan tashqi faktorlardir. Irsiyat haqida gapirganda irsiy kasalliklar haqida unutmash lozim. Irsiy kasalliklarni tibbiy genetika o'rganadi. Masalan, havoning yoki suvning ifloslanishi sog'lom bolaning dunyoga kelishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday shaxslar uchun jamiyat bilan "muloqatga" kirishishga yordam beruvchi maxsus metodikalar mavjud. Turli davrlardagi preformizm, bixeviorizm, pragmatizm, biogenetiklar oqimlari shaxsning shakllanishida biologik omilning roliga ortiqcha baho berishgan, rivojlanishni naslga bog'lashgan. Irsiyat mavjud va biologik omillarni inkor etib bo'lmaydi. Lekin irsiyatni mutlaqo o'zgarmas deb tushunmaslik kerak. Rivojlanishga naslning ta'siri deganda ota-onaga, ajdodlarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik takrorlanishni tushunmoq kerak. Masalan: tananing tuzilishi, sochning, ko'zning, terining rangi kabilar. Nerv faoliyati ko'rinishlari (xolerik, sangvinik, flegmatik, melonxolik) kabi fiziologik xususiyatlar ham tug'ma o'tishi mumkin. Insonga xos xususiyatlar ham tug'ma o'tishi mumkin, lekin inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki tug'ma layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, uning uyg'onishi, rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Muhit deganda kishiga ta'sir etadigan tashqi voqealarning yig'indisini tushunamiz. Bunga tabiiy muhit (geografik), ijtimoiy muhit, oila muhiti (mikromuhit) va boshqalar kiradi va ularning rivojlanishiga alohida ta'sir qiladi. Boladagi irsiy belgilarning o'sishi, kamol topishi insonlar muhiti, yashash sharoiti va tarbiyaga bog'liq bo'ladi. «Inson bolasi, agar ijtimoiy-insoniy muhitga emas, aytaylik hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning biologik ko'rinishlari saqlanar, lekin insoniy fikr, faoliyat, hatti-harakat

bo‘lmaydi». (Hindistondan topilgan Kamola, Amola hayoti bunga misol bo‘la oladi)

Ijtimoiy faktorlar. Individning shaxs sifatida shakllanishiga bitta irsiyatning o‘zi kamlik etadi. Ijtimoiy faktor orqali individning ijtimoiy sub’ektga aylanishi insonning ijtimoiylashuvi, uning jamiyat bilan integratsiyaga kirishishi orqali amalga oshiriladi. Shaxsning ijtimoiylashuviga xizmat qiluvchi makro-(katta), mezo-(o‘rta) va mikro (kichik) faktorlar mavjud. Mezofaktorlarga milliy sifatlarning shakllanishi, xududiy sharoitlarning ta’siri aholi tipi singarilar kiradi. Mikrofaktorlarga oila, ta’lim muassasalari, tengqurlari guruqlari kiradi. Makrofaktorlarga esa insonning ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi umumbashariy jarayonlar (ekologik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mamlakat va jamiyat hodisalari) kiradi.

Mavzuni yuzasidan savollar:

1. Sotsium (yaqin muhit) deganda nimani tushunasiz?
2. Bola o‘z rivojlanishi jarayonida qanday faoliyat turlari asosida muloqotga kirishadi?
3. Sotsializatsiya va individuallashtirish tushunchalariga izoh bering?
4. Sotsiumda bolaning integratsiyasi qanday sodir bo‘ladi?
5. Shaxsning ijtimoiylashuviga xizmat qiluvchi qanday faktorlar mavjud?

Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol metod:

**Mavzuni mustahkamlash
uchun interfaol metod:
“Yalpi fikriy hujum” metodi**



Metod o‘quvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5

yoki 6 nafar o‘quvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a‘zolaridan biri axdorat beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruh a‘zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e‘lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruhlar a‘zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

Mustaqil ta‘lim uchun topshiriq:
“Bolaning rivojlanishi haqida umumiy tushuncha”-
mavzusida axborot tahliliy materiallar bilan ishlash

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1.L.S.Vigotskiy fikricha psixik taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bu...

- a)Ta‘lim
- b)Tarbiya
- c)O‘yin
- d)Mehnat

2.Shaxs tug‘ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit nima deyiladi?

- a)Sotsium
- b)Mikrosotsium
- c)Individ
- d)Oila

3.A.N Leontyev fikricha shaxs necha marta tug‘iladi?

- a)2

- b)1
- c)Albatta bir marta
- d)To‘g‘ri javob yo‘q

4. Ilk bolalik davrida bolalarning yetakchi faoliyati bu.....

- a)Predmetni o‘rganish
- b)Mehnat
- c)O‘yin
- d)Mashq

5. Nechchi oylik bolalarda emotsional munosabat shakillanadi?

- a)3 oylik
- b)2 oylik
- c)1 oylik
- d)Tug‘ilgandan boshlanadi

6. Faoliyat nazariyasining asoschisi kim?

- a)A.N Leontyev
- b)D.B. Elkonin
- c)F. Obuxova
- d)L.S. Vigotskiy.

7. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari nimalardan iborat?

- a)“Ijtimoiy pedagogik faoliyat”, “Ijtimoiy ta’lim”, “Ijtimoiy tarbiya”
- b)“Ijtimoiy ta’lim” va “Ijtimoiy tarbiya”
- c)“Ijtimoiy pedagogik faoliyat” va “Ijtimoiy ta’lim”
- d)“Ijtimoiy pedagogik faoliyat” va “Ijtimoiy tarbiya”

8. Shartli reflekslar fondini boyitish, xarakterni rivojlantirish, xotira, fikrlash, hissiy-irodaviy sohani rivojlanishning qaysi turiga misol bo‘ladi?

- a)Aqliy rivojlanish
- b)Fizik rivojlanish
- c)Fiziologik rivojlanish
- d)Ijtimoiy rivojlanish

9. Ijtimoiy maktabgacha ta’lim bu –

- a)Davlat tomonidan tashkil etiladigan tashkilot
- b>Xususiy tashkil etilgan tashkilot
- c)Nodavlat talimga qarashli tashkilot

d) Tarbiya maskani

10.«Bolalarning ijtimoiy moslashuvi» fanini o‘qitishning maqsadi nimadan iborat?

a) Bo‘lajak tarbiyachilarni mustaqil davlat O‘zbekiston Respublikasining yangi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy husisiatlarini hisobga olgan holda kichik maktab yoshidagi bolalarni muvofaqiyatli tarbiyalashga tayyorlash

b) Tarbiyalash metodlarini o‘rganish

c) Tarbiyaviy ishlarning shakllarini to‘g‘ri tashkil etish

d) Tarbiya qonuniyatlari bilan tarbiya shakllarini bilish.

BOLANING RIVOJLANISHIDA TARBIYA SOTSIUM SIFATIDA

Tayanch iboralar: *ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, integratsiya, ijtimoiy me'yorlar, mikro faktorlar, makro faktorlar, mezon faktorlar, sotsializatsiya.*

Bola rivojlanishi va tarbiyasi pedagogika fanining muhim muammosi sifatida.

Bola rivojlanishi va tarbiyasi pedagogika fanining muhim muammosi hisoblanadi. O'sib va rivojlanib boruvchi inson tarbiya ob'ekti hisoblanadi. Insonning rivojlanishi butun hayoti davomida davom etadi. Bunda u turli o'zgarishlarni jismoniy, ruhiy, miqdor va sifat o'zgarishlarni o'z boshidan kechiradi. Insonda bo'ladigan jismoniy o'zgarishlarga – bo'yining o'sishi, vaznining ortib borishi, suyak va mushak tizimlarining ichki a'zolari va asab tizimining o'zgarib borishi kiradi. Ruhiy o'zgarishlari esa uning aqliy rivojiga aloqador bo'ladi va insonda ruhiy sifatlarning shakllanib borishi, unda hayot uchun zarur bo'lgan sotsial sifatlarni tarkib topishi hisoblanadi.

Odam bolasining rivojlanishi – bu muhim jarayon hisoblanadi. Shaxsning kamol topishida va uning xulqiga ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha bir xil bo'lavermaydi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri aniqlash va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasida, turli vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim.

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom va o'rinlar, ijtimoiy o'zini tutish me'yor va qoidalari haqida ko'pgina bilimlarni o'zlashtiradi. U shuningdek, integratsiyasi va jamiyatga kirishga yordam beradigan turli xil malaka va ko'nikmalarni egallaydi.

Agar normal oilada normal bola (jismonan va psixik sog'lom) tug'ilsa, unda uning jismoniy, psixik va ijtimoiy shakllanishi ma'lum qonunlarga ko'ra sodir bo'ladi. Bola avval jismoniy makonni o'zlashtiradi, unda yo'lini topishga o'rganadi: emaklash, o'tirish, yurish, yugurish va h.k. so'ng u ko'chani o'zlashtiradi. Bola yaqin kishilarni ajratadi (otani, onani, aka-ukalarini), o'z ismiga egaligiga o'rganadi, unga javob berishni boshlaydi, bolada ijtimoiy

xush ko‘rishlar, his-tuyg‘ular, ijtimoiy tajriba shakllanadi. Bola ijtimoiy rivojlanishida nutq katta ahamiyatga ega. Xalq ruhi xazinasidagi bor narsa til yordamida bola diliga o‘tadi. Tilda xalq tarixi, xarakteri, urf-odatlar, an‘analari saqlanib qoladi. Tilni o‘zlashtirib, bola xalq madaniyati, ijtimoiy tajriba va ijtimoiy ana‘analarni ham o‘zlashtiradi.

Eng muhim bo‘lgan bola ijtimoiy rivojlanishi o‘yinlarda sodir bo‘ladi. O‘yinlar yordamida bolalar turli xil ijtimoiy rollar bilan tanishadi, “ota-onalar”ni o‘ynaydi.

Agar bola jismoniy va psixik kamchiliklar bilan tug‘ilsa, unda ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish ancha murakkabdir. Agar bunday bola oddiy oilada tug‘ilsa, unda bolaning ijtimoiy tiklanishi ko‘p holda bunga tayyor bo‘lmagan ota-onalar zimmasiga tushadi. Bola o‘zi uchun zarur bo‘lgan muhitdan tashqarida, masalan, chaqaloq uyida, so‘ngra bolalar uyida tarbiyalansa boshqa gap. Bunday hollarda bolalarda muayyan bir bilim va malakalarni shakllantirishga imkon beradigan, ular bilan ijtimoiy tajribani o‘zlashtirilishiga va jamiyatda ularning integratsiyasiga yordam beradigan maxsus metodika va texnologiyalar mavjud bo‘lishi kerak.

Bola bilim olish jarayonida avvalambor akademik bilimlarni oladi. Biroq shu bilan birga uni ijtimoiy me‘yorlarni, ko‘rsatmalarni, qadriyatlarni, rollarni yanada muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishini ta‘minlaydigan ma‘lum bir ijtimoiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashi lozim.

Bola ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni berish va ijtimoiy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadga qaratilgan jarayoni ijtimoiy o‘qitish deb ataladi.

Bolaning sotsiumda rivojlanishi

Bolaning rivojlanishida sotsiumning ahamiyati juda kattadir. Bolaga eng yaqin bo‘lgan sotsiumlar bular oila, turli xil guruhlar, turli xil to‘garaklardir. Bola bir sotsiumdan ikkinchisiga o‘tib yurishi mumkin. U faqatgina bu sotsiumdan o‘ziga mos keladigan qulay sharoitni qidiradi va shu qidirish natijasida o‘ziga ijtimoiy malaka yetishtirib boradi, bu orttirgan malaka salbiy yoki ijobiy bo‘lishi mumkin.

Bolaning sotsiumda rivojlanishiga ijtimoiy maqom shaxsining ta‘siri juda katta bo‘ladi. Ijtimoiy maqom tug‘ma, orttirilgan bo‘ladi.

Tarbiya tarixiy vujudga kelgan ijtimoiy hodisa bo'lib, keyin xulqni boshqarish va belgilash bir-birini talab etadigan va belgilaydigan tarkibiy qismlar - axloqiy ong, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlarning murakkab yig'indisidir.

Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchilarning shaxsiga muntazam va sistemali ta'sir etish imkoniyatini beradi.

Tarbiya kishilik jamiyatning paydo bo'lishi bilan vujudga keldi, taraqqiy etdi, jamiyatning o'zgarishi bilan tarbiya ham o'zgarib bordi. A. Avloniy tarbiya haqida shunday degan edi: tarbiya bizlar uchun, yo hayot, yo momot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir. Rasuli Akrom Nabiyyi muxtaram salloloxu alayxu vasallam: «Insonlarning qarami dinidadir, muruvvati aqlidandir, nasabi ahloqdandir», -demishlar.

Ma'lumki inson butun umri mobaynida o'zgarib, rivojlanib boradi. Lekin bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davridagi o'sish nihoyatda kuchli kechadi. Bola mana shu yillar mobaynida ham jismoniy ham ruhiy jihatdan o'sishi va o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda ular harakteriga singdirilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib murakkab ijtimoiy munosabatlar jarayonida jamiyatda o'ziga munosib o'rin egallaydi. Shuning uchun ham L.I.Bojovich odam shaxs bo'lishi uchun u psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini bir butun inson deb his qilmog'i o'z xususiyat va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak degan edi.

Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. Bir odam boshqasidan o'zini mijozi fe'l-atvori, qobiliyati, aqliy rivojlanishga darajasi, ehtiyoj va ko'rsatishlari bilan farq qiladi. Bular odamning shaxsiy, ruhiy xususiyatlari bo'lib, ana shu xususiyatlarining rivojlanishi ta'lim-tarbiya cho'qqisiga erishgandan so'ng, inson shaxs sifatida o'zini namoyon qila olishi mumkin. Ayni vaqtda odam atrof muhitda ro'y berayotgan voqea va hodisalarga nisbatan o'z nuqtai nazarga ham ega bo'lmog'i kerak. Bu ham shaxsni birini ikkinchisidan farqlantiradigan belgilardir.

Shaxs ijtimoiy munosabatlarda ham namoyon bo'ladi. Aniqrog'i har bir odamning mehnatga, kishilarga, jamiyatga nisbatan

munosabati ham turlicha ifodalanadi. Shaxsning axloqiy va faollik darajasiga xos sifatlari ham uni boshqalardan ajratib turadi.

Shaxs haqida gapirilganda, tabiiy holatda shunday savol tug'iladi. Har qanday odam shaxs bo'la oladimi? Shaxs bo'lishi uchun nimalar qilish kerak? Bu savolga shunday javob berish mumkin. Insonning sotsial mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun eng avvalo, ijtimoiy hayot tartiblari va yaxshi tarbiya kerak bo'ladi. Ana shunday omillar ta'siri ostida inson rivojlanadi va shaxsga aylanadi.

Pedagogika sohasida tadqiqot olib boruvchi olimlarning ko'p yillik izlanish natijalari asosida insonning rivojlanishiga quyidagicha ta'rif berishadi: Oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yaxshi holatga o'tish, yangilanish yangining paydo bo'lishi va eskining o'lib borishi, miqdor o'zgarishning sifat o'zgarishga olib keluvchi murakkab harakat jarayoni deb qaraydilar. Zero, hayot qonunlarining ko'rsatishicha ham rivojlanishning asosiy manbai qarama-qarshiliklar o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Insonning munosabatlar doirasiga nafaqat o'zga kishilar bilan aloqasi, balki tabiatga, jamiyatga, hayotga, mehnatga bo'lgan munosabatlari ham kiradi. Mana shunday munosabatlar asnosida inson o'zining qobiliyatlarini, aqlini, farosatini namoyon qila boshlaydi. Bu bilan u o'z haqidagi Vataniga, umuman butun borliqdagi munosabatini ifodalaydi. Tabiiyki, bu fazilatlar faqat tarbiyaning mahsuli bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham inson rivojlanishini unga singdirilgan tarbiyaning natijasi deb qarash mumkin.

Shaxsini rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal qilish uchun avvalo uning xalqiga ta'sir etuvchi omillarning tabiatini, shaxsning shaxsiy xususiyatini yaxshi o'rganmoq lozim. Buning uchun turli munosabatlar doirasiga qo'yib kuzatish darkor.

Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlar ro'yobga chiqadi. "Har bir inson, degan edi Farobiy: o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va yuksak yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi va ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi". Shu sababli odam yashash uchun zarur bo'lgan narsalarni bir-birlariga yetkazib

beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi ko‘p insonlarning birlashuvi orqaligina o‘z tabiati bo‘yicha intilgan yetuklikka erishish mumkin.

Tarbiyachining bolaga singdirishi lozim bo‘lgan tarbiyasi samarali ta‘sir etishi uchun uning o‘sish va rivojlanish qonuniyatlarini yaxshi bilishi, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Bolalarga shaxsiy farqni ularning ruhiy holatining turlicha namoyon bo‘lishini, xulqi va qarashlaridagi farqni qaysi omil belgilaydi degan tabiiy savol tug‘iladi. Demak, inson rivojlanishda biologik omilmi, ijtimoiy omilmi yoki tarbiya omilimi qaysi, biri yetakchi rol o‘ynaydi degan savolga javob berish lozimday ko‘rinadi. Bu savolga turli tarixiy davrlarda turlicha yondashib, javoblar berilgan. Hozirgi kunda ham bu masalaga turli nuqtai nazarlar bildirilmoqda.

Ochiqrog‘i, fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va sotsial omillarning ta‘siri o‘rtasidagi munosabatni belgilash borasiga munozara ko‘p asrlardan beri davom etib kelmoqda. Ko‘p asrlik mazkur munozara zamirida ikki bir-biriga qarama-qarshi nuqtai nazar vujudga kelgan. Ulardan biri odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishida tabiiy-biologik omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi desa, ikkinchi toifa olimlar esa ijtimoiy voqealar tarbiyaning muhim omil ekanligini ta‘kidlaylilar. Birinchi guruh olimlarining fikricha odam bolasining rivojlanishi tug‘ma imkoniyatlarga bog‘liq bo‘lib, rivojlanish esa o‘sish va tabiiy tug‘ma xususiyatlarning miqdoriy o‘zgarishlaridan iborat ekan. Demak, bolaga ona ajdodi avlod-ajdodlaridan tug‘ma o‘tgan xususiyatlarga rivojlanadi, degan tushuncha kelib chiqadi. Bu nuqtai nazar namoyondalari tarbiyaning rolini cheklab rivojlanishning inkor etadilar. Bunday ilmiy faraz fanda biologik yo‘nalish deb ataladi. Bu yo‘nalishning dastlabki namoyondalari qadimgi Yunon olim va faylasuflari Aristotel, Platon, Suqrot va Demokratlarning pedagogik qarashlarida o‘z aksini topib, ular odamlar azaldan biri ikkinchisi ustidan hukmron bo‘lishga, biri kambag‘al, biri boy bo‘lib yashashga va bunda itoat etib, bu ollohning irodasi deb sabr-toqat qilishga da‘vat etilgan. Taqdir, tole har kimning hayotdagi o‘rnini belgilab bergan. Rizq-ro‘zini, umrini o‘lchab bergan. Shu jumladan insonning kelajakda qanday inson

bo'lishi ham ularning nasliy sifatlariga ko'p jihatdan bog'liq deb ko'rsatganlar.

Aytish joizki, xuddi shunga yaqin nuqtai-nazarni XVII asr falsafasida vujudga kelgan «preforizm» oqimi namoyondalarining fikrlarida ham uchratish mumkin. Ular odam bolasiga ona pushtidan qanday sifatlar o'tgan bo'lsa, faqat shu sifatlarga shakllanadi deb ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini chegaralab qo'yishadi.

Inson shaxsi va uning xulq-atvorning rivojlanishiga naslning rolini yuksak baholagan yana bir oqim «bixeviorizm» bo'lib, u XX asrning boshlarida keng tarqaldi.

Bu oqimning ko'zga ko'ringan yirik namoyondalari Eduard Trondayk bixeviorizm ta'limotiga asoslanib, odamning xulq-atvori mexanik stimullari organizmda bevosita tug'diradigan ko'plab qilinadigan mexanik mashqlar bilan mustahkamlanadigan sof tashqi reaksiyalardan iboratdir, deydi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, shu jumladan ong va aqliy qobiliyat ham nasldan naslga o'tadi, go'yo odamning «ko'zi, tishlari va barmoqlari kabi aqliy qobiliyati tabiatan berilgandir. Inson «genlar batareyasi» bo'lib, ular nasldan-naslga tug'ma o'tib boradi va shaxsning rivojlanishini ham, uning kelajagini ham shular belgilaydi, deydi.

Amerikaning «progmantik» pedagogikasining atoqli vakili D.Dyui va uning nazariyasining davomchisi A.Kombslar ham shaxs rivojlanishini biologik omil deb izohlaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat deb ko'rsatadilar. Odam nima bilan tug'ilgan bo'lsa, tarbiya jarayonida bu sifatlar va xususiyatlar o'sib boradi. Tarbiya tashqaridan kiritilgan narsa emas, odam bilan dunyoga kelgan xususiyat va qobiliyatni o'zgartiradi» - deydi D.Dyui.

Darhaqiqat, pedagogika fani odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib. taraqqiy etib borishini o'ta murakkab va qarama-qarshi jarayon deb biladi. Uning shaxs sifatida shakllanishida nasl ham (biologik omil), ijtimoiy muhit ham (bola yashaydigan sharoit), tarbiya ham o'z holi va o'z o'rnini bilan muhim rol o'ynaydi. Bu har uchala omilning qaysi biri yetakchi ekanligini pedagogika fani asrlar mobaynida avlod-ajdodlarimiz to'plagan tajribalarga suyangan holda ilmiy nuqtai nazardan isbotlab berishga harakat qiladi.

Shaxs ma'lum ijimoiy tuzilma mahsuli. Uning mohiyatini ijimoiy munosabatlarning tashkil etadi. Shaxsning hayotiy faoliyatida sodir bo'ladigan ijtimoiy muhit unga ham ijobiy ham salbiy ko'rsatishi mumkin. Zero, odam ota-bobolar tajribasini o'rganadi, shaxs sifatida rivojlanib boradi, o'rgangan tajribalarni takomillashtiradi. Natijada ularni o'z faoliyatida qo'llaydilar. Ana shu yashayotgan sharoit va mehnat qilayotgan sharoit unga bo'layotgan tarbiyaviy ta'sir va faoliyat jarayonidagi aktivlik tufayli shaxsiy xususiyatlar vujudga keladi. Demak, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit va insoning o'zi o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga aktiv ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayotini o'z tabiatini o'zgartiradi.

Pedagogik va psixologik oqimlar shaxsning rivojlanishida irsiyatning roliga katta ahamiyat berish bilan birga muhit va tarbiyaning roliga ham yuksak baxo berishadi.

Zotan shaxsning kamolga yetishida irsiyat va biologik omillarning rolini inkor etish aslo mumkin emas, lekin bolalarga o'zgarimas xususiyatlargina o'tadi deb tushunmaslik o'zgaruvchan xususiyatlar ham unutmazlik kerak. Tarixiy taraqqiyot jarayonida odamning anatomik belgilari, o'zgarishlari avloddan-avlodga mustahkamlanib borishi nasldan-naslga o'tishi mumkin. Ayni vaqtda, odam bolasiga xos xususiyatlar ham irsiyat yo'li bilan o'tadi, ammo bu xususiyatlarning rivojlanishi uchun ular insonlar orasida yashashi, aloqa qilishi muhim rol o'ynashini unutmazlik lozim. Agar bolada tug'ma layoqatlar bo'lsayu, lekin, uni o'stirishga yordam beradigan ijtimoiy, oilaviy va tarbiya muhiti bo'lmas ekan inson bo'lib tug'ilishning hojati ham yo'qdir.

Madomiki shunday ekan, demak, bola o'z layoqatiga mos sharoitlarda o'sib zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat yerga ko'rinib, rivojlanishi, aksincha, zarur sharoit bo'lmasa bor qobiliyat ham yo'q bo'lib ketishi mumkin. Mana shunday nuqtai nazar inson layoqatining namoyon bo'lishi va qobiliyat sifatida rivojlanishi to'la-to'kis hayot sharoitiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Odam bolasidagi qobiliyat kurtaklarining rivojlanishi. avvalo ijtimoiy muhitga bog'liq ekan. Yana shu narsani ham aytib o'tish kerakki, sharoit qulay va noqulay bo'lishi ham mumkin.

Butun jahonga ma'lum va mashxur O'rta Osiyoning buyuk allomalari onalaridan biri tabib, biri shoir, biri xandasa. biri muxandis, biri faylasuf bo'lib tug'ilmagan, balki ularning yashab turgan davri, ijtimoiy muhiti, qolaversa oila muhiti ularning mana shunday insonlar bo'lib yetishishlarida asosiy turtki bo'lgan, ular yashab turgan hayotning ma'nosi, ideal va voqelik, axloqiy xaqiqat burch va borliq, axloqiy hayotda ob'ektivlik va sub'ektivlikning o'zaro munosabati, bilish va qadr-qimmat singari axloqiy sifatlarning o'ta shakllanganligi ham bu kabi insonlarni yetishib chiqishida asosiy turtki bo'ladi. O'sha davrda insonparvarlik g'oyalari qadr-qimmat, insoniylik yangi va yuksak bosqichga ko'tarilgan edi. Shuning uchun ham Mirzo Bedil haqli ravishda tarbiyada inson qadr-qimmatining buyukligi haqida gapirib shunday deydi; - «Xazrati insonning hurmat-ehtiroimga sazovor ekanligini tan olmagan har kim mal'undir».

Imom Buxoriy, Farobiy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, So'fi Olloyor, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Umar Xayyom, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bedil, Ahmad Donish va boshqa ko'pgina mutafakkirlarning ta'lim-tarbiya va ma'rifat haqidagi g'oyalaridan keng foydalanish va ularning didaktik qarashlarini pedagogika fanining rivolanishida metodik asos qilib olish bugungi kun talabidagi yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lib hisoblanadi

Respublikamiz rivojlangan davlatlar qatoriga yetishi uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan vazifalarimizning barchasi o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan va ma'naviy sog'lom qilib tarbiyalashga qaratilgan. Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o'zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'yimoqda»

- Yosh bolalar tevarak-atrofdagilarni kuzatib, ularga taqlid qilib, ijtimoiy muomala ko'nikmalarini hosil qiladilar. Shu asnoda qanday xulq-atvorlar maqbul, qaysilari nomaqbul ekanini bilib oladilar.

- Bolalarni turli mazmunli o‘yinlarga va izlanishga rag‘batlantirish ularning jismonan, aqlan va his-tuyg‘ular borasida kamol topishlari va bilim olishlarida ko‘maklashadi.

- Bolalar o‘z yaqinlari va qarindosh-urug‘lariga taqlid qilib, o‘zlarini qanday tutishni o‘rganadilar.

- Barcha ota-onalar va murabbiy-tarbiyachilar bolaning o‘sib-ulg‘ayishi va kamol topishi ko‘ngildagidek emasligidan dalolat beruvch belgilarni yaxshi bilishlari zarur

Yuqoridagi tavsiyalarni amaliy faoliyatda tarbiyachi va ota-onalar hamkorlikda amalga oshirsalar, bolaning ijtimoiylashuvi va ma‘naviy-jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir etadi. Natijada o‘zimiz orzu qilgan sog‘lom bolalarni tarbiyalab, sog‘lom jamiyat qurishga o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

Bolaning rivojlanishida tarbiya sotsium sifatida. Bola rivojlanishiga tarbiya ham ta‘sir ko‘rsatadi. Hozir pedagogikada “sotsializatsiya” va “tarbiya” tushunchalari keng muhokama qilinmoqda. Tarbiya shaxs sotsializatsiyasi asosiy omillaridan biri.

Agar bola ijtimoiy me‘yor va qadriyatlarni o‘zlashtirmasa (muhit negativ ta‘siri natijasida), unda tarbiyachilar va mutaxassislar harakatlari ijtimoiy moslashuvga (ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga moslashish) yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Agar ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlarning shakllanmaganligi shunchalik yuqori bo‘lsa, bolani ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga moslashishiga halaqit bersa, ya‘ni uning ijtimoiy moslashuvi sodir bo‘lsa, bu holda bola bilan yo‘qotilgan ijtimoiy aloqa va munosabatlarni tiklashga yo‘naltirilgan maxsus choralar tizimini tadbiq etishni ko‘zda tutadigan ijtimoiy tiklanish zarur.

Shunday qilib, rivojlanish jarayonida bola sotsiumda ijtimoiy moslashuvni o‘z ichiga oladigan uning sotsializatsiyasi amalga oshirilishi kerak. Agar bu sodir bo‘lmasa, boshqa hol - qarshi moslashuv holi kuzatiladi, unda bolani ijtimoiy qayta tiklash zaruriyati yuzaga keladi.

Jamiyatning bolalar ongiga ta‘sir o‘tkazishi asosan ta‘lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. U oilada, maktabgacha muassasada va maktabda ta‘lim -tarbiya oladi. Inson kamolotida ta‘lim - tarbiya yetakchi o‘rin tutadi. Bola o‘qish, yozishni, maxsus bilim, malaka, ko‘nikmalarini egallaydi, ularda ilmiy dunyoqarash shakllanadi.

Sotsiologiya fanida ijtimoiy status tushunchasi mavjud. Inson jamiyatda turli xil pozitsiyalarda bo'lishi mumkin. Ma'lum haq-huquqlar va majburiyatlar bilan tavsiflanuvchi insonning jamiyatdagi shunday pozitsiyasini egallashi ijtimoiy status deb ataladi. Bunday ijtimoiy statuslar tug'ma va egallangan bo'lishi mumkin.

Tug'ma ijtimoiy statuslarga jinsi, millati, tug'ilgan joyi, familiyasi va boshqa faktorlar kiradi. Lekin shunday statuslar bo'lishi mumkinki, ular insonning o'z kuchi va xarakterlari bilan egallanadi. Masalan, ijtimoiy pedagog statusi insonning maxsus o'quv yurtlaridagi kasbiy tayyorgarligi, shu yo'nalishi bo'yicha olgan diplomi asosida egallanadi. Ya'ni bu egallangan status hisoblanadi.

Lekin hayotda hunday vaziyatlar bo'lishi ham mumkinki, inson o'zining xoxish irodasiga qarshi ma'lum hatti-harakatda bo'lishi mumkin. Bu uning jamiyatda tutgan statusi asosida yoki boshqa insonlar undan ma'lum xarakatlarni namoyon etishi mumkin. Bu xolat insonning jamiyatdagi roli deb ataladi.

Lekin ijtimoiylashuv hamda rivojlanish jarayonida bola pozitiv va negativ ijtimoiy rollarni ham o'zlashtirishi mumkin.

Pozitiv ijtimoiy rolga oila a'zolari, jamoa, mutaxassislar, iste'molchilar

kirishi mumkin. Negativ ijtimoiy rolga esa daydilar, tilamchi-gadoylar, narkomanlar singari kategoriyadagi insonlar kiradi. Individ yuqoridagi kabi ijtimoiy rollarni o'zlashtirish mexanizmi natijasida ijtimoiy munosabatlarga kirishib o'sha ijtimoiy muqitga moslashib boradi. Individning o'sha ijtimoiy sharoitlarga moslashib borish jarayoni ijtimoiy adaptatsiya deb ataladi. Bunda muloqat, faoliyat va anglash jaryoni amalga oshiriladi. Ijtimoiy adaptatsiyalanish jarayonida bolada "hammaga o'xshash" ehtiyoj vujudga keladi. Shu bilan bir qatorda unda "o'zini ko'rsatish", "o'zini namoyon etish" ehtiyoji tug'iladi va u o'zini ko'rsatish usullari va vositalarini qidira boshlaydi hamda bu jarayon individualizatsiyalanish deb ataladi.

Demak, bolaning rivojlanishi ikki yo'nalish asosida amalga oshiriladi: ijtimoiylashuv va indivilualizatsiyalanish.

Agar sotsium tomonidan qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini qabul qilishi bilan bir qatorda o'z navbatida bola o'zining ham

individual xususiyatlarini sotsiumga qo‘shib borishi mumkin va bu jarayon bolaning jamiyatga integratsiyalanishi deb ataladi.

Bu jarayonlar spontan, stixiyali va tartibsiz holda amalga oshirilishi va aksincha boshqarilib, ma’lum maqsadga yo‘naltirilib ham borilishi mumkin. Bu jarayon esa tarbiyalash deb ataladi. Bolaning ongli, faol va mustaqil faoliyati esa o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoni deb ataladi. Jamiyatdagi barcha mutaxassislarining va tarbiyachilarning harakatlari bolaning ijtimoiy adaptatsiyalanishiga qaratilgan.

Jamiyatda nafaqat u (jamiyat) bilan kutilayotgan maqomlar, balki ijtimoiy me’yor va qadriyatlarga to‘g‘ri kelmaydigan maqomlar ham mavjud. Shuning uchun rivojlanish jarayonida bola pozitiv ijtimoiy rolni va shu bilan birga negativ rolni ham o‘zlashtirishi mumkin.

Pozitiv rolli: oila a’zosi (ota va ona, buva va buvi, o‘g‘il yoki qiz, aka va singil, nevara va b.), jamoa a’zosi (o‘quvchi, o‘rtoq, do‘st, etakchi va b.), iste’molchi (insonga ovqat, kiyim, oyoq kiyim va b.), fuqaro (Vatanni sevadi, u bilan faxrlanadi, vatanparvar bo‘lish), mutaxassis (o‘qituvchi, vrach, iqtisodchi, muhandis va b.).

Bola bilan ma’lum rolda o‘zini tutish mexanizmi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli kirishib ketishni ta’minlaydi, har bir u uchun yangi bo‘lgan vaziyatga moslashib ketish imkoniyatini beradi. Bu individni ijtimoiy muhit shart-sharoitiga moslashib ketishi jarayoni ijtimoiy moslashuv deb ataladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Bolaning rivojlanishida sotsiumning ahamiyati qanday?
2. Rivojlanish jarayonida bola qanday rollarni o‘zlashtirishi mumkin?
3. Bolaning rivojlanishi qanday yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi?
4. Ijtimoiy moslashuv deb nimaga ataladi?
5. Insonning jamiyatdagi pozitsiyasini egallashi ijtimoiy nima ataladi?

Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol metod: “FSMU” metodi

F-fikringizni bayon eting;

S-fikringizni asoslovchi sabab keltiring

M- ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring

U-fikringizni umumlashtiring

Namuna: Bolaning rivojlanishida sotsium muhim ahamiyatga ega

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

“Bolaning rivojlanishida sotsiumning ahamiyati”- mavzusida portfolio tuzish

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1.Og'ir adaptatsiya qahday bo'ladi?

a) Shunda namoyon bo'ladiki bolalarda tez-tez qaytadan kasal bo'lish kuzatiladi va u kasalliklar ba'zi hollarda jiddiy tus olishi mumkin (bronxit, pnevmaniya). Bu holatda adaptatsiya bir oydan ziyod vaqtga cho'ziladi, rivojlanish va sog'liq ko'rsatgichlarida noxush holatlar ham namoyon bo'ladi.

b) Bolaning yurish-turishi yoki emotsional holatidagi o'zgarishlar 15-30 kun ichida me'yoriy holatga qaytadi. Agar avval unda ozish kuzatilgan bo'lsa, keyinchalik u o'z vaznini tiklab oladi. MTMga qatnay boshlashidan bir oy mobaynida bir marotaba engil kasallikka chalinadi va 7-10 kun MTMga kelmasligi mumkin.

c) Bolaning yurish-turishi 10-15 kun ichida me'yoriy holatga qaytadi. Bola MTMga qatnay boshlaganidan so'ng bir oy o'tgach, o'zini me'yorda tuta boshlaydi.

d) Bu faqat bolaga bo'ysunadigan vaqt davri, u nafaqat uning bilim faoliyatini kengaytiradi. balki atrof-muhit chegaralarini ham cheksiz kengaytiradi.

2.Mentalitet deganda nimani tushunasiz?

a) Bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning dunyoni muayyan obrazda qabul qilish, his qilish va unda tafakkur yuritishini ichiga oluvchi individual va jamoa ongining darajasidir. Mentalitet shu xalqning uzoq tarixiy rivojlanishi natijasida shakllanadi va milliy xarakter, iqtisodiy va ijtimoiy xulq atvorning milliy modelini belgilab beradi. Mentalitet hatto bir mafkura boshqasiga o'zgarganda ham o'zining asosiy parametrlarini saqlab qolish mumkin.

b) Mentalitetning turli ta'riflari mavjud. Mentalitet bu anglanmagan darajadagi jamoa tasavvurlari majmuasi bo'lib, muayyan tabiiy-iqlimiy va tarixiy-madaniy sharoitlarda shakllangandir.

c) Mentalitet ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki u ijtimoiy axborot tashuvchisi hisoblanadi.

d) Ma'lum millat uchun xos bo'lgan qadriyatlar.

3.Yosh xususiyatlar deganimiz nima?

a) Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

b) Kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

c) Bolaning yurish-turishi 10-15 kun ichida me'yoriy holatga qaytadi. Bola MTMga qatnay boshlaganidan so'ng bir oy o'tgach, o'zini me'yorda tuta boshlaydi.

d) O'z qonunlariga binoan mavjud. Uning o'ziga xos tili, g'oyalari, ko'rganlarini taqdim etish usuli mavjud.

4.Shaxs bu nima?

a) Kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

b) Kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi

c) O'z qonunlariga binoan mavjud. Uning o'ziga xos tili, g'oyalari, ko'rganlarini taqdim etish usuli mavjud.

d) Jamiyat a'zosi.

5.Ma'lumot bu nima?

a) Ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

b) Vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

c) Bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi

d) Predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

6.Tafakkur bu nima?

a) Ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli

b) Didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

c) Tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

d) Inson ongida paydo bo'ladigan tasavvurlar

7.Maktabgacha ta'lim pedagogikasi nimani o'rgatadi?

a) Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

b) Bolalar ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi fan.

c) Tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

d) Inson ongida paydo bo'ladigan tasavvurlar

8.Kommunikativ kompetentsiya deganimiz nima?

a) Muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

b) Bu mavjudotning bir shakli va inson hayotining usuli, uning atrofidagi dunyoni va o'zini o'zgartirishga va o'zgartirishga qaratilgan faoliyati.

c) Predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

d) Tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

9.O'yin kompetentsiyasi deganimiz nima?

a) Bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

b) Mavjudotning bir shakli va inson hayotining usuli, uning atrofidagi dunyoni va o'zini o'zgartirishga va o'zgartirishga qaratilgan faoliyati.

c) Tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

10.Ko'rgazmali metodlar bu nima?

a) Predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

b) Ta'limiy o'yin faoliyatida qo'llaniladigan ko'rgazmaliklar

c) Hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.

d) Har kuni faoliyat jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar

MADANIY SOTSIUMNING BOLA RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. DINNING SOTSIUM SIFATIDAGI O'RNI. MA'DANIY-MA'RIFIY MUASSASALARNING BOLA RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

Madaniy sotsiumning bola rivojlanishiga ta'siri.

Maktabgacha pedagogikada ikkita tushuncha ajratiladi: "Tashqi madaniyat" va "ichki madaniyat". Tashqi madaniyat muayyan odob-axloq qoidalarini (odob-axloq, tashqi ko'rinish) amalga oshirish bilan bog'liq xatti-harakatlar madaniyati. Ichki madaniyat bolalarning axloqiy g'oyalari, hissiyotlari va tushunchalari bilan bog'liq (boshqalarga hurmat, sezgirlik, rostgo'ylik va boshqalar). Ushbu ikki tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Agar biz bolalardan xulq-atvorning tashqi ko'rinishini talab qiladigan bo'lsak, bu ularning ichki dunyosiga ta'sir qiladi va aksincha, bolaning jamiyatdagi xatti-harakatlari uning odob-axloq normalari va qoidalari haqidagi g'oyalari orqali amalga oshiriladi.

Faoliyat madaniyati,

Muloqot madaniyati

Madaniy va gigienik ko'nikmalar

Faoliyat madaniyati o'zini sinfda, o'yinda, ishda bolalarning o'zini tutishida namoyon qiladi. Bolada faollik madaniyatini shakllantirish unga ish joyini, ishlayotgan, o'qigan, o'ynaydigan joylarida saqlash qobiliyatini singdirishni anglatadi; ishni oxiriga etkazish odati, o'yinchoqlar, narsalar, kitoblarga g'amxo'rlik qilish. Faoliyat madaniyatining muhim ko'rsatkichi qiziqarli, mazmunli mashg'ulotlarga tabiiy intilish, vaqtni qadrlash qobiliyatidir.

Muloqot madaniyati kattalar va tengdoshlar bilan bolalar tomonidan tegishli so'z boyligi va muomala shakllaridan foydalangan holda hurmat va xayrixohlikka asoslangan muloqot me'yorlari va qoidalarini, shuningdek jamoat joylarida, kundalik hayotda odob-axloq qoidalarini bajarilishini ta'minlaydi. Aloqa madaniyati nafaqat ma'lum bir tarzda harakat qilish, balki berilgan sharoitda noo'rin harakatlar va imo-ishoralardan tiyilish qobiliyatini ham anglatadi. Bolani boshqa odamlarning holatini sezishga o'rgatish kerak.

Muloqot madaniyati soʻzlashuv madaniyatini nazarda tutadi. Bu maktabgacha yoshdagi bolada yetarli miqdordagi soʻzlarning mavjudligi, loʻnda gapirish qobiliyati, xotirjam ohangni saqlab qolishdir. Bolani suhbatdoshni diqqat bilan tinglashga, suhbat paytida xotirjam turishga, maʼruzachining yuziga qarashga oʻrgatish bir xil darajada muhimdir. Nutq madaniyati sinfda va kundalik hayotda, yilda shakllanadi turli xil turlari mustaqil faoliyat.

Madaniy va gigienik koʻnikmalar xulq-atvor madaniyatining muhim qismidir. Bu ozoda, pokiza, tanangizni va kiyimingizni toza tuta olish qobiliyatlari. Ushbu qoidalarga boʻlgan ehtiyojni nafaqat poklik meʼyorlari, balki inson munosabatlarining meʼyorlari ham belgilab beradi. Bolalar ushbu qoidalarga rioya qilish boshqalarga hurmat koʻrsatishini tushunishlari kerak. Boshqa tomondan, kattalar bolalik davrida berilgan koʻnikmalar, shu jumladan madaniy va gigiena koʻnikmalari insonga kelajak hayoti davomida katta foyda keltirishini unutmasliklari kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda oʻzini tutish madaniyatini tarbiyalash kollektiv munosabatlarda namoyon boʻladigan odamlarga nisbatan insonparvarlik munosabatini tarbiyalash boʻyicha ishlarning davomi va jihatlaridan biridir.

Xulq-atvor - bu axloqiy urf-odatlar, urf-odatlar va odatlar asosida shakllangan hayot va harakat tarzidir.

Odat - Bu odam uchun odatiy, doimiy boʻlib qolgan xulq-atvorning belgilangan usuli.

Bola bolalikdan odob-axloq meʼyorlarini oʻzlashtirishi kerak. Odob-axloq qoidalari - bu jamiyatda oʻrnatilgan xulq-atvor tartibi, u oʻzaro munosabatlarning tashqi koʻrinishini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari toʻplamini oʻz ichiga oladi: boshqalar bilan muomala qilishda, manzil va salomlashishda, jamoat joylarida oʻzini tutishi, odamning odob-axloqi va tashqi qiyofasi.

Konsepsiya "Xulq-atvor madaniyati" maktabgacha yoshdagi bolalarni jamiyat uchun kundalik hayotda, muloqotda va turli xil faoliyatda foydali boʻlgan kundalik xatti-harakatlarning barqaror shakllari toʻplami sifatida aniqlash mumkin. Xulq-atvor madaniyati chuqur ijtimoiy axloqiy tuygʻuga asoslangan - insonga, insoniyat jamiyatining qonunlariga hurmat.

Ijtimoiy pedagogikada sotsium, ijtimoiy muhit orqali bolaning umuman jamiyatga kirib borishi jarayoni nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Sotsiumda inson munosabatlari va hayoti ijtimoiy shart-sharoitlari o‘zaro ta’sir xususiyatiga ega. Muhit – bu nafaqat ko‘cha, uy va buyumlar. Muhit – bu yana o‘ziga xos munosabat va qoidalar o‘ziga xos munosabat va qoidalar tizimiga ega bo‘lgan turli xil insonlar birligi. Shuning uchun, bir tomondan inson unga (muhitga) nimadir o‘zini olib kiradi, ma’lum bir darajada unga ta’sir qiladi, uni o‘zgartiradi, lekin shu bilan birga muhit ham insonga ta’sir ko‘rsatadi, unga o‘z talablarini qo‘yadi.

Shunday qilib, rivojlanish jarayonida bola sotsiumda ijtimoiy moslashuvni o‘z ichiga oladigan uning sotsializatsiyasi amalga oshirilishi kerak. Agar bu sodir bo‘lmasa, boshqa hol - qarshi moslashuv holi kuzatiladi, unda bolani ijtimoiy qayta tiklash zaruriyati yuzaga keladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Madaniy sotsiumning bola rivojlanishiga ta’siri qay darajada?
2. "Tashqi madaniyat" va "ichki madaniyat" tushunchasini izohlang
3. Madaniy va gigienik ko‘nikmalar bolalarda qanday shakllantiriladi?
4. Bolaning jamiyatdagi xatti-harakatlari, odob-axloq normalari va qoidalari haqidagi g‘oyalari qanday amalga oshiriladi?
5. Ijtimoiy pedagogikada ijtimoiy muhit orqali bolaning jamiyatga kirib borish jarayoni qanday amalga oshiriladi?

Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol metod:

“Tushunchlar tahlili” metodi



Ushbu metod o‘tilgan mavzularini talabalar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan

tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berish, shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha talaba (yoki o‘quvchi)larni baholay olishga yo‘naltirilgan.

Quyidagi tushunchalar asosida matn tuzing va sarlavha qo‘ying:

Madaniy sotsium, tashqi madaniyat, ichki madaniyat, xulq-atvor, odat, faoliyat madaniyati, muloqot madaniyati.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriq:

Mavzu yuzasidan referat tayyorlash

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1. Didaktik o‘yin deganimiz nima?

a) O‘rganilayotgan ob‘ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida bolaning bilishga bo‘lgan qiziqishi va faollik darajasini rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati turi.

b) O‘rganilayotgan ob‘ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida bolaning bilishga bo‘lgan qiziqishi va faollik darajasini rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati turi.

c) Jamoa a‘zolari tomonidan birdek qo‘llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

d) Bolalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

2. Madaniyat so‘zi qanday ma’noni bildiradi?

a) (“cultura” so‘zidan olingan bo‘lib, parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo‘lga kiritilib, ularning ijtimoiy

ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

b) Bolalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi

c) Aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

d) Madaniyat - maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

3.Ko'nikma deganimiz nima?

a) Olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

b) Shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

c) Ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

d) Didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

4.Mazmun deganda nimani tushunasiz?

a) (ta'lim (bilim olish) mazmuni)– ta'lim jarayonida bola tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

b) Muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

c) Didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

d) Shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

5.O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil qilish to'g'risidagi qarori qaysi javobda ko'tsatilgan?

a) 3261

b) 3305

c) 2707

d) 5198

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qaysi?

- a) 3276
- b) 3305
- c) 5198
- d) 3261

7.Korreksion ta’lim - ?

- a) Ijtimoiy hissiy rivojlanish
- b) Psixik rivojlanish
- c) Tarbiya jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan individual tarzda tashkil etish
- d) Hayotiy qobiliyatlarni shakillantirish.

8.Qaysi qonunga muvofiq ixtisoslashgan MTM akkreditatsiyasi attestatsiyasi asosida vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi?

- a) Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi
- b) Davlatni rivojlantirish to‘g‘risidagi
- c) Ta’lim to‘g‘risidagi
- d) A va B

9.MTM tizimini boshqarishda qaysi omillar alohida ahamiyat kasb etadi?

- a) Demokratik, yakkaboshlik
- b) Hamkorlik, Aniqlik
- c) Tanqid, Farqlash
- d) Barcha javoblar to‘g‘ri

10.Yakkaboshlik tamoyili-?

- a) Mtm larda yillik ish rejasini to‘liq bajarishga qaratilgan.
- b) Yakka hokimlik
- c) Hamkorlikda ishlash

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA. IJTIMOIIY PEDAGOGIKA TA'RIFI, TUZILISHI VA VAZIFALARI

Tayanch iboralar: *ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, ma'naviyatshunoslik, ahloqshunoslik, qomusiy olim.*

Ijtimoiy pedagogikaning mazmuni, maqsad va vazifalari

Ijtimoiy pedagogika fan sifatida pedagogikadan ajralib chiqdi. Uni o'rganilish jarayoni va ko'rinishi pedagogika fani tomonidan o'rganadigan, biroq o'ziga xosligi aniq bir sohani o'rganish jihatdan tadqiq qilinadi. Pedagogika fani bu yangi tarmog'ining o'ziga xosligi "ijtimoiy" so'zida namoyon bo'ladi.

"Ijtimoiy" tushunchasi (lotincha socialis – umumiy, jamoatchilik) insonlarning birgalikdagi hayoti bilan bog'liq bo'lib, ularning muomala va bir-biriga ta'sirining turli xil shakllari birlashtiradi.

Pedagogika – bu fan sifatida o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi va ta'limi haqidagi fan bo'lsa, ijtimoiy pedagogika esa tarbiya va ta'limning bolalar hayotining jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. Bu jarayon bolaning jamiyatga "kirishi", ularning ma'lum bir ijtimoiy tajribaga ega bo'lishi (bilim, boylik, o'zini tutish qoidalari, yo'naltirish) sotsiyalizatsiya (ijtimoiylashuv) deb yuritiladi.

Bolaning ijtimoiylashuvi – juda uzoq va murakkab jarayon hisoblanadi. Har qanday jamiyat shunga intiladiki, har bir bola ma'lum ijtimoiy va ahloqiy qadriyatlar tizimiga, shu jamiyat me'yor va qoidalariga ega bo'lishi, shu jamiyatda yashash uchun, teng huquqli a'zosi bo'lishga intiladi.

Agarda biz ijtimoiy pedagogika mohiyatini uning ob'ekt va predmetini qiyoslash orqali aniqlamoqchi bo'lsak quyidagi holat kelib chiqadi. Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham ob'ekti- bu bola, biroq o'rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o'rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblansa, ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlaridir.

Shu sababli ijtimoiy pedagogika jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi, hamda insonlar bir-birlari bilan qanday

muomalaga kirishishlarini, nima uchun bir guruhga birlashishlarini va jamiyatning boshqa ijtimoiy masalalarini aniqlashga harakat qiladi. Shuningdek u bu muammolarni ijtimoiy pedagogika vazifalariga mos ravishda o'rganadi. Bugungi kunga kelganda ijtimoiy pedagogika mustaqil fan sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy pedagogikani va ijtimoiy-pedagogik faoliyat rivojining metodologik asoslari.

Ijtimoiy pedagogikaning fanlar tizimidagi o'rni va aloqadorligini tahlil etishda avvalo uning jamiyat bilan aloqasiga e'tibor berish mumkin. Jamiyatda har bir insonning shaxs sifatida shakllanishida oila, mahalla, ta'lim muassasasi, ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri muhim o'rin tutadi. Natijada shaxs ijtimoiy jihatdan o'zaro muhim ahamiyatli bo'lgan vazifalarni bajaradi, ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi, shaxsning qiziqishi, qobiliyati, ijodiy mulohaza qilishi, intellektual salohiyati jamiyat a'zolari bilan mustaqil munosabatga kirishadi va shu tariqa shaxsning ijtimoiylashuvi yuz beradi.

Ijtimoiy pedagogikaning ijtimoiy fanlar tizimi bilan o'zaro aloqalari. Jamiyatda ijtimoiy tarbiya mohiyatan ilmiy jihatdan asoslashga ma'lum ijtimoiy pedagogik hodisa va jarayonlarning muayyan ijtimoiy vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilish va tahlil qilishni taqozo etadi. Chunki, jamiyatda ijtimoiy pedagogik hodisa va jarayonlar murakkab tuzilmaviy xarakterga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash va tushunish uchun bir qator fanlar bilan aloqasining imkoniyatlariga tayanish zarur. Ana shu nuqtai nazardan ijtimoiy pedagogikaning fanlar bilan aloqasi mavjud:

Ma'naviyatshunoslik – ijtimoiy pedagogik fanlar tizimi bilan a'loqasi ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning alohida fan sohasi sifatida uning jamiyat ijtimoiy hayotida ommaviy, barcha aholi qatlamlari o'rtasida “Yangi O'zbekiston-yangicha dunyoqarash” g'oyalarini targ'ibot-tashviqotini keng olib borishda muhim o'rin tutadi.

Falsafa – jamiyatda shaxs rivojlanishining ijtimoiy jarayonni dialektik xususiyatlarini, muayyan darajada ijtimoiy pedagogik g'oya, qarash va tasavvurlar hamda ijtimoiy falsafiy ta'limotlarning tahliliy jihatlarini tahlil etishga imkon beradi.

Ahloqshunoslik – shaxs ma'naviyatini shakllanishida, ijtimoiy

jihatdan uning eng oliy insoniy sifatlari, axloqiy ong, axloqiy tarbiya va ma'naviy-axloqiy madaniyat muhim o'rin egllovchi ilmiy-nazariy g'oyalarning ijtimoiy pedagogik jarayonlarga tatbiq etilishida alohida o'rin tutadi.

Estetika – shaxsning tom ma'nodagi go'zallikning idrok etilishi, uni g'oyaviy-ma'naviy yaratishga intilishi hamda shaxs estetik didini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosatshunoslik - ijtimoiy fanlarning tarkibiy kismi bo'lib, uning ijtimoiy fanlar bilan o'zaro bog'likdigi jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida ijtimoiy tabiat siyosatning jamiyat xayotida tutgan o'rni, tuzilishi, vositalari va usullari ijtimoiy xayot ziddiyatlarini bartaraf etish va ijtimoiy barqarorlik, yaxlitlik, tinchlik-totuvlikni ta'minlashga yordam beradi.

Sotsiologiya - ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan jamiyat munosabatlari to'g'risidagi fan bo'lib, jamiyatdagi mavjud tarkibiy tulari mohiyati ularning harakat tendensiyalari sotsial tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim- tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

Psixologiya – shaxs ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarini rivojlanishiga zamin yaratadi.

Tarix - ijtimoiy pedagogika fani taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Chunki, ta'lim-tarbiya jarayonining dinamik, dialektik ijtimoiy xususiyatlarini tahlil qilish, shuningdek, ijtimoiy-tarixiy tajribani yosh avlodga yetkazishda manba bo'lib xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslik – insoniyat tarixiy-taraqqiyotida jamiyat a'zolari tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy ijtimoiy-tarixiy tasavvurni shakllantirishda ularning madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

Pedagogika fani – shaxs ma'naviy-tarbiyaviy kamolotini ta'minlashda, shaxsning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda ruhiy jihatdan kamolga yetishida turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari tarbiyaviy ahamiyati muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy pedagogika fan sifati shaxs shakllanish xususiyatlarini anglash uchun uning tadqiqot ob'ekti xususiyatlarini o'rganmoq lozim. Shu sabab fanda tadqiqot ob'ekti va predmeti tushunchasi mavjud.

Ijtimoiy pedagogikani va ijtimoiy-pedagogik faoliyat rivojining metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi:

Iqtisodning liberallasuvi turli ijtimoiy qiyinchiliklarni – ilmsizlar sonining ortishi, turli tengsizliklar paydo bo‘lishi, hayot tarzining buzilishini keltirib chiqardi. Shuning uchun O‘zbekiston taraqqiyotining o‘z yo‘li, asoslanadigan yetakchi tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosat olib borish hisoblanadi. Bu siyosatning maqsadi quyidagilardir:

1. Bozor islohotlarining hamma bosqichlarida aholining ijtimoiy himoyasini ta‘minlash;

2. Aholining turli qatlamlarini paydo qilmaslik orqali ijtimoiy kelishuvni ta‘minlash.

Mustaqillik yillarida ko‘rsatilgan maqsadlarga aholining ijtimoiy himoyasining yangi mexanizmi shakllangan va u quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ishlab chiqarishni barqarorlashtirish;
- davlat mablag‘laridan tashqari, mehnat jamoalari, ijtimoiy va mehribonlik fond va tashkilotlarining mablag‘larini yo‘naltirish;
- aholi daromadlarining yuqori tabaqalashuviga yo‘l qo‘ymaslik;
- kambag‘allikka qarshi kurashish, nogiron, yetim va qariyalarni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish.

Milliy mentalitet va hayot tarzining xususiyatlarini inobatga olib, eng kam ta‘minlangan oilalarni aniqlash va ularga mahalla qo‘mitalari orqali yordam ko‘rsatish kabi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash shakli tarqalmoqda. Bunday yondashuv bizning xalqimizda ko‘p asrli ildizlarga ega va amaliy ahamiyati esa mablag‘larning hayotda aniq tarqatilishini ta‘minlaydi.

O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi tarixi.

Ijtimoiy pedagogika o‘quv fani sifatida jamiyat pedagogik tarbiya sohasida muhim o‘rin tutadi. Ushbu fan o‘quv fani-ta‘lim muassasalalarida o‘rganiladigan predmetdir. O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatga ega, ilmiy bilimlar sohasida maxsus amaliy faoliyat hamda o‘quv fani sifatida namoyon bo‘ladi.

Fanning daslabki rivojlanish tarixi bosqichi-qadimgi davrlardan XVII asrgacha bo‘lgan davrini o‘z ichiga oladi. Bu davrda faktlar to‘planishi, tarbiya tajribasining anglanishi, pedagogik va ijtimoiy

nazariyalarning shakllanishi ro‘y bergan. Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida asta-sekin tan olinishi bilan xarakterlanadi. Buning natijasida turli tarbiya nazariyalari paydo bo‘lgan.

Birinchidan, ushbu bosqichning bu kabi davriy chegaralanishi avvalambor, insoniyat tarixining ilk bosqichlarida ham ijtimoiylashtirish muammosining mavjud bo‘lganligi bilan izohlanadi. Chunki ibtidoiy jamoada to‘plangan boy tarbiyaga oid ijtimoiy pedagogik g‘oyalar haqida gapirishga imkon beradi. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida insonning hayvonot olamidani ajralishi bilan paydo bo‘lgan. Dastlab tarbiya faoliyat turi sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa, keyinchalik esa o‘ziga xos faoliyat turiga aylangan va bu bilan shug‘ullanuvchi odamlar-tarbiyachilar paydo bo‘lgan. Vaqt o‘tgani sari tarbiya jarayoni ham murakkablashib borgan, yosh, jins, mazmuniga ko‘ra farqlana boshlagan, uning axloqiy jihatlariga e‘tibor qaratila boshlagan. Juft oilalarda oilaviy tarbiya ham ommalasha boshlagan. Bundan tashqari, arxeologik ma‘lumotlar ibtidoiy jamoada kasal va yaradorlarga yordam ko‘rsatilganligini bolaligida olingan jarohatlar tufayli vafot etganlarning skeletlari asosida to‘la tasdiqlaydi. Bu kabi qarashlar etnografik ma‘lumotlarda paydo bo‘lish bilan ham o‘z tasdig‘ini topgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida yashagan barcha elatlarida mehnatning jins va yoshga qarab ajratish an‘anasi bo‘lgan. Mavjud yoshlarni muntazam ravishda turli kasb-xunarlariga o‘rgatishgan. Bularning hammasi ibtidoiy jamoada ijtimoiy-pedagogik tajribaning ilk ko‘rinishlari mavjud bo‘lganligi haqida tasavvur qilishga imkon beradi.

Agar ibtidoiy davrni ijtimoiy pedagogik amaliyotning vujudga kelishiga zamin yaratgan bo‘lsa, qadimgi dunyoning ilk sivilizatsiyalarining paydo bo‘lishi ijtimoiy-pedagogik fikrning shakllanishiga kuchli ta‘sir ijtimoiy-pedagogik fikrning shakllanishi yozuv hamda pedagogik g‘oyalarning yozma manbalarda ko‘rsatilgan saqlanib qolish hodisasi bilan bog‘liqdir.

Ijtimoiy pedagogika fan sifatida respublikamiz mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng o‘qitila boshlagan bo‘lsada, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy himoya ko‘rinishida qadimiy ildizlarga ega. Ilk diniy-falsafiy (Avesto) va adabiy (Alpomish,

Go‘ro‘g‘li) manbalarda biz insonning ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan pedagogik qarashlarning aks etganini ko‘ramiz. Keyinchalik VI-VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida islom dinining tarqalishi yangi ma‘naviy, axloqiy qadriyatlarni olib keldi. Ular mintaqada oila va jamiyat tarbiyasiga ta‘sir ko‘rsatdi. Markaziy Osiyoning arab halifaligi tarkibiga kirishi madaniy almashinuv, fikr va qarashlarning erkin kurashi, o‘zaro munosabatlarning shakllanishiga olib keldi. Moddiy barqarorlik, ishlab chiqarish hamda savdo rivoji ehtiyojlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy holat ma‘naviy va madaniy hayotning yuksalishiga, dunyoviy ilm va fanlarning gullab-yashnashiga, fors, arab, qadimgi yunon madaniyati yutuqlarini o‘zlashtirishga yordam berdi.

O‘rta Osiyo qomusiy olimlarining ijtimoiy pedagogik g‘oyalari.



Ijtimoiy pedagogik g‘oyalar va nazariyalarning shakllanishida Sharq uyg‘onish davri olimlarining asarlari beqiyos o‘ringa ega. Ular faoliyatining mohiyati shuki, mavjud bo‘lgan o‘sha davrni ijtimoiylashtirish usullari ilmiy asarlarining asosiga singdirilganidadir. Yetuk olimlarning faoliyat xarakteri - ilm bilan mashg‘ul bo‘lishi ijtimoiy pedagogik qarashlarning mazmuniga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi.

Buyuk olim **Al-Xorazmiy** (783-850 y.) asarlari yorqin didaktik xarakterga egadir. U savol-javob metodi orqali bilimlar qo‘lga kiritilishini, bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kirishishini va jamiyatning faol a‘zosiga aylanishini ta‘kidlagan.



Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek kabi olimlar o‘z ilmiy va pedagogik faoliyatlarida rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va ta‘lim beruvchi ta‘sir kuchlarini o‘sib kelayotgan avlodga qaratish g‘oyasini tushunishgan va buni tadbiq etishgan. Bu avvalambor ular ta‘limning maqsadi hayotga tayyorlash, axloqiy norma va qoidalar, kasbiy malakalar va chuqur bilimlarga ega bo‘lishida deb bilganliklarida namoyon bo‘lgan.

Buyuk qomusiy olim **Abu Rayxon Beruniy** (973-1050 y.) ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ilmiy usullarni ishlab chiqqan. U shuningdek, ta'lim tamoyillarini ham tasniflagan. Uning pedagogik qarashlarining ijtimoiy yo'naltirilishi u axloqni ijtimoiy xususiyatlar va hissiyotlarning ifodasi sifatida tushunganligida o'z ifodasini topgan. Olimning tarbiya, shaxsning shakllanishida va jamiyatdagi amaliy faoliyat uchun ilm va mehnatning ahamiyati haqidagi g'oyalari hozirgacha muhimligini saqlab qolgan.



Buyuk qomusiy olim **Abu Ali ibn Sino** (980-1037 y) o'z davrining barcha bilim sohalarini qamrab oluvchi katta ilmiy meros qoldirgan. Uning barcha asarlarida pedagogik qarashlar mavjud. Uning bilim, iroda va insonning rivojlanish jarayonidagi maqsadga intiluvchanligi, atrof- muhit ta'siri, axloqiy va mehnat tarbiyasi, muomala san'ati, bolalarni jamoada o'qitish haqidagi g'oyalari muhim hisoblanadi.

Forobiy, Beruniy ta'lim muammolari bo'yicha fikrlar bildirishgan va insonning jamiyatga sermahsul xizmat qilishi uchun o'z aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat qobiliyatlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi ta'lim vazifasini ajratib ko'rsatganlar. Ta'limning rivojlatiruvchi vazifasini amalga oshirish maqsadida ular quyidagi didaktik tamoyillardan foydalanishni maslahat berganlar:

- ✓ asta-sekin tushunchalarning murakkablashuvi;
- ✓ amaliyotni tajriba bilan bog'lash;
- ✓ qabul qila olishlilik;
- ✓ ko'rgazmalilik.

Ibn Sinoning fikricha, ijtimoiylashtirish ko'nikmalari jamoa bo'lib o'qitish shaklida yaxshi shakllanadi. Buning uchun u quyidagilarga asoslanishi lozim:

1. Ta'lim oluvchilar, o'qituvchi va o'quvchilar orasida tajriba, bilim, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar almashinuvini tashkil qilish.
2. Musobaqalashuv elementidan foydalanish.

3. O‘quvchining ijtimoiy axloqiy xususiyatlarini-muomala, o‘zaro tushunish, o‘zaro yordam, do‘stlik hissini rivojlantirish.

Buyuk olimlarning pedagogik qarashlari va faoliyatlarining ijtimoiy pedagogik yo‘naltirilganligi, ularning avvalambor hayotga har tomonlama tayyorlash hisoblangan ta‘lim maqsadini sharhlashlarida o‘z ifodasini topgan. Shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini belgilab olishini ta‘minlab beruvchi eng muhim xususiyatlar deb, ular mehribonlik, yaqinlarga yordam, g‘urur, vijdon, yaxshi niyatlilik, sabrni bilishgan. O‘quvchilarning har tomonlama intellektual va mehnat tayyorgarliklariga katta e‘tibor qaratib, Forobiy va ibn Sino yoshlarning jamiyatga “kirish”larining eng muhim omillari sifatida, faollik, mustaqil tashabbuskorlik, intiluvchanlik, qiziquvchanlik, ijodiy qobiliyatni ko‘rsatib o‘tishgan.

Forobiy ijtimoiy tarbiyada o‘qituvchiga yetakchi o‘rin ajratib, uning faoliyatini - jamiyatning kelajagi unga bog‘liq bo‘lgan hukmdor faoliyatiga qiyoslaydi. Forobiy ham ibn Sino kabi ustoz va o‘qituvchilarning bilimlarini hayotga tadbiiq etishlariga e‘tibor berish lozimligiga ishora qilgan.

Qomusiy olimlar shaxsiy namunaga nihoyatda katta e‘tibor berishgan hamda o‘zlari ham intiluvchanlik, yuqori ijtimoiy mavqega erishganlik namunasi bo‘lib xizmat qilishgan. Forobiy nihoyatda mehnatsevar, irodali, kamtar, sodda bo‘lgan va doim yordamga intilgan. Forobiyning o‘quvchilarning individual psixologik va aqliy xususiyatlariga mos tushuvchi ta‘limning ustuvorligi, kasb tanlash muhimligi haqidagi fikrlari hozir ham katta ahamiyatga ega.

Tarbiyaning ijtimoiy xarakteri haqidagi g‘oyalar Alisher Navoiyning adabiy merosida nihoyatda aniq ifodasini topgan. Shoirning pedagogik qarashlari insonparvar xarakterga ega. Inson egallashi lozim bo‘lgan barcha bilim va kasb-hunarlar u tomonidan foydasi uchun qo‘llanilishi kerak.

XI-XII asr Markaziy Osiyo ma‘rifatparvar olimlari turli fanlar, shu jumladan pedagogikaning rivojiga katta hissa qo‘shishdi. Yusuf Xos Hojib, Burxoniddin Zarnujiy va Ahmad Yugnakiylar bolalar jamiyatda o‘z o‘rnini topishida bilim, ota-ona, oilaning o‘rnini alohida ajratib ko‘rsatadilar. Ular tarbiyaning asosiy maqsadi deb, komil insonni tarbiyalash, unga yetishish vositasi deb esa

qattiqqo‘llik, doimiy mehnatga o‘rgatish deb bilishgan. Zarnujiyning “Ta’limda o‘quvchiga pandlar” kitobi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari Markaziy Osiyoda pedagogikadan birinchi kitoblar hisoblanadi.

O‘rta Osiyo olimlari tomonidan tarbiya va ta’limning ijtimoiy o‘rnini tushunishlari shunda namoyon bo‘ldiki, ular ijtimoiylashuvning mikroomillar-muhit, oila, o‘quvchilar guruhiga e’tibor qaratganlar va ota-onalar, pedagog va o‘quvchining harakatlarini mujassamlashtirish kerakligini ta’kidlaganlar.

Shunday qilib, o‘rta asr olimlari ijtimoiy pedagogika sohasida katta meros qoldirganlar. Ularning ilmiy pedagogik asarlari zamonaviy ijtimoiy pedagogika ilmini rivojlantirish uchun muhim manba hisoblanadi.

Alisher Navoiy, Forobiy, Ibn Sinolarning falsafiy va pedagogik konsepsiyalari keyingi davrlarning yetakchi ta’limotlarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

XIX-XX asr demokrat shoirlarining ijtimoiy pedagogik qarashlari.

XVIII-XIX asrning ma’rifatparvar shoirlari Munis Xorazmiy (1778-1829), Muhammad Ogahiy (1809-1874), Ubaydulla Zavqiy (1853-1921) birinchi o‘ringa keng ommaning ma’rifatli qilish va ta’lim masalalarini qo‘yishgan. Ta’limning asosiy vazifasini ular axloqiy mukammallashuvida va mehnatga o‘rgatishda deb bilishgan.

Saidahmad Siddiqiyning (1864-1927) qarashlari uzoqni ko‘ra olishlik va zakovati bilan ajralib turgan. Dehqon oilasidan chiqqan pedagog, demokrat shoir o‘z qishlog‘i hovlisida dehqon va xunarmandlar uchun ilk maktabni ochgan, kattalar uchun maktab tuzgan, 1914-yil kitob, darslik va o‘quv qo‘llanmalari bilan savdo qiluvchi do‘kon ochgan. Keyinchalik Siddiqiy yana bir nechta qishloq maktablari ochgan va ularda o‘zbek, tojik, rus bolalariga ta’lim-tarbiya bergan. Tabiatshunoslik va geografiya darslari tabiat qo‘ynida o‘tkazilgan.

Ma’rifatparvarlik va demokratik g‘oyalar XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi. O‘rta asr g‘oyalari: zohidlik, dogmatizm, sxolastikaga qarshi chiqib, o‘zbek ma’rifatparvarlari yangi ta’lim usullari va tamoyillarini ilgari

surdilar: har tomonlama tarbiyalashga asoslangan (aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat) dunyoviy, o'g'il bolalar va qizlar uchun bir xil, insoniylik, demokratiya, vatanparvarlik ruhidagi tarbiyani ilgari surdilar va asoslab berdilar.

O'zbekistondagi demokratik pedagogik g'oyaning taraqqiyparvar yo'nalishining yirik vakillaridan biri Abdulla Avloniydir (1878-1934). U Sharq tillari va adabiyotini yoshligida chuqur o'rganib, mumtoz o'zbek klassikasi ta'sirida she'rlar yozgan. Uzoq vaqt mobaynida Toshkent maktablarining birida bolalarga ta'lim bergan. Avloniyning o'zbek pedagogikasiga qo'shgan hissasi shuki, u ilk marta tarbiya oldiga ijtimoiy vazifalarni qo'ya olgan. Bu shoir va pedagogning katta jasorati o'z asarlarida shaxs rivojlanishida tarbiyaning hal qiluvchi rolining e'tirof etilishi bo'ldi. Uning fikricha, tarbiya ijtimoiy maqsadlarni ko'zlashi kerak. Avloniy "yangi kishi" tushunchasini shaxsiy emas, balki ijtimoiy manfaatlardan kelib chiquvchi jamoat arbobi sifatida ta'riflaydi. Tarbiyaning muvaffaqiyati Avloniy fikricha oila, ota-onalar va pedagoglarning shaxsiy namunaviy roli bilan belgilanadi. Eng muhim ijtimoiy xususiyat deb, u mustaqillik, tashabbuskorlik, amaliy tajribani e'tirof etgan.

O'zbek ma'rifatparvarlarining yorqin vakili bo'lgan Abdulla Avloniy "to'g'ri" g'oyalarni kengaytirib va "noto'g'ri" g'oyalarni bartaraf qilibgina yovuzlikni yo'qotish mumkinligiga ishongan. Shuning uchun tarbiya mavzusi ma'rifat gazetasi bo'lmish "Shuhrat" gazetasida keng yoritilgan.

Mustamlakachilik sharoitlarida Turkistonda matbuot cheklangan o'quvchilariga ega bo'lgan. Bu holatda dramaturgiya ma'rifiy g'oyalarni tatbiq qilishning eng samarali vositasi bo'lgan. Teatr Abdulla Avloniy uchun odamlarni tarbiyalash, birlashtirish vositasi bo'lgan. U 1913 yilda Toshkentda "Turon" nomli teatr truppasini tashkil etdi. Truppaning maqsad-vazifalarini Toshkentdagi "Turon" dramatik san'at jamiyatining nizomida aniqlangan "sahnaga nisbatan muhabbat va jiddiy munosabat tug'dirish, xalq uchun spektakllar tashkil qilish" tashkil etar edi.

Bu maqsadga erishish uchun jamiyat kechalar, konsertlar, spektakllar va boshqa ommaviy chiqishlarni tashkil etishga, klub va musiqa kurslari, kutubxona va qiroatxona tashkil qilishga,

boshlang'ich maktablar ochishga, ta'limni o'rta va oliy o'quv yurtlarida davom ettirish uchun stipendiyalar ta'sis etish huquqiga ega bo'lgan. Shuningdek, u mavjud xayriya va ta'lim muassasalariga moddiy yordam ko'rsatishi mumkin edi¹.

Avloniy ma'rifiy g'oyalarini nafaqat ijodda ilgari surgan. U tomonidan 1908 yilda kambag'allar uchun maktab ochilgan va u yerda ona tilini o'qitishning yangi usullari qo'llanilgan. Pedagogik faoliyat bilan sermahsul shug'ullanishni kanda qilmay, u darslik va qo'llanmalar yoza boshlagan. Ta'lim tarbiya tizimini kundalik hayotga yaqinlashtirish, ya'ni amaliyot eng kerakli va foydali vosita ekanligini uning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq" darsliklarida aks etdi.

Avloniydan so'ng ma'rifat va dunyoviy bilimlarning faol targ'ibotchisi Miskin edi. Miskinning ta'limiy va ma'rifiy qarashlari ijtimoiy-siyosiy mohiyatga ega bo'lib, u o'zbek ilg'or pedagogik g'oyalarining rivojiga katta hissa qo'shgan. Insonni reallikdan ajratib oluvchi va uni shukronalik ruhida tarbiyalovchi musulmon pedagogikasiga qarshi - Miskin ta'lim jarayonini yosh avlodni xalqqa xizmat qilish uchun tarbiyalash kerak deb tushungan va o'z qarashini rivojlantirgan. Miskin va boshqa o'zbek ma'rifatparvarlarining intilishlari tarbiyaning ijtimoiy jihatini oshirishga, ijtimoiy tarbiyani kengaytirishga, insonning turli ijtimoiy munosabatlarga kirishi, boshqa davlatlar va xalqlar hayotini o'rganishga qaratilgan edi.

Biroq bu ijtimoiy xususiyatlar bilan birga o'zbek ma'rifatparvarlari XIX asr ikkinchi yarmida o'z qarashlarining tizimli emasligi, ularning feodal-mustamlaka tuzumga qarshi kurashdagi ojizliklarini kelib chiqishiga sabab bo'lgan mustahkam dasturning yo'qligi bilan ajralib turardilar. Biroq ularning dunyoqarashi cheklanganligi va qarama-qarshiliklarga uchraganiga qaramay, ular O'zbekistonda ilg'or g'oyalarning rivojiga o'z hissalarini qo'shishdi.

XX asr boshidagi o'zbek pedagogik g'oyasida 3 asosiy yo'nalishni ajratsa bo'ladi:

¹A. Boboxonov. Xamzaning ijtimoiy pedagogik va adabiy faoliyati. – T.: O'qituvchi. 1979 y. 15 b.

✓ ko‘proq hukmronlik qiluvchi o‘rta asr feodal klerikal yo‘nalishi;

✓ paydo bo‘layotgan milliy burjua yo‘nalishi (jadidchilik). Uning vakillari bu davrda feodal klerikal maktabga qarshi chiqib, o‘zlarining “usuli jadid” maktablarining pedagogik talablarini ilgari surish;


✓ demokratik taraqqiyparvar yo‘nalish. Demokratik pedagogika o‘rta asr maktabini va tarbiyasini tanqid qilgan va inkor etgan hamda unga qarshi yangi, ilg‘or g‘oyalarni ilgari surgan.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. “Ijtimoiy” so‘zi qanday ma‘noni bildiradi?
2. O‘zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishi tarixi qanday davrlarga bo‘linadi?
3. O‘rta Osiyodagi qomusiy olimlarning qanday ijtimoiy pedagogik g‘oyalarini bilasiz?
4. Abdulla Avloniy qanday ijtimoiy pedagogik g‘oyalarni ilgari surgan?
5. XX asr boshidagi o‘zbek pedagogik g‘oyasini nechta yo‘nalishga ajratsa bo‘ladi?

Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol:

“Mavzuga oid Glossariy”



| Atama | Izoh |
|------------|------|
| Falsfa | |
| Estetika | |
| Ijtimoiy | |
| Pedagogika | |
| | |
| | |

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:
Mavzuga oid test tayyorlash

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1.O‘zbekiston 2017-y 23- noyabr kuni MTMga oid qaysi davlat instituti bilan kelishuv imzolagan?

- a) Germaniya
- b) Koreya
- c) Italiya
- d) Shvetsiya

2.Ijtimoiy maktabgacha ta'lim bu-?

- a) Bunday muassasa yo‘q
- b) Davlat tomonidan tashkil etiladigan muassasa
- c) Xususiy tashkila etiladiga muassasa
- d) Xususiy sherikchilik asosida tashkil etiladigan muassasa

3.Ilq qadam dasturining falsafiy mazmuni qanday?

- a) Bilimlar dunyosiga birinchi qadam
- b) Go‘zallik va yaxshilik
- c) Birinchi muoffaqiyat, samimiylik
- d) Barcha javoblar to‘g‘ri

4.Tanqid-?

- a) Taqsimlash
- b) Fikirlash
- c) Talabchanlik bilan yondashuv
- d) Ko‘rolmaslik

5.O‘rta maktabgacha yosh davri necha yoshlarni o‘z ichiga oladi?

- a)4-5 yosh
- b)2-3 yosh
- c)3-6 yosh
- d)4-7 yosh

6. Ijtimoiy pedagogikaning faoliyati qaysi bosqichlardan iborat?

- a) Tashxis, tayyorlov, amaliyot
- b) Hudud vaqt muomalalar
- c) Amaliyot vaqt hudud
- d) Tayyorlov amaliyot

7. Tamoyil soʻzi qanday maʼnoni anglatadi?

a) Tamoyil — "Prinsip" soʻzi (lot. Prinsipiumdan) berilgan hodisani belgilaydigan boshlanish, asos degan maʼnoni anglatadi.

- b) "Tushuncha" degan maʼnoni anglatadi
- c) "Asos" degan maʼnoni anglatadi
- d) "Qoida" degan maʼnoni anglatadi

8. "Notiqning tarbiyasi haqida" deb nomlangan ilk pedagogik asarni kim yozgan?

- a) Mark Fabiy Kvintilian
- b) Farobiy
- c) Yan Amos Kamenskiy
- d) Demokrit

9. "Ijtimoiy pedagogika" atamasi qaysi olim tomonidan fanga kiritilgan?

- a) Fridrix Disterseg
- b) Gebert Spenser
- c) Robert Ouen
- d) Adriana Gelʼvetsiy

10. Qaysi olim savol-javob metodi orqali bilimlar qoʻlga kiritilishini, bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kirishishini va jamiyatning faol aʼzosi aylanishini taʼkidlagan.

- a) A. Al-Xorazmiy
- b) Al-Farobiy
- c) Yan Amos Kamenskiy
- d) Fridrix Disterseg

DEVIANT XULQ-ATVOR TUSHUNCHASI. DEVIANT XULQ-ATVORNING YUZAGA KELISHI. DEVIANT XULQ-ATVOR TURLARI

Tayanch iboralar: *deviatsiya, delinkvent harakat, deviatsiya konsepsiyasi, deviant hatti-harakat, rehabilitatsiya, profilaktika, korreksiya.*

Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiyada “me’yor” va “me’yordan og‘ishish” tushunchasi.

Pedagogikaning asosiy mezoni – tarbiya. Tarbiya - ijtimoiy hayotning abadiy va umumiy mezoni. Pedagogika bolalar tarbiyasini shaxs axloqiy xislatlarini shakllantirishning maqsadga qaratilgan jarayoni sifatida ko‘rib chiqadi. Biroq, bu tarbiya jarayoni har doim ham yetarli darajada samarali bo‘lmaydi. Yuqorida ijtimoiy ta’lim vazifasini ko‘rib-chiqib, ko‘rsatdiki, bolada muayyan bir ijtimoiy bilim, malaka va ko‘nikmalar shakllanishi kerak ularning shakllanish jarayoni masalan, otaga, onaga bo‘lgan g‘amxo‘r, e’tiborli, mehribon, rahmdil munosabatlarning shakllanishi bilan bog‘liq. Agar qandaydir sababga ko‘ra bolada ijtimoiy bilimlar shakllanmagan bo‘lsa, demak munosabatlar shakllanmagan, ya’ni unga zarur bo‘lgan ijtimoiylashuvda qandaydir mos hislatlari ham shakllanmagan. Shuning uchun ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayonida boladagi shunday ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xislatlar shakllangan bo‘lishi kerak shuni o‘zi ijtimoiy tarbiyani vazifasidir. Ya’ni ijtimoiy tarbiya deganda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatli bola shaxsi xislatlarining shakllanishi maqsadga qaratilgan jarayoni tushuniladi.

Tarbiya jarayoni – uni tiklash, rivojlantirish va hayotda joriy qilish, ta’lim, milliy, ma’naviy-axloqiy qadriyat va normalar bilan bevosita bog‘liq. Ular xalq pedagogikasi, urf-odatlar, bayramlari, o‘yinlari va boshqalarda o‘z ifodasini topadi. Ma’naviyat va ma’rifat» markazi, «Ma’rifatparvarlar», «Oltin meros», «Tarixchilar», «Faylasuflar» va boshqa jamoat tashkilotlari, jamg‘armalari yuqorida qo‘yilgan vazifalarni hal etishga katta imkoniyatlariga egadir.

Tarbiyasi qiyin bo'lganlarning kelib chiqishining ijtimoiy – psixologik va psixologik – pedagogik sabab va omillarni besh guruhga ajratish mumkin:

1. Noqulay oilaviy muhit, ota – onalari o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlar.

2. O'qishga bo'lgan qiziqishning pasayib ketishi va shu munosabat bilan o'qishdan sovib ketishi (60 – 70 % voyaga yetmagan jinoyatchilar bir sinfda ikki yil o'qigan).

3. Ijtimoiy faolligi past va maktab jamoasida noqulay holat mavjud.

4. Mikro muhitning salbiy ta'siri, salbiy referent guruh ta'siri.

5. Biror faoliyat yuzasidan o'z moyilligini, qiziqishini namoyon qilish imkoniyati bo'lmasligi.

Deviatsiya va uning turlari.

Jamiyat tomonidan qabul qilingan hatti - harakatlar, qoidalar va me'yorlardan chekingan o'smirlarni og'ir yoki tarbiyasi qiyin yoki tarbiyasi og'ir o'smirlar deb atashadi. Tarbiyasi qiyin o'smirlar deganda turli xil sabablarga ko'ra pedagogik ta'sirlarga qarshi chiquvchi bolalar tushuniladi. Jamiyatda o'rnatilgan me'yor va qoidalarga rioya qilmaydigan shunday tarbiyasi og'ir o'smirlarni ilmda deviatsiya deb atashadi.

Deviant hatti-harakat - bu psixik sog'lom shaxslar tomonidan me'yoriy qoidalarni buzish hollaridir.

Deviatsiya - bu ijtimoiy pedagogik muammo bo'lib, inson ruhiy olamidagi, uning atrofidagi muhitning o'zgarish hollari bilan bog'liq. Bu hol, ayniqsa, o'smir yoshdagi bolalarga xosdir. Chunki bu yosh eng qiyin va murakkab davr bo'lib, bu yoshdagi bolalarning anatomo - fiziologik, intellektual, axloqiy va boshqada jihatlarida o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlar o'z navbatida ularning psixikasida o'zgarishlar ro'y berishiga zamin yaratadi. Ularning ijtimoiy statusida, jamoada o'zini tutishida o'zgarishlar ro'y berib, ularni ko'proq «Men kimman?» - degan savol qiynaydi.

Deviatsiya o'z ichiga deviant, delinkvent va kriminal xatti - harakatlarni birlashtiradi.

(Deviant hatti - harakat - bu kichik ijtimoiy munosabatlar) hamda xarakter, jinsiy va yosh xususiyatlari jihatidan yaqin kichik ijtimoiy guruhlariga xos ijtimoiy me'yorlardan, hatti - harakatlar va qoidalardan og'ish, chekinishning bir turidir! Ya'ni bu turdagi harakatni intizomsizlik deb ham atash mumkin. Agressiya, chaqiriq, ishda va mehnat faoliyatida o'z boshimchalikka yo'l qo'yish, bolalar va o'smirlarning ichkilikka berilishi, daydib yurishlari, oliftagarchilik qilishlari, assotsial xarakatlarga berilish kabilar deviant xarakatlarning asosiy ko'rinishlaridir. Ma'lum vaziyatlarda bolalar va o'smirlarning shu kabi hatti - harakatlarni namoyon etishi deviant harakatlarning tipik xususiyatidir.

Delinkvent hatti-harakat - deviant harakatlardan farqli o'laroq ular vaziyat ta'sirida emas, balki yuqoridagi kabi assotsial harakatlarning doimiy harakterga ega bo'lishidir.

Delinkvent harakatlarning quyidagi turlari mavjud:

➤ haqoratlash, xo'rlash, azoblash va undan huzurlanish kabi agressiv bosqinchilik harakatlar;

➤ kichik o'g'riliklar, ta'magirlik, avtotransport va boshqadan kerakli buyum va anjomlarni o'g'irlash kabi moddiy fondga ko'rishga qaratilgan o'z shaxsiy manfaati yo'lidagi harakatlar;

➤ narkotiklar sotish va tarkatish.

Kriminal hatti-harakat - bu jinoiy javobgarchilikka tortilishta yoshi yetgan shaxslarning huquqlarga zid harakatlari bo'lib, ular ustidan jinoiy ish qo'zg'atish jarayonidir. Kriminal harakatlarga deviant va delinkvent harakatlar asos yaratadi. Deviant harakterlarning asosiy sabablari bolalar, o'smirlar va umuman ba'zi jamiyat a'zolarining jamiyat tan olgan me'yorlarga zid keluvchi hatti - harakatlarni namoyon etishi - bu birdaniga, o'z-o'zidan bo'ladigan hodisa emas. Ya'ni o'sha insonlarning shunday yo'l tutishiga nimadir sabab bo'ladi. Ya'ni xar bir fazilat o'z tarixiga ega. Insonning rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan turli xil faktorlarga bog'liq: irsiy, muhit, tarbiya, iisonning shaxsiy amaliy faoliyati va x.k.

Voyaga yetmagan yoshlar orasida deviant harakatlarni vujudga keltiruvchi qator faktorlar mavjud. Jumladan:

1. Biologik faktorlar, ya'ni bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvini murakkablashtiruvchi noxush fiziologik va anatomik holatlar: Ularga:

- ✓ genetik (o'ta aqli zaiflar, ko'rlar, karlar va x.k),
- ✓ psixofiziologik (ya'ni inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, somatik xarakatlarni, allergiyalar va toksik kasalliklarni vujudga keltiruvchi turli xil ziddiyatlar, kimyoviy moddalar, energiyalar va x. k),

- ✓ fiziologik (atrofdagilarda nohush kayfiyat uyg'otuvchi tashqi qiyofa, tilning duduqligi va x..k)

2. Psixologik faktorlar, ya'ni insondagi psixopotologik yoki aksentuant (xaddan tashqari) holatlar. Bu faktorlar asab kasalliklari (psixopatiya, nevrasteniya kabi kasalliklardir)

3. Ijtimoiy-pedagogik faktorlar, ya'ni bolalik davridan boshlab maktab, oila va jamoatchilik tarbiyasidagi nuqsonlar.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy faktorlar, ya'ni bu jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikdir: jamiyatning boylar va kambag'allar deb ajratilishi, xalqning ma'lum qismining qashshoqlanib qolishi, oylik maoshining kamligi, ishsizlik, inflyatsiya va x.k.

5. Ma'naviy-axloqiy faktorlar. Ularga birinchidan, jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarining qadrsizlanishi, insonlarning ma'naviy qashshoqlanishi kirsam, ikkinchidan, muayyan jamiyatning undagi ro'y berayotgan deviant harakatlarga befarqlik, loqaydlik kiradi.

Deviatsiya konsepsiyasida rehabilitatsiya, profilaktika va korreksiya masalalari.

Deviant hatti-harakatdagi bolalar va o'smirlarga nisbatan profilaktika, rehabilitatsiya va korreksiya ishlari amalga oshiriladi.

Rehabilitatsiya - bu bola shaxsining huquqi, huquqiy status, sog'ligi, ishga layoqatsizligini tiklashga qaratilgan kompleks, ko'p darajali, bosqichli va dinamik tizimdir. U profilaktika va korreksiya singari aspektlarni o'z ichiga oladi.

Profilaktika - bu rehabilitatsiya tizimidagi shaxsning rivojlanishidagi u yoki bu chekinishlarni yo'qotishga shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan tadbirlardir. U ko'proq ijtimoiy muhit bilan bog'liqdir.

Korreksiya - bu hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyat hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogikada “me’yor” va “me’yordan og‘ish” tushunchalari. Har qanday jamiyatda, u jamiyat qaysi rivojlanish bosqichida bo‘lishidan qat’iy nazar, doimiy e’tiborga muhtoj odamlar bor. Bular o‘z jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida chetga chiqish, og‘ish bor bo‘lgan odamlardir. Ular doim bir guruh bo‘lib ajralishgan, jamiyat va davlatda ularga nisbatan alohida munosabat shakllangan. Hozirgi vaqtda AQSh va Yevropa davlatlarida u yoki bu og‘ishlarga ega bo‘lgan kishilarning jamiyatga integratsiyalashuvi konsepsiyasi amalga oshirilmoqda. Mazkur konsepsiyaga ko‘ra, bu odamlar ham jamiyatning teng huquqli, biroq ba’zi bir muammo yoki cheklangan imkoniyatlarga ega a’zosi sifatida qaraladi. Hozirda cheklangan imkoniyatli shaxslar soni bugun dunyoda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham ortib borayotgani sababli, bu muammo yanada jiddiylashmoqda. Shuning uchun bunday odamlar, avalambor, bolalarning ko‘payishini reja asosida ijtimoiy hal qilishni talab qiluvchi doimiy omil sifatida qarash lozim. Tibbiyot, psixologiya, sotsiologiyada “me’yor” tushunchasining o‘z ko‘rsatkichlari va me’zonlari mavjud. Me’yorga mos kelmaydigan jihat - “og‘ish”, “chetga chiqish” deyiladi.

Ijtimoiy pedagogika uchun “me’yor” va “me’yordan og‘ish” tushunchalari nihoyatda ahamiyatlidir. Ular bola xulq-atvori va rivojlanishi jarayonini tavsiflash uchun qo‘llanadi. Og‘ish ham ijobiy, ham salbiy tavsifga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, bola rivojlanishida aqliy qoloqlik ham, o‘ta qobiliyatlilik ham me’yordan og‘ish hisoblanadi. Xulq-atvordagi jinoyatchilik, aroqxo‘rlik, giyohvandlik va boshqa salbiy og‘ishlar shaxsning ijtimoiy shakllanish jarayoniga va jamiyat rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Og‘ish turlari. Me’yor tushunchasi tibbiyotda, psixologiya, pedagogik, sotsiologiya va boshqa fanlarda keng qo‘llanilib kelinadi. Bu tushunchaga aniq va yaxlit, yagona ta’rif berishga bo‘lgan intilish muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlangan. Masalan, faqatgina tibbiyotda olimlar 200 ga yaqin ta’rif berganlar. “Me’yor” tushunchasini ifodalab berishning murakkabligi shundaki, u nafaqat terminologik, balki mazmun, mohiyat jihatidan ham yagona ifodaga ega emas. Masalan, axloqiy me’yorlarni hamma uchun doimo bir

xil, deb belgila olmaymiz Shu sababli ham ular birinchidan, milliy o‘ziga xoslik, bundan tashqari vaqt o‘tishi bilan qayta-qayta o‘zgarib turadilar. Ijtimoiy pedagogikada “me’yor” va “me’yordan og‘ishlik” tushunchalari juda muhimdir. Ular bolaning ijtimoiy xulq-atvori rivojlanish jarayonini xarakterlash uchun qo‘llaniladi.

Xulqiy og‘ishlik negativ va pozitiv xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, me’yordan xulqiy og‘ishlik holati bola rivojlanishida ham aqliy norasolik va qobiliyatlik bo‘lib ifodalanishi mumkin.

Me’yordan chetga chiqishni shartli ravishda to‘rt guruhga ajratsak bo‘ladi: jismoniy, ruhiy, pedagogik va ijtimoiy. Quyida ularga batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Me’yordan jismoniy og‘ish, avvalambor, inson sog‘ligiga bog‘liq. Sog‘likdagi og‘ish irsiy omillar yoki biror-bir tashqi holatlar og‘ir ekologik vaziyat, ichimlik suvining sifatsizligi, oila hayoti darajasining pastligi va boshqalar asosida yuzaga kelishi mumkin. Sog‘ligida va rivojlanishida og‘ishga moyillarning xilma xil tasniflari mavjud. Umumjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 1980 yilda cheklangan imkoniyatlarning uch bo‘g‘ini shkalasining britanacha variantini qabul qildi:

1) kasallik, xastalik - ruhiy yoki fiziologik funksiyalar, anatomik struktura unsurlarini har qanday yo‘qotish yoki ularning anomaliyasi;

2) cheklangan imkoniyat - inson uchun norma hisoblangan chegarada biror-bir faoliyatni bajarish qobiliyatini yo‘qotish yoki cheklab qo‘yish;

3) nogironlik yosh, jins yoki ijtimoiy omillardan kelib chiqib, insonning biron-bir faoliyatni bajarishini cheklovchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi cheklangan imkoniyat.

G‘arb davlatlarida “imkoniyatlari cheklangan shaxs” tushunchasi mavjud. Ularga ta‘lim standartlarini o‘zlashtirishga to‘sqinlik qiluvchi jismoniy yoki ruhiy kamchiliklarga ega bo‘lgan bolalar kiradi. Shuningdek, “nuqson” tushunchasi ham mavjud bo‘lib, uning to‘rt turi: ruhiy, jismoniy, murakkab va og‘ir turlari mavjud. Jismoniy nuqsonlarga inson organining faoliyat yurgizishiga yoki rivojlanishiga halaqit beradigan doimiy yoki vaqtinchalik kamchiliklar, shuningdek, har qanday somatik yoki yuqumli xastaliklar kiradi.

Ruhiy nuqsonlarga insonning ruhiy rivojlanishidagi doimiy yoki vaqtinchalik kamchilik kiradi. Bularga nutq va miya faoliyatining, shuningdek, aqliy rivojlanishning buzilishlari xosdir. Murakkab nuqson belgilangan tartibda tasdiqlangan jismoniy va ruhiy kamchiliklarni o'zida mujassam etadi. Og'ir nuqson belgilangan tartibda tasdiqlangan shunday nuqsonki, bu nuqson mavjud bo'lgan holatda davlat ta'lim standartlariga mos ravishda ta'lim olishning iloji umuman bo'lmaydi. Bola jismoniy rivojlanishidagi og'ishlarga kasallik, ko'rish, eshitish qobiliyatlarining buzilishlari kiradi. Ruhiy og'ishlar, avvalambor, bolaning aqliy rivojlanishi hamda ruhiy nuqsonlariga bog'liqdir. Bu turdagi og'ishlarga ruhiy rivojlanishning to'xtab qolishi va oqibatda, bolalarning aktiy jihatdan ortda qolishi kiradi. Aqliy qoloqlik asab tizimining tug'ma nuqsonlari yoki jarohati asosida paydo bo'ladi. Bolalarda aqliy qoloktik turli darajada yengil aqliy zaiflikdan, chuqur - tentaklikkacha namoyon buladi. Ruhiy og'ishlarga turli darajadagi nutq buzilishlari ham kiradi. Ruhiy og'ishlarning yana bir turi emotsional-irodaviy sohadagi faoliyatning buzilishidir. Bu og'ish turining eng og'ir shakllari deb autizm (yunoncha aytos - o'zim) - muloqotga ehtiyoj sezmaslik va suitsid (o'z-o'zini o'ldirish) kabilarni keltirish mumkin. Bolalarning iqtidorliligi alohida og'ish turi hisoblanadi.

Bu biror-bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlab beruvchi qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unligidir. Iqtidorlilik darajasi nafaqat qobiliyatlarga qarab, balki faoliyat mahsullari tavsifga qarab ham belgilanadi. Pedagogik og'ishlar tushunchasi pedagogika va ijtimoiy pedagogikada hozircha kam qo'llaniladigan tushunchadir. Vaholanki, pedagogik faoliyatda pedagogik maqsadlarni amalga oshirish, shaxs rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib berish uchun ta'lim olayotganlar faoliyatini tartibga solishda turli me'yorlar qo'llanilmoqda. Avvalambor, bu ta'lim darajasini belgilaydigan standartlarga, shuningdek, o'quvchi intilayotgan maqsadlarga tegishli. Bularga qo'shimcha qilib, ta'lim olishda yuqori natijalarni ta'minlab beruvchi bola rivojlanishining me'yorlarini ham kiritsak buladi.

Ta'lim olinishi yoki olinmasligi me'yorlari haqida nihoyatda, aniqlik bilan gapirsa buladi. Turli sabablarga ko'ra ta'lim ololmagan bolalar ham mavjud bo'lib, me'yordan bunday og'ishlarni

“pedagogik og‘ish” desak buladi. Umumiy ta‘lim olmagan, maktabga bormaydigan, faqatgina boshlang‘ich maktabni tugatgan, umumiy o‘rta ta‘lim olmagan bolalarni alohida toifaga kiritamiz. Bunday holatlarni yuzaga kelishining sabablari talaygina: dars qoldirish o‘qishga intilishni susaytiradi, oiladagi notinch vaziyat bolani pul topish uchun ko‘chaga chiqaradi, ekologik va ijtimoiy kataklizmalar bolalar ota-onalaridan judo bo‘lishlariga olib keladi.

Daydilikka moyilligi bo‘lgan bolalar soni ham ko‘paymoqda. Bolalar maktablarda tahsil olishmayotganining yana bir qancha sabablarini keltirish mumkin. Ruhiy va jismoniy rivojlanishda og‘ishga ega bo‘lgan bolalarning ta‘lim olishlaridagi katta qiyinchiliklarini ham ta‘kidlab o‘tish joiz. Yuqorida aytilganidek, bunday bolalar uchun alohida maktablar bo‘lib, u yerda ular yetuk mutaxassislar qo‘l ostida ta‘lim olishadi. Biroq ko‘p narsa bola qayerda yashashiga (qishloqyoki shaharda) va qanday oiladan ekanligiga bog‘liq. Ba‘zi sog‘lig‘ida muammosi bor bolalar uchun ta‘lim uyda individual tarzda beriladi. Bu bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvining asosiy muammosi ularning keyinchalik kasbiy ta‘lim olishlari bilan bog‘liq. Ijtimoiy rivojlanishlarining buzilib bo‘lganligi sababli, biror-bir kasbiy faoliyatni tanlay olmaydigan bolalarni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Bunday bolalarni biror-bir ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sohasida o‘zlarini sinab ko‘rish xohishlarining yo‘ktigi birlashtiradi. Bu holatdagi og‘ishni yengib o‘tish uchun mutaxassisning ijtimoiy pedagogik yordamiga muhtoj bolalar ham paydo bo‘ladilar. Ijtimoiy og‘ishlar “ijtimoiy me‘yor” tushunchasi bilan bog‘liqdir. Ijtimoiy me‘yor bu insonlar yoki ijtimoiy guruhlar faoliyati, ular xulq-atvorining jamiyat rivojlanishining biror-bir bosqichida shakllangan yoki rasman o‘rnatilgan tartib-qoidalari namunasidir. Aslida, ijtimoiy me‘yor kerakli xulq-atvor, ijtimoiy munosabatlar va faoliyatlar modelidir.

Bolalar uchun ijtimoiy me‘yorlarning o‘ziga xos xususiyati tarbiya omili hisoblanib, tarbiya jarayonida ijtimoiy me‘yor va qadriyatlar ijtimoiy muhitga kirish, ijtimoiy tajriba va rollarni o‘zlashtirishning sodir bo‘lishidadir. Bu holatda tarbiyaning boshqarish funksiyasi eng muhim vazifani bajaradi, chunki uning vazifasi bolalar ongi va xulq-atvoriga ta‘sir qiluvchi omillarni

kerakli tarbiyaviy samaradorligi ta'minlanadigan darajada tashkil qilishdir. Sotsiologik, psixologik va pedagogik adabiyotlarda deviant xulq-atvorga ega bolalar muammolari ustida yetarlicha ish olib borilgan. Bunday xulq-atvorning sabablari ham yaxshi o'rganib chiqilgan. Ular o'smirlik davrining qiyinchiliklari, jamiyatdagi ijtimoiy maqomning noaniqligi, davlat rivojlanishining beqarorligi, bola mustaqil chiqib keta olmaydigan ekstremal holatlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq. O'zbekistonda bunday bolalarga yordam ko'rsatish uchun ixtisoslashgan ijtimoiy xizmatlar tuzilmagan. Ijtimoiy xavfli xatti-harakat sodir etgan va 11 yoshga to'lgan bolalarni sud tibbiy-pedagogik komissiyasi xulosasini inobatga olgan holda maxsus maktablar yoki maxsus kasbiy bilim yurtlariga yuborish mumkin.

M.A. Galaguzova tomonidan berilgan me'yordan og'ish turlarining tasnifi

| Jismoniy | Ruhiy | Pedagogik | Ijtimoiy |
|---|---|--|---|
| irsiy kasallik, ko'rish qobiliyatining buzilishi, eshitish qobiliyatining buzilishi, suyak tayanch tizimidagi kasalliklar, nogironlar va boshqalar. | ruhiy rivojlanish-ning buzilishi, aqliy qoloqlik, nutq buzilishi, o'ta iqtidorlilik | umumiy o'rta ma'lumot olishdan chetga chiqish, kasbiy ta'lim olishdan chetga chiqish, o'zlashtirishda orqada qolish. | yetimlik; xulq-atvor me'yoridan og'ish; aroqxo'rlik; norkamaniya; taksokomaniya; fohishabozlik; daydilik, o'g'rilik va b. |

Shuningdek, ijtimoiy pedagogning me'yordan og'ishgan bolalar bilan samarali ish yuritishi og'ishlar profilaktikasiga, muayyan me'yor va qoidalarni buzilishining oldini olish, xulq-atvorida u yoki bu og'ish aniqlangan bolalarning reabilitatsiyasiga qaratilishi lozim.

Reabilitasion ijtimoiy pedagogik texnologiyalar

Deviant xulq-atvorga ega o'smirlar bilan ishlashning reabilitasiya dasturlarini tuzishda quyidagilar inobatga olinadi:

1. Voyaga yetmagan bolaning ijobiy hislatlariga suyanish. Ijtimoiy pedagog deviant xulq-atvorga ega bolani qoralay olmaydi. U uchun muvaffaqiyat vaziyatini yaratish orqali uning xulq-atvorida ijobiy hislatlarni topish kerak va ijtimoiy pedagog faoliyatini shunga muvofiq tashkil qilish lozim.

3. Hayotiy intilishlarni shakllantirish. Odatda maktabdagi surunkali muvaffaqiyatsizliklardan so'ng o'smirlar umidsizlikka tushishadi, o'z kuchlariga ishonch yo'qoladi. Bunday o'smir uchun keyingi kasbiy o'z-o'zini anglab olish muhim bo'lib, bu holatda ijtimoiy pedagogning psixolog bilan hamkorlikdagi faoliyati uning kelajakdagi kasbiy o'z-o'zini anglab olish muhimi bo'lib bu holatda ijtimoiy pedagogning psixolog bilan hamkorlikdagi faoliyati uning kelajakdagi kasbini aniqlashga qaratiladi.

4. Uning keyingi kasbiy taqdiri bilan bog'liq faoliyatdan tashqari deviant xulq-atvorli bolani u uchun ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy faoliyatga jalb qilish ham lozimdir. Bu murakkab vazifa hisoblanadi, chunki odatda bu holatda nafaqat u yoki bu faoliyat turiga nisbatan o'zgarishni, balki bolalar jamoasi bilan ham munosabatlarning normallashtirishini talab qiladi. Amaliyotning guvohlik berishicha qiyin tarbiyalanadigan bolalarda boshqa o'quvchilarga qaraganda bo'sh vaqti 4 marta ziyoddir.

5. O'smir bilan o'zaro munosabatlarga hurmat bilan qarash. Dezadaptatsiya bo'lgan bolalarda yaxshi muomalaning yo'qligi sababli har qanday tarbiyaviy ta'sir voyaga yetmagan bola tomonidan qattiq qarshilikka duch keladi. Bunday bolalar bilan ish olib borishda ijtimoiy pedagogdan sabr-matonat talab qilinadi.

Reabilitatsion ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayonida mutaxassis quyidagi vazifalarni bajaradi:

- dezadaptatsiya boshlangunga qadar o'smirda bo'lgan ijobiy xislatlarni tiklash,
- o'smirda u yoki ijtimoiy foydali faoliyatga kirishish orqali salbiy xislatlarini to'g'rilash, intilishni shakllantirish, o'smirning o'z-o'zini belgilab olishdagi ehtiyojini faollashtirish,
- o'smir faoliyatining ijobiy motivasiyasini faollashtirish.

Ta'lim muassasasida bolalar va o'smirlar tibbiy-pedagogik reabilitasiyasining namunasi:

- ta'lim sharoitlarining tibbiy-gigiyenik optimallasuvi (ovqatlanish, jihozlash);
- o'quv-tarbiya jarayonini o'quvchilarning ruhiy-fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ratsional tashkil qilish;
- sog'ligi holati bo'yicha turli o'quvchilar toifalari uchun ta'lim adaptasiyasi;
- o'quvchilarning tibbiy-gigiyenik ta'limi va tayyorgarligi;
- kasalliklarning ommaviy profilaktikasi, o'quvchilar jismoniy holatini optimallashtirish.

Ta'lim muassasalarida reabilitasion faoliyat tizimi.

Reabilitasion faoliyatning vazifalari, ob'ektlari va yo'nalishlari:

1. Ruhiy-pedagogik reabilitasiya.

Ob'ekt – ijtimoiy va pedagogik qarovsiz bolalar.

Vazifalari:

- maktab va oilaviy kamsitishlarni yengish;
- yetakchi faoliyatda muvaffaqiyatga erishish;
- ruhiy va shaxsiy rivojlanishning uyg'unlashuvi;
- ijobiy "Men" obrazini shakllantirish;
- ijtimoiy adovat profilaktikasi.

Bu yo'nalishdagi faoliyat amalga oshiriladigan muassasalar:

Umumta'lim maktabgacha muassasalari, maktablar, oddiy guruh (sinf), korreksiya sinflari. Individual o'qitish maktablari. O'smirlar va bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish markazlari.

Reabilitasion dasturlarni amalga oshiruvchi ishchilar toifalari: Pedagoglar. Amaliy psixologlar. Ijtimoiy pedagoglar. Logopedlar. Korreksion ta'lim o'qituvchilari.

2. Ijtimoiy pedagogik reabilitasiya.

Ob'ekt – nizoli tarbiyaviy vaziyatda bo'lgan dezadaptasiya qilingan bolalar, yetimlar, voyaga yetmagan huquqbuzarlar.

Vazifalari:

- huquqlarni himoya qilish, vasiylik;
- nazoratsizlikni oldini olish;
- ijtimoiy zararli omillar profilaktikasi;
- ijtimoiy maqomning tiklanishi;
- psixofizik va shaxsiy rivojlanishsur'atlarini ushlab turish.

Bu yo‘nalishdagi faoliyat amalga oshiriladigan muassasalar: Go‘daklar uyi. Bolalar uyi. Maktab-internatlar, maxsus maktablar, xospislar, ijtimoiy yordam va ijtimoiy rehabilitasiya markazlari.

Reabilitasion dasturlarni amalga oshiruvchi ishchilar toifalari: Ijtimoiy pedagoglar. Ijtimoiy ishchilar. Amaliy psixolog-tarbiyachilar, bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha inspektorlar, psixoterapevtlar, psixonevrologlar.

3. Tibbiy pedagogik rehabilitasiya.

Ob‘ekt – nogiron bolalar, tez-tez kasalga chalinuvchi bolalar, cheklangan aqliy imkoniyatlarga ega bolalar.

Vazifalari:

- tarbiyaviy mikromuhit gigiyenasi;
- sog‘lomlashtirish va davolash;
- tibbiy profilaktika;
- sog‘liqni saqlash;
- ijtimoiy adaptasiya va rehabilitasiya;
- zaxiradagi imkoniyatlardan foydalanish;
- kompensatorlik funksiyalarni rivojlantirish.


Bu yo‘nalishdagi faoliyat amalga oshiriladigan muassasalar: Funktsional buzilishlarga ega bolalar uchun muassasa. Korreksion maktab. Nogironlar uylari. Sog‘liq saqlash markazlari. Davolash markazlari. Terapevt pedagogika markazlari. Maktabgacha muassasalar va maktablarda logopedik guruhlar. Ruhiy sog‘lik va rehabilitasiya markazlari.

Reabilitatsion dasturlarni amalga oshiruvchi ishchilar toifalari: Pedagog-defektolog. O‘qituvchi-dektolog. Tarbiyachilar. Valsologlar ijtimoiy ishchilar. Ijtimoiy pedagoglar. Tibbiy xodimlar. Psixolog-defektologlar.

O‘quv mashg‘ulotini samarali tashkil etish maqsadida “**Delfi metodi**” interaktiv interfaol metoddan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ushbu metod taklif qilinayotgan muqobil javoblar ichidan eng yaxshisini tanlashga yordam beradi. Buning uchun jamoaning a‘zolaridan muayyan mavzu mohiyatini ochib beruvchi eng maqbul javoblarni bildirish taklif qilinadi. Bildirilgan javob variantlari to‘planadi. So‘ngra jamoaning har bir a‘zosidan ma‘lum ketma-ketlikda mavjud javoblarning har biriga baho berish talab qilinadi.

Ta'limda metoddan foydalanish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

- 1.Deviant xulq-atvor tushunchasiga ta'rif bering.
- 2.Og'ishning qanday turlarini bilasiz?
- 3.Reabilitatsiya nima?
4. M. A. Galaguzova berilgan me'yordan og'ish turlarini qanday tasniflagan?
- 5."Delfi Metodi" qanday olib boriladi?



Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol metod: "Sinkveyn" metodi

Sinkveyn tuzish qoidalari:

- 1-qator: Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).
- 2-qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).
- 3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so'z bilan ifodalanadi (3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi).

4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi (4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi).

5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi (mavzuga sinonim so'z yoziladi).

Namuna uchun: reabilitatsiya

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:

Mavzuga oid keys-topshiriqlarini bajarish

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1. Tarbiyaga ehg kuchli ta'sir qiluvchi omillarga muhit va oilani kiritgan olim kim?

- a) X.X. Niyoziy
- b) A. Navoiy
- c) A. Avloniy
- d) Al-Farg'oniy

2. Ijtimoiy pedagog oila bilan ish yuritishda qanday asosiy rolni bajaradi?

- a) Maslahatchi, himoyachi, metodist
- b) Metodist, himoyachi
- c) Maslahatchi, himoyachi
- d) Maslahatchi, metodist

3. Ijtimoiyashuv deb nimaga aytiladi?

- a) Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy subyektga aylanishi
- b) Bolaning rivojlanishi
- c) Tashqi muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishi
- d) To'g'ri javob yo'q

4. Adaptatsiya nima?

a) Organizimning tashqi muhit bilan adekvat aloqalarning shakllanishi xususiyati

b) Insonni o‘rab turgan va uning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadigan sharoitlar

c) Bolaning individual rivojlanishi

d) Bolalarning shaxsiy rivojlanishi

5. Bolalar psixologiyasining asosiy metodlari qaysilar?

a) Kuzatish, eksperimental, test, anketa

b) Kuzatish, eksperimental

c) Test anket, faoliyat

d) Genetik metod, donalash metodi

6. Shaxsiy rivojlanishga ta‘sir etadigan omillar qaysilar?

a) Irsiyat va Muhit

b) Ta‘lim va tarbiya

c) Atrof muhit

d) Faoliyat

7. MTTda ijtimoiy pedagogik faoliyati qanday bosqichlardn iborat?

a) Tashxis, amaliyot, tayyorlov

b) Amaliyot, faoliyat, ta‘lim

c) Amaliyot, mashqlar

d) Metodlar, tamiyillar

8. Shaxs rivojlanishining asosiy omillari qaysilar?

a) Biologik va ijtimoiy omillar

b) Irsiyat va tashqi muhit

c) Biologik va tashqi muhit

d) Irsiyat va ijtimoiy omillar

9. Tarbiya qanday turlarga bo‘linadi?

a) Oilaviy, diniy, itimoiy

b) Ijtimoiy ,diniy

c) Oilaviy, diniy, tarbiyaviy

d) Ta‘limiy, tarbiyaviy

10. Kimning asarida tarbiyani insonparvarlashtirish zarurati haqidagi g‘oyalar bor?

a) Yan Amos Komenskiy.

b) Jan Jak Russo.

c) Adriana Gel‘vetsiy

d) Robert Ouen

IJTIMOIIY PEDAGOGIK FAOLIYATNING BOLALARNING MOSLASHUV KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Tayanch iboralar: *yengil adaptatsiya, o‘rta adaptatsiya, og‘ir adaptatsiya, adaptatsion bosqich, kompleks usul, mikroijtimoiy muhit, ijtimoiy adaptatsiya, adaptatsion mexanizm, adaptatsiya*

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Adaptatsiya tushunchasi.

Adaptatsiya – organizmning tashqi muhit bilan adekvat aloqalarning shakllanish xususiyati. Shuningdek, adaptatsiya bu organizm faoliyatini tashqi muhit ehtiyojlariga qarab o‘zgartirish qobiliyati hamdir.

Barcha tirik mavjudotlar o‘zgaruvchan, atrof-muhitga doimiy adaptatsiyani ta’minlovchi mexanizmlarga ega. Bu qobiliyat gomeostaz asosida ro‘y beradi. Biroq atrof-muhitning bunday o‘zgarishlarini oldindan ko‘ra bilish va unga ko‘nika olish faqat insonga xosdir. Insonning bu yuqori adaptativ qobiliyati tug‘ma bo‘lmay, insonning muhit bilan doimiy aloqasining oqibati sifatida rivojlanib keladi.

Insonning ko‘nikish reaksiyalari shakllari ijtimoiy adaptatsiya sifatida aniqlanishi lozim. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o‘laroq, inson ijtimoiy muhit o‘zgarishlariga ko‘nika olishi va bu holatlar uchun yurish-turish reaksiyalarini ishlab chiqishi lozim.

Insonda adaptatsion mexanizmlarda hal qiluvchi rolni ijtimoiy omillar o‘ynaydi. Ilmiy-texnikaviy rivojlanish, urbanizatsiyaning tezlashishi tabiat va kosmosni faol o‘zlashtirish, aloqa vositalarining kengayishi va kompyuterlashtirish, davlatlararo integratsiya jarayonlari insonda o‘zgaruvchan muhit sharoitlariga tez ko‘nika olish qobiliyatini shakllantirish masalasini muhimlashtiradi. Bu qobiliyat shaxs rivojining yanada hal qiluvchi ahamiyatga ega komponentiga aylanmoqda.

Insonning tug‘ilishi adaptatsiya borasidagi ilk sinovdir. Yangi tug‘ilgan chaqaloqda ham ko‘nikish mexanizmlari mavjud bo‘ladi.

Biroq go‘daklik davrida muhit bilan faol o‘zaro munosabatlar natijasida oliy nerv faoliyatida ba’zi murakkab funksiyalar vujudga keladi. Miyada axborot to‘plash va uni qayta ishlash bolaga ijtimoiy muhitning ijtimoiy tajribasini tarbiyaviy ta’sir orqali o‘zlashtirish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda go‘daklik davridagi ijtimoiy adaptatsiyaga qiziqish ancha ortdi.

Ta’lim muassasalalarida tarbiyalanayotgan barcha bolalar uchun ijtimoiy adaptatsiya muammosi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda bolaning ko‘nikish imkoniyatlarini oshirish, uning ijtimoiy aloqalarini kengaytirish bola shaxsining shakllanishi uchun nihoyatda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Bola shaxsining rivojlanishi uning aloqalarining xilma-xilligiga bog‘liq. Demak, bolaning har tomonlama rivojlanishi uning aloqalarining ham har tomonlama rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ijtimoiy aloqalarning barvaqt shakllanishi tarbiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy adaptatsiya qobiliyati oliy nerv faoliyatining rivojlanishiga bog‘liq ravishda postanal antogenezda shakllanadi. Bu jarayon hayotning ilk uch yilida ayniqsa jadal kechadi.

Shaxsning ijtimoiy adaptatsiyasi uchun yangi ijtimoiy muhitdagi aloqa va me’yorlar haqidagi ma’lumot muhim ahamiyatga ega. Yangi ijtimoiy talablarga ko‘nikish bir qancha ruhiy-hissiy qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi.

Bola ijtimoiy adaptatsiyani o‘z tajribasi asosida ta’lim-tarbiya jarayonida o‘rganadi. Ijtimoiy adaptatsiya qobiliyatini hosil qilish ko‘nikish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga bolaning ko‘nikish imkoniyatlarida inqirozli holatlar ham paydo bo‘ladi. Bu imkoniyatlar esa boshqalar bilan aloqalarning rivojlanishi, bola miyasida axborotlarni qayta ishlashga bog‘liq bo‘ladi.

Bolada aniq bir mikroijtimoiy muhitning shartlari sifatida shakllanadigan yurish-turish shakllari ijtimoiy adaptatsiyaning fiziologik holati hisoblanadi. Bu sharoitlar o‘zgarganida, masalan, bolalar muassasasiga kirganda yurish-turishining ham o‘zgarishi

talab qilinadi. Turli yosh davrlarida bu turli darajadagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Bolalarning ta'lim muassasalaridagi adaptatsiyalarining asosiy xususiyati bolada oilasida shakllanadigan ota-onasi bilan munosabati va safdoshlar bilan shakllanadigan munosabatlari orasidagi farqdir.

Bolaning bolalar muassasasi jamoasiga ko'nikishida bola doim uyda, oilasida o'tkazgan davrlarida shakllangan ota-onasi bilan munosabatlarining buzilishi haqida gap ketmaydi. Bunda yaqin insonlari bilan ayrimli va oilaviy xarakterga ega bo'lmagan yangi aloqalarning shakllanishi nazarda tutilmoqda.

Bolaning yangi muhit sharoitlari bilan tanishganidanoq oldiga qo'yilgan talablar shubhasiz u yoki bu darajadagi qiyin masala hisoblanadi. Murakkablik darajasi bolaning individual xususiyatlariga bog'liq. Faqatgina ba'zi hollarda murakkablik darajasi bola imkoniyatlaridan oshib ketadi. Shuning uchun bolaga bu murakkabliklarni yengishga yordam beradigan yo'llarni qidirish lozim, chunki, ayni shu paytning o'zida uning ijtimoiy aloqalarining kengayishi ham sodir bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bolalar muassasalari sharoitlariga moslashuvi xususiyatlari.

Hayotning ilk uchinchi yilida bolalar bog'chasiga qabul qilinish boladan shu paytgacha shakllanib bo'lgan yurish-turish stereotipini o'zgartirishni talab qiladi. Ham bolaning sog'ligi, ham har tomonlama rivojlanishi borasida biror-bir noxush hodisalar paydo bo'lishini bartaraf etish uchun ijtimoiy pedagoglar ta'lim muassasalari ishini takomillashtirish borasida yordam ko'rsatishlari va bolalar hayotini har tomonlama qulay tashkil qilishda ishtirok etishlari zarur.

Bu yoshdagi bolalarning xususiyatlari:

– organizm barcha tizimlarining funksional yakunlanmaganligi va ular rivojlanishining nihoyatda tez sur'atidir;

– jismoniy va ruhiy rivojlanishning o'zaro bog'liqligi;

– go'dak hayotining birinchi yillarida kattalarning o'rni.

Bola tug'ma yurish-turish shakllariga ega emas va u ijtimoiy muhitda rivojlana turib uch asosiy komponentni: hudud (narsa-predmetlar, ulardan foydalanish vositalari), vaqt (kundalik tartib) va

muomala shakllarini o'zlashtiradi. Demak, bola tug'ilishdanoq uning faolligi "bola-kattalar" munosabatlari ichida tartibga solinadi.

Yosh bolalar yurish-turishining xarakterli jihati yuqori hissiyotchanlikdir. Bolaning emotsional holati uning rivojlanishi va tarbiyalanganligi darajasiga bog'liq. Atrof-muhit va odatiy hayot tarzining buzilishi birinchi navbatda emotsional holatning buzilishiga olib keladi.

O'yin – bola faolligining asosiy va o'ziga xos shaklidir. Bu o'sayotgan bola organizmining tabiat, atrof-muhit ob'ektlari haqida ma'lumot yig'ishga, kattalarga taqlid qilishga, faol harakat qilishga ehtiyojdir. O'yin bolaning muhit bilan o'zaro aloqasi shakllanadigan faoliyat turidir. Shuningdek, o'yinlarda bola bajara olmaydigan talablar qo'yilmaydi. Bundan kelib chiqadiki, o'yin bola hayoti, madaniyati va faoliyatini tashkil qilish shakli sifatida bolaning yangi muhitga ko'nikish shartidir.

Yuqorida aytilganlarni barchasini inobatga olib, ijtimoiy pedagogning ta'lim muassasidagi bolalarning muvaffaqiyatli adaptatsiyasiga qaratilgan faoliyati quyidagilar ekanligini aytsak bo'ladi:

1. Adaptatsion bosqichning kechishini og'irlashtiruvchi va bolalarning kasallanish darajasini oshiruvchi yetakchi biologik va ijtimoiy omillarning kompleks tuzilmasini aniqlash;

2. Kompleks usullardan foydalangan holda adaptatsion bosqichning tahlili;

3. Adaptatsion bosqich kechishini yengillashtiruvchi va qulay sog'liq holatini saqlashga yordam beruvchi chora-tadbirlarni izlash va ishlab chiqish.

Ijtimoiy adaptatsiya bolaning ruhiyatida qizg'inlikni paydo qilmasdan iloji yo'q. Buning ilk namoyon bo'lish shakllari emotsional holatning buzilishidir.

Adaptatsiyaning noxush holatlarini maksimal bartaraf etish uchun ijtimoiy pedagog 9oylikdan 1,5 yoshgacha bo'lgan bolalar mikro ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarni og'ir o'tkazishlarini inobatga olishi lozim. Shuningdek, adaptatsiya jarayonini oilaviy tarbiyaning quyidagi kamchiliklari ham og'irlashtirishi mumkin:

- noto'g'ri ovqatlanish;
- bolani noto'g'ri belash;

- salbiy odatlar;
- yoshiga mos kelmaydigan ko‘nikmalar;

Ijtimoiy pedagog faoliyati uch bosqichdan iborat bo‘lishi kerak: tashxis, tayyorlov, amaliyot.

Ijtimoiy-gigiyenik jihatlarga bag‘ishlangan tadqiqotlarda emizikli va maktabgacha yoshdagi bolalarning adaptatsiya davrida bir qator muhim parametrlarni, ya’ni kasallanish, yurish-turish, ruhiy rivojlanishidagi o‘zgarishlarni e’tiborga olish kerakligi ta’kidlanadi.

Ijtimoiy pedagog bolalarning ko‘nikish darajasini aniqlashi uchun quyidagi tasnifga tayanishi lozim:

1. Yengil adaptatsiya – bolaning yurish-turishi 10-15 kun ichida me’yoriy holatga qaytadi. Bola MTMga qatnay boshlaganidan so‘ng bir oy o‘tgach, o‘zini me’yorda tuta boshlaydi.

2. O‘rta adaptatsiya – bolaning yurish-turishi yoki emotsional holatidagi o‘zgarishlar 15-30 kun ichida me’yoriy holatga qaytadi. Agar avval unda ozish kuzatilgan bo‘lsa, keyinchalik u o‘z vaznini tiklab oladi. MTMga qatnay boshlashidan bir oy mobaynida bir marotaba yengil kasallikka chalinadi va 7-10 kun MTMga kelmasligi mumkin.

3. Og‘ir adaptatsiya shunda namoyon bo‘ladiki bolalarda tez-tez qaytadan kasal bo‘lish kuzatiladi va u kasalliklar ba’zi hollarda jiddiy tus olishi mumkin (bronxit, pnevmaniya). Bu holatda adaptatsiya bir oydan ziyod vaqtga cho‘ziladi, rivojlanish va sog‘liq ko‘rsatgichlarida noxush holatlar ham namoyon bo‘ladi.

Birinchi bosqich patronaji xaritasi:

1. Ota-onasi haqida ma’lumotlar:

- otasi (F.I.Sh., tug‘ilgan yili, mansabi, ish joyi);
- onasi (F.I.Sh., tug‘ilgan yili, mansabi, ish joyi);
- onasida homilaning kechishi va bola tug‘ilishi.

2. Maishiy sharoitlari:

- istiqomat qiluvchilar soni;

- yashash joyiga baho berish (qulayliklari);
- yuvinish moslamalari;
- yashash joyi havosining tozaligi;
- bola bilan birga yashayotgan bolalar qaysi muassasalarga qatnashadi?

3. Bola haqida ma'lumotlar:

- yoshi;
- sog'ligi;
- bolaga kim g'amxo'rlik qiladi?
- bolaning kun tartibi qanaqa?
- u alohida xona, krovatga egami?

4. Bedorlik vaqti:

- bola bedorlik vaqtini qanday o'tkazadi?
- uyg'oqlik davrining uzunligi;
- sevimli o'yinchoqlari;
- kiyinish-yechinish, yuvinish jarayonlariga munosabati;
- kattalarning bolaga munosabatlari;
- bolaning kattalarga munosabati;
- bola bilan tez-tez sayr qilishadimi?

5. Ovqatlanish:

- ovqatlanish tartibiga amal qilinadimi?
- bola nima yeydi?
- nima yordamida ovqatlantirishadi (butilkami, qoshiqdami)
- bolaning ishtaxasi, faolligi.

6. Uyqu:

- bolani uxlatishda o'zini tutishi;
- uyqudagi kiyimi;
- bola qanday uxlab qoladi (tez, tinch)?
- kuniga necha marta, qancha uxlaydi?
- uyqu xarakteri va uzunligi;
- qanday uyg'onadi (tinch, yig'i bilan)?
- bola kunduzi qayerda uxlaydi (kravat, xona, ko'cha)?
- tunda qanday uxlaydi?
- bolani uxlatish uchun unga so'rg'ich berishadimi?

1-jadval

Adaptatsiya varaqasi

MTM_____ guruh_____ tugʻilgan sanasi_____

MTMga kirish sanasi_____

Kirishdagi yoshi: yosh, oy.

| Sana | Ishtahasi | Uyqu uzunligi, xarakter | Hissiy holati | Kattalarga munosabat | Oʻyinchoqlarga munosabat | Oʻzini tutishi | Tavsiyalar |
|------|-----------|-------------------------|---------------|----------------------|--------------------------|----------------|------------|
| | | | | | | | |

Adaptatsiya varaqasida bolaning hissiy holati, uni ishtahasi, uyquusi inobatga olinadi. Shuningdek, unda kattalar, boshqa bolalar bilan munosabati, individual xususiyatlar ham qayd etiladi. Bu usuldan foydalanilganda adaptatsiya bosqichining tugashi deb shartli ravishda bola yurish – turishining normallasuvi olinadi.

Tayyorlov bosqichi oʻz ichiga ijtimoiy pedagog tomonidan muayyan vaziyat asosida qabul qilinadigan bir qancha chora-tadbirlarni qamrab oladi:

- Ogʻir adaptatsiya sabablarini aniqlash;
- Tuman pediatri, tibbiy xodimlar, psixolog, taʼlim muassasi tarbiyachilari bilan aloqa va hamkorlik oʻrnatish;
- Bolalarning MTM, bolalar bogʻchalariga kirishlaridan avval sogʻlomlashtirish chora-tadbirlarini nazorat qilish;
- Bolalarga ijtimoiy pedagogik yordam rejasini tuzish;
- Bolaning taʼlim muassasalarida yengil adaptatsiyasi uchun oilalar bilan aloqalar oʻrnatish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning adaptatsiyasi uchun ijtimoiy pedagogik, ijtimoiy ruhiy, tibbiy chora-tadbirlarni aniqlash.

Amaliy bosqich quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ✓ Oila va taʼlim muassasasida bolaga bir xil yondashuvni shakllantirish;
- ✓ Oila bilan aloqalar – bolaning MTMga qatnay boshlaganida 3-4 kun mobaynida onasining ishtirok etishi;


- ✓ Axborot bazasining kengayib borishi;
- ✓ Bolalarni ruhiy-emotsional qo‘llab-quvvatlash.

Mavzu yuzasidan nazorat savollar:

1. Adabtatsiya nima va uning qanday turlari bor?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bolalar muassasalari sharoitlariga moslashuvi xususiyatlari
3. Yengil adaptatsiya qanday namoyon bo‘ladi?
4. O‘rta adabtatsiyaning namoyon bo‘lishi qay holatda kechadi?
5. Adabtatsiya qanday hollarda yomonlashishi mumkun?

Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol metod:

“Bahs-Munozara” metodi



Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:
Mavzuga oid manbalar bilan ishlash.

Mavzuga oid test topshiriqlari:



1. Ijtimoiy maktabgacha ta'lim bu –

- a) Davlat tomonidan tashkil etiladigan tashkilot
- b) Xususiy tashkil etilgan tashkilot
- c) Nodavlat talimga qarashli tashkilot
- d) Tarbiya maskani

2. «Bolalarning ijtimoiy moslashuvi» fanini o'qitishning maqsadi nimadan iborat?

- a) Bo'lajak tarbiyachilarni mustaqil davlat O'zbekiston Respublikasining yangi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy husisiyatlarini hisobga olgan holda kichik maktab yoshidagi bolalarni muvofaqiyatli tarbiyalashga tayyorlash
- b) Tarbiyalash metodlarini o'rganish
- c) Tarbiyaviy ishlarning shakllarini to'g'ri tashkil etish
- d) Tarbiya qonuniyatlari bilan tarbiya shakllarini bilish.

3. «Bolalarning ijtimoiy moslashuvi» fanining asosiy maqsadi qaysi qatorda tug'ri ko'rsatilgan?

- a) Ma'naviyat, ma'rifat, odob, axloq va boshqalarda tarbiya metodikasining dolzarb muammolarni ko'rib chiqish, maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayonida qo'llaniladigan metod, vosita, shakl va bolalar uyushmalari haqida tushunchalar berish;
- b) Fanni rivojlantirish
- c) Yosh avlodni rivojlantirish
- d) Tarbiya jarayonini optimallashtirish

4.- bu tarixiy va ijtimoiy voqelik bo'lib, insonlarning hayotda egallagan boy tajribalarini kelajak avlodga etkazishga qaratilgan murakkab, ziddiyatli, uzoq muddat davom etadigan

jarayoni bo‘lib, u insonlarning tafakkurini yuksaltirishga qaratilgandir?

- a) Tarbiya
- b) Ta’lim
- c) O‘qitish
- d) O‘rgatish

5. Birinchi ota-onalar yig‘ilishlarini o‘tkazishga tayyorgarlik qanday shakllarda bo‘ladi?

- a) Ko‘riladigan masalar yuzasidan bir oy oldin tarbiyachining shaxsiy tayyorgarligi
- b) Tarbiyachining umumiy tayyorgarligi
- c) Birinchi ota-onalar majlisini o‘tkazishda ota-onalarning tayyorgarligi
- d) Majlisni o‘tkazishga doir maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorgarligi.

6. Jamoa deganimiz nima?

- a) Yagona maqsad atrofida birlashgan gurux
- b) Yangi fikrlarga ega bo‘lgan gurux
- c) 4-5 kishidan iborat bo‘lgan gurux
- d) Yangi bilimga ega bo‘lgan gurux

7. Jamoa orasida shakllantiriladigan an’analar nechta va qanday ko‘rinishlarda bo‘ladi?

- a) 2ta. Kundalik turmush an’analari, bayram an’analari
- b) 1 ta. An’anaviy
- c) 3ta. Bayram an’analari, kechalar, tadbirlar
- d) 4ta. Bayram an’analari, kontsertlar, to‘garaklar, faoliyatlar

8. Ijtimoiy so‘zining ma’nosi...

a) (lotinchada socialis-umumiy) tushunchasi ostida insonlar orasidagi o‘zaro munosabatlarning turli shakllari bilan bog‘liq barcha jarayonlar tushuniladi.

b) Bevosita insonlararo munosabatlar jarayonidagi tarbiyaviy ta’sir, shuningdek ijtimoiy institutlar faoliyatining tarbiyaviy ta’sirini o‘rganishdan iboratdir.

c) Bunday holda, ular mutaxassisning amaliy faoliyatini belgilaydigan normalar, qoidalar shaklida harakat qilishadi.

d) Fan kategoriyalari shu fanda qo‘llaniladigan yanada kattaroq, amaliy tushunchalardir.

9. Ijtimoiy pedagogika fanining asosiy vazifasi nima?

- a) Ijtimoiy tarbiya muammolarini o‘rganishdan iborat.
- b) O‘zaro munosabatlarida ro‘y beradigan faoliyat
- c) Bevosita insonlararo munosabatlar jarayonidagi tarbiyaviy ta’sir.
- d) Tarbiyaning eng umumiy vazifalarini belgilashdan iborat.

10. Shartli reflekslar fondini boyitish, xarakterni rivojlantirish, xotira, fikrlash, hissiy-irodaviy sohani rivojlanishning qaysi turiga misol bo‘ladi?

- a) Aqliy rivojlanish
- b) Fizik rivojlanish
- c) Fiziologik rivojlanish
- d) Ijtimoiy rivojlanish

TA'LIM, TARBIYA, RIVOJLANTIRISH VAZIFALARINI HAL ETISHGA KOMPLEKS IJTIMOY PEDAGOGIK YONDASHUV

Tayanch iboralar: *ota-onalar qo'mitasi, funksional munosabat, submadaniyat, eksperimental tadqiqot, pedagogik ish.*

Ijtimoiy pedagogning maktab yoshidagi bolalar bilan olib boradigan faoliyati.

Maktab yoshidagi bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy pedagogik ishdan tubdan farq qiladi. Bu faoliyat o'quvchilarning doimiy kamol topishlari va ta'lim olishlariga bog'liq maktabdagi ijtimoiy pedagogik faoliyatning barcha jihatlarini bir bobda ochib berishning iloji yo'q shuning uchun biz eng muhim vaziyatlarini ochib berishga harakat qilamiz. Respublikamizda maktab o'quvchilari bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish rivojlanmoqda. U qisman moziy tajribasi, qisman zamonaviy pedagogik tibbiy, psixologik, yuridik faoliyat turlariga tayanib ish olib bormoqda. So'nggi yillarda pedagogik jamoalar ham paydo bo'lib, ularda maktab nafaqat ta'lim-tarbiya masalalarini, balki o'quvchining boshqa bir qator ijtimoiy muammolarini ham yechmoqda. Davlatimizdagi o'zgarishlar mavjud ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Chunki unda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar aks etmasligi mumkin emas. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan kelib chiqib, umumta'lim maktabi o'zining o'quv, tarbiyaviy va ijtimoiy vazifalarini ko'rib chiqib, birinchi o'ringa quyidagi ijtimoiy vazifalarni qo'yimoqda:

ta'limni bolalar va o'smirlar manfaati asosida tashkil qilish;

maktabda tarbiya ishini ta'lim bilan teng yuritish;

maktab faoliyatini qayta yo'naltirish;

maktab ishini takomillashtirish;

o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, turli bolalar klublari tuzish

Maktabning asosiy ijtimoiy vazifasi bolaning ta'lim-tarbiya olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish hisoblanadi. Zamonaviy maktab sharoitlarida bolalarning ijtimoiy pedagogik himoyasi quyidagicha amalga oshmoqda:

Maktab ma'muriyati, sinf rahbarlari, guruh tarbiyachilari, kam ta'minlangan oilalar farzandalariga moddiy yordam, bepul ovqatlanish tashkil qilishadi. Sinf rahbarlarning bolaning oiladagi holatini o'rganishadi, qiyin bolalar bilan alohida shug'ullanishadi.

Maktabda psixologlar bola qobiliyatlari va qiziqishlarini o'rganishadi. Ular ota-onalar va bolalarga maslahat berishadi.

Maktabda mavjud bo'lgan **sog'liqni saqlash xizmati** maktab o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazishadi, jismoniy tarbiya guruhlari tuzishadi, kuchsiz bolalarga maxsus ovqatlanish tashkil qilishadi, karantin sinflarini nazorat qilishadi.

Maktabda ijtimoiy ishga maktab **direktori o'rinbosarlaridan** biri rahbarlik qiladi. Tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari maktabning ta'lim muassasalari, turli davlat tashkilotlari bilan aloqasiga katta e'tibor qaratadi.

Ota-onalar qo'mitasi ham o'z o'rnida tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashga yordam beradi. Turli davlatlarda ijtimoiy pedagog ishiga ikki yondashuv mavjud: u maktab bilan hamkorlik qiladi yoki u maktabning shtatli xodimi hisoblanadi.

Maktab bilan hamkorlik qila turib ijtimoiy pedagog tez-tez maktabga borib turadi. Ota-onalar va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarining yaxshilanishiga yordam beradi, dars qoldirish sabablarini aniqlaydi. U bolalar bilan qo'pol munosabatda bo'lgan oilalarni, jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalarni aniqlaydi. Bola yoki oilaga yordam berish maqsadida bolaning uzoq davom etgan kasalligi sabablarini surishtiradi, bola o'qishda ortda qolmasligi uchun u bilan uyda va kasalxonada alohida shug'ullanadi. Bola tarbiyasidagi muammolarni hal qilish uchun huquqshunos, shifokor, militsiya hodimlari xizmatidan foydalanadi.

Ko'pgina G'arbiy Yevropa davlatlarida ijtimoiy pedagog maktabning shtatli xodimi hisoblanadi. U ijtimoiy yordamga muhtoj bolalarni aniqlaydi. Bu bolalar maktab kursini o'zlashtirishga qobiliyati yetmaydigan bolalardir. Bu bolalar maktab yoki oilada

ruhiy tushkunlikni boshdan kechirishadi. Odatda bu bolalar voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya ro'yxatida turishadi. Ba'zan bolalar va ularning atrofida gilar bilan munosabatlarini oydinlashtirish yetarli yordam beradi. Ijtimoiy pedagog o'quvchining maktabdan tashqari vaqtini tashkillashtirib, o'z tarbiyaviy ishini olib borishida ota-onalar bilan hamkorlik qiladi. Hamkorlik yuzasidan seksiya, klublar, har xil mehnat, turistik bo'linmalar tashkil qiladi. Ijtimoiy pedagog pedagogik jamoaning tarbiyasi og'ir bolalar bilan ish olib borishini tartibga soladi. U maktab pedagogik jamoasiga doimiy tarzda sinfdagi psixologik muhit to'g'risida axborot beradi. Aynan shu holat maktabda ijtimoiy ish olib borishning rejasini tuzishda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy pedagog maktabdan haydalgan bolalarga alohida e'tibor qaratishi kerak. U ularni boshqa maktabga joylashtirishga, yangi jamoaga ko'nikishlariga yordam ko'rsatadi. Ijtimoiy pedagog dars soatlari vaqtida noqonuniy ishlab yurgan bolalarni aniqlaydi, ularning o'qish masalasini hal qiladi. U ko'p bolali oilalarning barcha imtiyozlaridan foydalanishlari, bolalarning reabilitatsion markazlarga qatnashlarini nazorat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari va sinf rahbarlari tumandagi oila va o'quvchilarni o'rganib chiqishadi. Ijtimoiy yordamga muhtoj bolalarga e'tibor berishadi, tarbiyasi og'ir bolalarni tarbiyalashda oilalarga yordam berishadi.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari o'z faoliyatida to'garak, seksiya, klublarni tashkil qilish, o'qituvchining o'quvchilar bilan individual ishlashini, yashash joyida bolalar bilan konsultatsiya o'tkazish, alohida pedagogik e'tiborga muhtoj bolalar bilan ish olib borishni nazorat qiladi.

Alohida fanlardan dars beruvchi o'qituvchilar bolalarning qiziqishlarini o'rganib chiqib, ularni turli to'garak va seksiyalarga jalb qilishadi. Maktabda turli tadbirlar o'tkazishadi. Bu tadbirlarni o'tkazishda ota-onalar va sobiq o'quvchilar yordamidan foydalanishadi, maktabga mashhur kishilarni chaqirishadi.

Maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiylashtirish omili.

Bolalar submadaniyatini shakllantiruvchi tengqurlar jamoasidir. Ijtimoiy pedagog bu hodisalarning funksiyalarini bilishi, ularning

o'quvchilarning shaxsiy xislatlari va ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirishdagi o'rinlarini ko'ra olishi lozim.

Tengqurlar jamoasi va bolalar submadaniyati. Bola ijtimoiylashuvining shartlaridan biri tengqurlar bilan munosabatga kirishishidir. Bu munosabat MTM guruhi, maktab sinflari, turli norasmiy bolalar va o'smirlar birlashmalari kabi kichik guruhlarda shakllanadi. Bolalar va o'smirlar guruhlarida tengdoshlar orasida funksional, emotsional shaxsiy munosabatlar o'rnatiladi.

Funksional munosabatlar bolalar faoliyatining alohida sohalari (mehnat, o'qish)da qayd etilgan bo'lib, kattalarning bevosita rahbarligi ostida guruhdagi xulq-atvor normalarini o'zlashtirish orqali shakllanadi. Tengdoshlar guruhining hamma a'zolari ham yosh jihatdan teng bo'lmaydi. Bu guruhga har xil yoshdagi, biroq umumiy qadriyatlar, munosabatlar tizimi yoki qiziqishlari bilan birlashgan bolalar ham kirishi mumkin. Tengdoshlar guruhi a'zolarining soni turlicha bo'lishi mumkin. O'rtoqlar guruhida 2-3 dan 5 gacha, og'aynilar guruhida 7-9 gacha, asotsial guruhlarda 20 tagacha, rasmiy guruhlar - sinf, to'garak va boshqalarda 30-40 tagacha a'zo bo'lishi mumkin.

Tengqurlar guruhi odatda a'zolarining hududiy yaqinligi asosida shakllanadi. Tengqurlar guruhi individual qiziqishlarning mos tushishi, rasmiy tashkilot(sinf, boshqalar) borligi va guruh a'zolari o'rtasida shaxsiy munosabatlar mavjudligi tufayli shakllanadi. Bu munosabatlar guruh a'zolarining xarakter va o'zaro ta'sirlarida, shuningdek sinfda rollarni taqsimlashda namoyon bo'ladi.

Birinchidan yetakchi ajralib chiqadi. Eksperimental tadqiqotlarda yetakchisi bo'lmagan guruh aniqlanmagan. Sohaviy yetakchilar ham bo'lishi mumkin. Masalan, aqliy, emotsional, ishbilarmon yetakchi bo'lishi mumkin. Tengqurlar guruhini bir necha parametrlar bo'yicha tasniflashimiz mumkin:

Ijtimoiy tizimdagi yuridik maqomiga ko'ra tengqurlar guruhlari rasmiy, ya'ni jamiyat tomonidan tan olingan, biror bir davlat yoki jamoat tashkiloti bilan bog'liq bo'lgan guruhlar va norasmiy (o'z-o'zidan mavjud bo'lgan) guruhlarga bo'linadi. Ijtimoiy psixologik maqomiga ko'ra ular ikkiga bo'linadi, ya'ni mansublik guruhi – uning haqiqiy a'zolari mavjud (sinf, sport klubi va boshqalar) va inson hayolan tayanadigan referent guruhi.

Faoliyat yuritishning barqarorligi va uzoq muddatlilikiga qarab doimiy, vaqtinchalik hamda tasodifiy guruhlariga ajratiladi.

Hudud jihatidan ular hovli, mahalla yoki biror bir muassasa tarkibida faoliyat yuritishlari mumkin.

Yetakchilik borasida ular demokratik va avtoritar guruhlariga bo'linadi.

So'nggi o'n yilliklarda tengqurlar guruhlarini voyaga yetayotgan avlod ijtimoiylashuviga eng muhim mikroo'zroqlardan biriga aylandi. Avvalgi davrlarga qaraganda ularning o'rnini ancha jiddiylashtirdi, bunga bir qator jarayonlar o'z ta'sirini ko'rsatdi. Urbanizatsiya shunga olib keldiki, borgan sari ko'p bolalar, o'smirlar shaharlarda yashashyapti va u yerda ko'proq tengdoshlar bilan muomala qilish imkoniga ega bo'lishmoqda. Bu muomalani kattalar to'liq nazorat qila olishmaydi. Katta oilaning kichiklashuvi, bir bolali va to'liqsiz oilalarning ko'payishi, oilalarning noto'g'ri tashkillashtirilganligi, bolalar uchun oiladagi emotsional aloqalarning yetishmovchiligini uydan tashqarida to'ldirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Umumiy o'rta ma'lumot OAVlar shunga olib keladiki, voyaga yetayotgan avlod o'zlarining savodxonliklari va madaniy rivojlanishlari darajasiga ko'ra ancha tenglashib qolishdi. Shuningdek, bolalarning tengqurlar guruhlariga birlashishlariga nafaqat kiyim-kechak yoki turmak, balki hayot tarzini ham belgilab beruvchi moda ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bolalar, o'smirlar va o'spirinlar bir vaqtning o'zida bir necha bir-biridan farqlanuvchi guruhlariga a'zo bo'lishlari mumkin. Rasmiy guruhlar (sinf, sport to'garagi va boshqalar) bolalar ijtimoiylashuviga ular hayotiy faoliyatining mazmuni, ularda shakllangan o'zaro munosabatlarning xarakteriga bog'liq ravishda ta'sir ko'rsatadi. Norasmiy guruhlar bolalar, o'spirinlar va o'smirlar ijtimoiylashuviga ularning tarkibi, yo'naltirilganligi, yetakchilik turiga ko'ra ta'sir ko'rsatishadi.

Turli yosh va ijtimoiy madaniy xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay, tengqurlar guruhining ijtimoiylashuvdagi funksiyalari universalidir. Birinchidan, guruh a'zolarini shu jamiyat madaniyatiga o'rgatadi, ya'ni ularning xulq-atvorini guruh a'zolarining milliy, diniy, mintaqaviy, ijtimoiy mansubligiga moslashtiradi. Ikkinchidan, tengqurlar guruhlarida ijobiy xulq-atvorga o'rgatiladi. Bu ularga namunaviy xulq-atvorlarni ko'rsatish, g'ayriijtimoiy xulq-atvorlarga

nisbatan chora qo'llash orqali amalga oshiriladi. Uchinchidan, tengdoshlar guruhlari bolalar, o'smirlar va o'spirinlarning kattalar, xususan ota-onalar ta'siridan avtonomlashuvlari jarayonida muhim o'rin tutadi. To'rtinchidan, guruh o'z a'zolariga yosh submadaniyatidan mustaqil bo'lish imkonini beradi.

O'rtoqlar va og'aynilar guruhlari kiyinish, yurish-turish borasida tengdoshlar jamiyatiga mos bo'lishga harakat qilishadi. Shu bilan bir vaqtda o'z mustaqilliklarini ham saqlashadi. Ya'ni boshqa bolalarni o'z guruhlarga qo'shmaslikka harakat qilishadi. Beshinchidan, tengdoshlar guruhlari bolalar tomonidan o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini belgilab olish masalalarini yechishga qulay yoki noqulay sharoitlar yaratib beradi. Oltinchidan, guruh o'z a'zolari tomonidan "ekologik chuqurlik" sifatida qabul qilinadigan spesifik ijtimoiy tashkilot hisoblanadi.

Guruhda emotsional va shaxsiy munosabatlar ham shakllanadi. Bolalar va yosh o'smirlar guruhlari emotsional munosabatlarning asosiy funksiyasi tengdoshlar xulq-atvorini umumqabul qilingan xulq-atvor normalariga moslashdir. Bu holatda do'stlik rishtalari, simpatiya birinchi o'ringa ko'tariladi. Aslida ular ontogenezda ancha avval paydo bo'lishgan. Agar maktabgacha yoshdagi bola ularga amal qilsa, bu holat boshqa bolalar tomonidan ijobiy qabul qilinadi.

Shaxsiy munosabatlar guruhdagi o'zaro bog'liqlik bo'lib, bunda bir bola xulq-atvorining sababi boshqa bola uchun shaxsiy ma'noga ega bo'ladi. Shaxsiy munosabatlar bola atrofdagilar bilan munosabatda kattalar rolini bajarganda yorqin namoyon bo'ladi. Bolalar hamjamiyati bolalar submadaniyatining tashuvchisi hisoblanadi. Bolalar submadaniyati – bu bolalarga jamiyatga ko'nikishlariga va o'z normalarini yaratishlariga ko'maklashuvchi madaniy hudud va muomala doirasidir.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun o'zining o'quv, tarbiyaviy va ijtimoiy vazifalarini ko'rib chiqib, birinchi o'ringa qanday ijtimoiy vazifalarni qo'ymoqda?

2. Maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiylashtirish omili

3.Maktab ma'muriyati bolalar bilan qanday pedagogik ishlarni amalga oshiradi?


4.Bolalar submadaniyati deganda nimani tushunasiz?

5.Psixologlar qanday pedagogik ishlarni amalga oshiradilar?

Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol metod:

“Idrok xaritasi”

**TA'LIM, TARBIYA, RIVOJLANTIRISH VAZIFALARINI
HAL ETISHGA KOMPLEKS IJTIMOIIY PEDAGOGIK
YONDASHUV mavzusida**



“Idrok xaritasi” (Konseptual xarita) metodi – fikrlarni taqdim qilish va bog‘lash usuli bo‘lib, u o‘quvchilarda tassavvur qilish va fikrlarni tizimlashtirish, o‘rganilayotgan mavzudagi bosh g‘oyalar yoki asosiy tushunchalarni, birlamchi tushunchalarni izohlashga yordam beruvchi ikkilamchi va uchlamchi g‘oyalar yoki tushunchalarni ajratish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Taklif etilayotgan usul yangi bilim va axborotlarni konspektlashtirishning standart chizmasini ishlashga xizmat qiladi va darsning uzundan uzoq konspektini yozish yukidan xalos etadi.

Xaritani tuzish o‘quvchiga:

- asosiy, ikkilamchi, uchlamchi (va h.k.) shoxchalar (chiziqlar)larni ishlatish hisobidan iyerarxik tartibda mavzuning asosiy g‘oyalarni strukturalashga;

- ravshan va rangli obrazlar orqali g‘oyani kuchaytirishga;

- ular orasidagi bog‘liqlikni namoyish etishga;

- rang, shrift razmeri, bo‘rttirish va h.k.lar bilan konsepsiyalarni ajratishga;

- maxsus belgilar yordamida g‘oyalarni baholash va izohlashga imkon beradi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:
“Maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiylashtirish omili”-
mavzusida taqdimot tayyorlash
Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:



1.Faoliyat nazariyasining asoschisi kim?

- a)A.N.Leontyev.
- b)F.Obuxova
- c)L.S.Vigotskiy.
- d)D.B.Elkonin

2.Bolalar bog‘chasi xozirda MTT birinchi marta qayerda va kim tomonidan tashkil etilgan?

- a)1837 yili nemis pedagogi F.Fryobel tomonidan tashkl etilgan
- b)1857 yili russ pedagogi Y.A.Komenskiy tomonidan tashkl etilgan
- c)1837 yili nemis pedagogi Disterveg tomonidan tashkl etilgan
- d)1867 yili russ pedagogi Lev Tolstoy tomonidan tashkl etilgan

3.“O‘z o‘zingni angla” degan shiorni ilgari surgan va shu bilan ong insonda barcha yovuzlikni yo‘qotishi mumkinligini qaysi olim ta’kidlagan?

- a)Suqrot
- b)Demokrit
- c)Arastu
- d)Aflotun

4.Bolalar jamoasi deganda nimani tushunasiz?

- a)Muayyan umumiy maqsadi va faoliyati turiga ko‘ra birlashgan bolalar guruhi
- b)Ta’lim va tarbiyaning muayyan maqsadi
- c)Faoliyat jarayonida bolalarning ishtiroki
- d)Xalq ta’limi tizimining dastlabki bo‘g‘ini

5.Bilish deganda nimani tushunasiz?

a) Ta'lim jarayonida bolalarga taqdim etilgan o'quv materialining o'zlashtirilganlik darajasi.

b) Borliq va uning ob'ektiv qonuniyatlarini o'rganish, o'zlashtirish, egallash.

c) Ta'lim jarayonida tarbiyachi tomonidan olib boriladigan faoliyat

d) Ta'lim oluvchilar bilim, ko'nikma va malakalarning shartli ifodalanishi

6. MTTda ijtimoiy faoliyat necha bosqichda olib boriladi?

a) 3 ta

b) 4 ta

c) 2 ta

d) 5 ta

7. O'rta maktabgacha yosh davri necha yoshlarni o'z ichiga oladi?

a) 4-5 yosh

b) 2-3 yosh

c) 3-6 yosh

d) 4-7 yosh

8. Ijtimoiy pedagogikaning faoliyati qaysi bosqichlardan iborat?

a) Tashxis, tayyorlov, amaliyot

b) Hudud vaqt muomalalar

c) Amaliyot vaqt hudud

d) Tayyorlov amaliyot

9. Tamoyil so'zi qanday ma'noni anglatadi?

a) Tamoyil — "Prinsip" so'zi (lot. Prinsipiumdan) berilgan hodisani belgilaydigan boshlanish, asos degan ma'noni anglatadi.

b) "Tushuncha" degan ma'noni anglatadi

c) "Asos" degan ma'noni anglatadi

d) "Qoida" degan ma'noni anglatadi

10. "Notiqning tarbiyasi haqida" deb nomlangan ilk pedagogik asarni kim yozgan?

a) Mark Fabiy Kvintilian

b) Farobiy

c) Yan Amos Kamenskiy

d) Demokrit

“BOLALARNING IJTIMOIIY MOSLASHUVI” FANIDAN GLOSSARIY

Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Axloq (lot. “moralis” – xulq-atvor) – ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig‘indisi.

Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini bolalar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Bashoratlash – bo‘lajak mashg‘ulotni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma‘qulini tanlab olish.

Bilim – bolaning ongida tushunchalar, sxemalar, ma‘lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma‘lumotlar majmui.

Bilim olish – borliqni idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Bilish – ob‘ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni.

Bolalar jamoasi – ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan bolalar birlashmasi, guruhi.

Yosh xususiyatlari – muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Jamoa (lot. “kollektivus” – yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) – bir necha a‘zo (kishi)lardan iborat bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jamoa an'analari – jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

Jismoniy tarbiya – bolalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Idrok – aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha adapto – moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.

Ijtimoiy muhit – shaxsni o'rab turgan. uning ongi hamda xulqiga faol (bevosita va bilvosita, stixiyali va ongli) ta'sir o'tkazuvchi barcha ijtimoiy shart-sharoitlar, faoliyatlar va aloqadorliklarni belgilashda xizmat qiluvchi falsafiy kategoriy.

Ijtimoiy hayot – keng va tor ma'nolarida qo'llaniladi. **Keng ma'nodagi ijtimoiy hayot** – yaxlit bir tizim hisoblanib. ijtimoiy hayot voqeligi sifatida insonlarning barcha ongli harakati natijasida vujudga kelgan moddiy va nomoddiy narsalar tizimiga aytiladi. Bularga ruhiy, iqtisodiy, siyosiy va tor ma'nodagi ijtimoiy hayotlar kirib ketadi. **Tor ma'nodagi ijtimoiy hayot** ~ kishining bioijtimoiy mavjudot sifatida, o'z ixtiyori bilan namoyon qiluvchi hayot jabhalariga aytiladi. Bularga oiladagi kundalik hayot, o'zining shaxsiy hayoti hamda mehnat va siyosat bilan bog'liq bo'lmagan barcha faoliyatlar kiradi. Tor ma'nodagi ijtimoiy hayot tizimining qismlari – ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat va san'at deb nomlanishini yuqorida aytib o'tdik. Bu unsurlarning har birini alohida-alohida ilm tarmoqlari o'rganib, ular shu ilmlarning tadqiqot ob'ektlari hisoblanadi.

Ijtimoiy-ahloqiy muhit – akmeshaxs shakllanishining asosiy omili bo'lib, akmeshaxs taraqqiyotida shaxsning shaxsiy imkoniyatlar bazasi bilan bir qatorda ta'sir etuvchi vosita sifatida ishtirok etadi.

Ijtimoiylashuv – individning jamiyatda muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik

mexanizm, ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishi jarayonidir. Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalaydi. Bu omillarning ba'zilar insonning butun hayot davrida davom etadi. Ommaviy axborot vositalari esa uning hayotining ma'lum davrida ta'sir qiladi. Ijtimoiylashuv faqatgina shakllanayotgan shaxsning faolligigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, ayni pallada atrof-muhitning unga bo'lgan ta'siri hamdir. Ayrim tadqiqotchilar, ijtimoiylashuvning ikki jihatini ko'rsatadilar: **ijtimoiy moslashuv** va **interiorizatsiya**. Birinchi jihati, individning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitga, ijtimoiy hayotining turli darajalaridagi tartib-qoidalarga, insonni o'rab turgan muhit sifatidagi mavjud ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy institutlarga, jamiyatdagi o'zining mavqeyiga moslashuvini nazarda tutsa, ikkinchi jihati esa intertorizatsiya, ya'ni ijtimoiy qadriyatlar va tartib-qoidalarining inson ichki dunyosiga singib borishi.

Izohlash – tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli.

Iqtisodiy tarbiya – bolalarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Imij (inglizcha *image* – timsol, shakl) – ommaviylashtirish, reklama qilish maqsadida ma'lum bir kishilarga emotsional psixologik ta'sir ko'rsatish asosida ularda aniq bir shaxs, hodisa, predmetning maqsadli yo'naltirilgan timsolini shakllantirishdir. Imijning bir necha xususiyatlarining mohiyatiga e'tiborni qaratish mumkin: birinchidan, imij – timsol, ya'ni kategoriya sifatida asosan siyosiy-psixologiyaga tegishli hodisadir; ikkinchidan, timsol maqsadli yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatish natijasida shakllanar ekan. kishilar va jamiyatga ta'sir ko'rsatish jarayonining o'zini hech bir mubolag'asiz davlat va boshqa siyosiy tuzilmalarning ishtirokini talab etuvchi siyosiy jarayon sifatida ko'rsatish mumkin.

Individ (lot. "individium" – bo'linmas, yagona, alohida) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik – shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

Inson – kishi, uning ongi, odob-axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi, talab-ehtiyojlarining qondirilishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat qanday bo'lsa, ijtimoiy munosabatlar majmuyi bo'lgan inson ham unga mos bo'ladi. Inson dunyoda eng murakkab mavjudot, tabiatning yuksak mahsuloti. hayot gulidir. Insonning bebaholigi – uning aql-idrok va tafakkuriga egaligidadir. U aql-idrok sohibi bo'lgani uchun real dunyodagi voqealarni biladi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida “yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi” mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha.

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

Korreksiya (yunon. “correctio” – tuzatish) – pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.

Ko'nikma – olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifa va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

Madaniyat (lot. “cultura” – parvarish qilish, ishlov berish) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida bola tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Maktabgacha pedagogika – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadigan fan.

Maktabgacha ta'lim – bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi

hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat MTM va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan, tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Mehnat tarbiyasi – shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Rag'batlantirish – tarbiyalanuvchining xatti-harakati, faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

Tamoyil (yunon. “principium” – har qanday nazariyaning asosiy, boshlang'ich, dastlabki holati) – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni – pedagog va bola (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni – shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunon. “metodos” – yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.

Tarbiyachi (pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus ma‘lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma‘naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs.

Tafakkur – ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to‘laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

Tashxis – didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Ta‘lim – bolalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon.

Ta‘lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta‘lim jarayoni – tarbiyachi va bolalar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta‘lim mazmuni – davlat ta‘lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma‘lum sharoitda muayyan fanlar bo‘yicha o‘zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Ta‘lim maqsadi (o‘qish, bilim olish maqsadi) – ta‘limning aniq yo‘nalishini belgilab beruvchi yetakchi g‘oya.

Ta‘lim metodlari – ta‘lim jarayonida qo‘llanilib, uning samarasini ta‘minlovchi usullar majmui.

Ta‘lim natijasi (mahsuli) – ta‘lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o‘quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta‘lim shakli – ta‘lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.

Topshiriq – bolalarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladigan usul.

Tushuntirish – o‘quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

O‘qish – ma‘lum usullar yordamida tashkil etilgan bilimlarni o‘rganish jarayoni; bolalar tomonidan o‘quv faoliyati usullarini egallab olishga yo‘naltirilgan faoliyat.

O‘rgatish – tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

Faoliyat – shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko‘rinishi.

Fenomen (yunonchadan *fainomenes* ~ hodisa) – akmeologik fenomenlar, birinchidan, murakkab tirik organizm bo‘lgan insonni individ sifatida namoyon bo‘lishi, avvalo, professional sifatidagi, arbob sifatidagi voqelikning turli-tuman tomonlariga insondagi paydo bo‘lgan yadroviy munosabatlarning ko‘rinishlari, ikkinchi jihatdan, uni jamiyatdagi bajaradigan rolga qarab, insonlarning kichik va katta birlashmalarida ko‘rinadigan hayot faoliyatini yashash sharoitining konkret ko‘rinishlari orqali chiqadigan hodisalar.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyat a‘zosi.

Ekologik ta‘lim – bolaga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo‘naltirilgan ta‘limiy jarayon.

Ekologik faoliyat – ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

Estetik tarbiya – bolalarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go‘zalligini idrok etish, to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish va hayotiga go‘zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. –T., 2016 yil, 29-dekabr.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni– T., 2022

7. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. –T. O‘zbekiston, 2020.

8. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi “Maktabgacha ta’lim tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. –T., 2019

9. 2020 yil 22 dekabrda 802-sonli qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” O‘zbekiston, 2020.

10. Umarov A.Yu., Abdullayeva B.S., Abdug‘aniyev O.T., Raximova F.N., Qodirov X.O. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. –T.: TDPU, 2021. 16,5 b.t.

11. Абдулатипов Р.Г. Человек. Нация. Общество. – М.: Политиздат, 1991.

12. Андреева Г.М. Социальная психология. – М., 1988.

13. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. –T.: Cho‘lpon, 1995.

14. Бодалев А.А. Вершина в развития взрослого человека. Характеристики и условия достижения. – М., 2007.

15. Бочарова В.Г. Социальная педагогика. – М., 1994.

16. Василкова Ю.В., Василкова Т.А. Социальная педагогика. –М., 2006.

17. Гуров В., Шинкаренко Н. «Открытая» школа и социально-педагогическая работа с детьми // Воспитание школьника, 1994, № 2.

18. Закатова И.К. Социальная педагогика в школе. – М., 1996.

19. Ziyomuhamedov V. Komillikka eltuvchi kitob. - T.: TURON - IQBOL, 2006, 289-bet.

20. Измайлов А.Е. Народная педагогика: педагогические воззрения народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Педагогика, 1991. – 256 с.

21. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. –Т.: TDPU, 2013.

22. Козлова С.А. Дошкольная педагогика. –М.: Просвещение, 2000.

23. Кукушкин В.С., Столяренко Л.Д. Этнопедагогика и этнопсихология. – Ростов-на-Дону, 2000.

24. Qodirov B.G. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. –Т.: Mehnat, 2001.

25. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. Darslik. –Т.: Tafakkur bo'stoni, 2019.

26. Мардахаев Л.М. Социальная педагогика. –М.: Просвещение, 2006.

27. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. – Т.: Akademiya nashriyoti, 2007.

28. Мудрик А.В. Социальная педагогика. –М.: Просвещение, 2005.

29. Муминов Р. Этнопедагогика и современная узбекская школа. – М., 1993.

30. Подласый И.П. Педагогика: 100 вопросов – 100 ответов. – М., 2001.

31. Селевко Г.К. Дифференциация учебного процесса на основе интереса детей. – М., 1996.

32. Слостенин В.А., Исаев И.Ф. и др. Общая педагогика. Ч.1. – М., 2003.

33. Sodiqova Sh.A Maktabgacha pedagogika. Darslik. –T.: Tafakkur bo‘stoni, 2013.

34. Тихомирова Н.К. Система воспитательной работы в школе на основе программы. – М., 1996.

35. Харламов И.Ф. Педагогика в вопросах и ответах. – М., 2001.

36. Silber K.H. Some implication all of the history of Educational Technology We’re all in this together. In: J.W.Brown and S.N.Brown. Educational Media Yearbook, Littleton, Colorado: Libreres Unlimited, 1981, r.21.

37. Charles Stangor. Introdution to Psychology. 2011. 4-8.

38. Quronov M. Qurbaniyazova Z. Ijtimoiy pedagogika. (ma’ruza matni) T.:2003.

Internet saytlari

1. Kitobxon.uz
2. referat.uz
3. www. edu. uz
4. www. pedagog. uz
5. www. tdpu. uz
6. www. Ziyonet. uz
7. www.yedy.uz

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| KIRISH..... | 3 |
| TARBIYA - IJTIMOY HODISA. TARBIYA-IJTIMOYLASHTIRISH OMILI. IJTIMOYLASHTIRISH-TARBIYANING BOSH MAQSADI..... | 6 |
| IJTIMOYLASHTIRISH JARAYONI VA TARBIYALANUVCHI TOMONIDAN JAMIYATDA MAVJUD BO‘LGAN ME‘YORLAR, QADRIYATLAR, XULQ-ATVOR SHAKLLARINING O‘ZLASHTIRILISHI..... | 14 |
| BOLALIK-INSONNING IJTIMOY HAYOT ME‘YORLARINI EGALLAY BOSHLAGAN DAVRI..... | 22 |
| IJTIMOYLASHTIRISHNING OMILLARI (MAKRO, MEZO VA MIKRO OMILLAR) VA MEKANIZMLARI..... | 31 |
| IJTIMOY PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA. IJTIMOY PEDAGOGIKA TA‘RIFI, TUZILISHI VA VAZIFALARI..... | 39 |
| IJTIMOY TARBIYA (KENG VA TOR MA‘NODA) TUSHUNCHASI..... | 53 |
| IJTIMOY TARBIYADA MAHALLANING O‘RNI..... | 61 |
| “TAMOYIL” VA “QOIDA” TUSHUNCHALARI. INSONPARVARLIK TAMOYILI. TABIATGA MOSLIK TAMOYILI. MADANIY MUVOFIQLIK TAMOYILI..... | 84 |
| IJTIMOY-PEDAGOGIK KATEGORIYALAR. PEDAGOGIKA VA IJTIMOY PEDAGOGIKA KATEGORIYALARI: SHAXS, RIVOJLANISH, FAOLIYAT, IJTIMOYLASHTIRISH, JAMIYAT. IJTIMOY PEDAGOGIK FAOLIYAT. IJTIMOY TA‘LIM-TARBIYA VA IJTIMOY TARBIYA..... | 91 |
| ILMIY TADQIQOT METODLARI: EMPIRIK VA NAZARIY. ILMIY TADQIQOT METODLARI TAVSIFI. IJTIMOY PEDAGOGIKADA ILMIY TADQIQOTNING VAZIFALARI.. | 103 |
| ILMIY TADQIQOT BOSQICHLARI. ILMIY TADQIQOT YAKUNLARI..... | 112 |
| MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING SOTSIUMDA RIVOJLANISHI..... | 118 |
| BOLANING RIVOJLANISHIDA TARBIYA SOTSIUM SIFATIDA..... | 125 |
| MADANIY SOTSIUMNING BOLA RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI. DINNING SOTSIUM SIFATIDAGI O‘RNI. | |

| | |
|--|-----|
| MA'DANIY-MA'RIFIY MUASSASALARNING BOLA RIVOJLANISHIDAGI O'RNI..... | 140 |
| IJTIMOY PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA. IJTIMOY PEDAGOGIKA TA'RIFI, TUZILISHI VA VAZIFALARI..... | 146 |
| DEVIANT XULQ-ATVOR TUSHUNCHASI. DEVIANT XULQ-ATVORNING YUZAGA KELISHI. DEVIANT XULQ-ATVOR TURLARI..... | 160 |
| IJTIMOY PEDAGOGIK FAOLIYATNING BOLALARNING MOSLASHUV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI..... | 174 |
| TA'LIM, TARBIYA, RIVOJLANTIRISH VAZIFALARINI HAL ETISHGA KOMPLEKS IJTIMOY PEDAGOGIK YONDASHUV..... | 186 |
| "BOLALARNING IJTIMOY MOSLASHUVI" FANIDAN GLOSSARIY..... | 195 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... | 202 |

G.E. Djanpeisova, R.H. Davlatova, Sh.N. Haydarova

BOLALARNING IJTIMOIIY MOSLASHUVI

DARSLIK

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 14.03.2023.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6. Shartli bosma taboq 12.



Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

 t.me/ Bookmanyprint  +998 99 180 97 10